

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy
JURNAL*

2024-yil 1-2-son

Urganch-2024

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Tahrir hay’ati:

Z.Do’simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.

G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O’razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G’ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

S.E.Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

D.I.Yo’ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo ‘yicha falsafa doktori, (PhD).

E.Ro’ziyev – Pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

D.A.O’razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

M.J.Jumaniyazov – Texnika fanlari doktori, professor.

S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.

O’I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.

Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

I.S.Yusupov – Tarix fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.

B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).

Q.Navro’zov – Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

R.Y.Ro’ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).

B.Rasulov – Tarix fanlari doktori, dotsent (AnDPI rektori).

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

H.H.Tadjiev – Turkologiya fanlari bo ‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog’iston).

J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

B.B.Nurullayeva – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

M.S.Abdullayev – San’atshunoslik fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD).

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
№1-2 (12), Urganch innovatsion universiteti, 2024-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

U.BEKMUHAMMAD. Navoiyning mulkdorlik faoliyati va xayr-saxovati.	4
G.IBRAHIMOVA. Abdurazzoq Samarqandiy asari Xorazmdagi jarayonlarga oid tarixiy manba	12
D.JUMABOYEVA. Xiva xonligida oliy kengash faoliyati	17
N.ALLAYAROV. Kulolchilik mакtablarining o‘ziga xos jihatlari	20
D.JUMABOYEVA. Xiva xonligi tarixini o‘rganishda A.L.Kun asarining ahamiyati	23
D.ATAJANOVA. Jadidchilik harakati, uning maqsad va vazifalari.....	27

IQTISODIYOT

A.NAVRUZOV. Tijorat banklaridagi muammoli kreditlar holatini tahlil qilish va ularni kamaytirish masalalari	31
M.MADRAIMOVA, D.BABAJOANOVA, Z.ABDULLAYEVA. Mintaqada kichik biznesni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari.	37
F.OZODOVA, G.ATAJANOVA, Sh.FARXODOVA. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanish xususiyatlari ahamiyati.	42

FILOLOGIYA

U. BEKMUHAMMAD. Komil Xorazmiyning hayoti va ijodiy merosi.	46
R.XUDOYBERGANOV, S.SAMANDAROVA. O‘zbek ismlarining qisqarishi yuzasidan olib borilgan ayrim ilmiy ishlar tahlili	51
D. TOJIBOYEV. Yodnomalar va onomastika.	56

MATEMATIKA

K.NAVRUZOV, N.ABDIKARIMOV, Q.XAYITBOYEV. Yassi kanalda reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimi.	63
N.ABDIKARIMOV, L.AQMONOVA. Devori deformatsiyalanuvchi yassi kanalda qovushoq suyuqlikning pulsli oqimi	73

PEDAGOGIKA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI

S.URAZBOYEVA. Boshlang‘ich sinflarda sintaksis elementlari ustida ishlashning nazariy va metodik jihatlari	84
G.YULDASHEVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tezkor hisoblash usullarini o‘rgatishni rivojlantirish-ijtimoiy pedagogik zarurat sifatida.	87
N.BEKBERGANOVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ nutqni shakllantirish metodikasi.	90
Ch.SABIROVA. Talabalarda ma’naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiylash omillari	93

FALSAFA

Sh.OLLABERGANOVA. Tahdidlar va ularni bartaraf etishda ajdodlar amaliyotlarining bugungi davrdagi ahamiyati..	97
---	----

TARIX**NAVOIYNING MULKDORLIK FAOLIYATI VA XAYR-SAXOVATI****UO·K 574.511**

**Umid
БЕКМУХАММАД**
Tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori

Annotatsiya: ushbu maqolada Navoiyning Xurosondagi yer egaligi, ko‘plab mulklari o‘sadavr manbalari asosida yoritib berilgan. Shuningdek, mulkdorlik faoliyatidan keladigan daromadlarning xayr-saxovat yo‘lida sarflanishi ham tahlil qilingan.

Аннотация: в статье на основе источников того времени рассмотрены земельные владения Навои в Хорасане, многие объекты недвижимости. Также было проанализировано использование доходов от предпринимательской деятельности на благотворительные цели.

Annotation: in this article Navoi's land ownership in Khurasan, many properties are covered based on the sources of that time. Also, the use of the income from the ownership activity in the way of charity was analyzed.

Kalit so‘zlar: Navoiy, Hirot, Xuroson, yer, mulk, madrasa, savdo rastalari.

Ключевые слова: Навои, Хират, Хурасан, земля, имущество, медресе, ларьки.

The keywords: Navoi, Herat, Khorasan, land, property, madrasa, stalls.

Zamondoshlari orasida unga havasmandlar mavjudligi kabi hasad qiladiganlar ham yo‘q emasdi. Zero, Alisher Navoiy nafaqat mutafakkir shoir va davlat arbobi, balki o‘z davrining eng boy kishilaridan biri ham bo‘lgan. Hatto qolgan umrini ijod va ilmga bag‘ishlash maqsadida o‘z ixtiyori bilan vazirlikdan iste’foga chiqqanida, g‘arazgo‘ylar “Alisherbekning boyligi oshib, davlati g‘ururidan noziklashib ketdi”, – deya mish-mish ham tarqatishgandi...

Temuriylar sulolasiga xizmat qilib, Sabzavor shahriga hokim bo‘lgan G‘iyosiddinning o‘rtancha o‘g‘li Alisherbek otasi vafotidan so‘ng meros sifatida o‘ziga tegishli bo‘lgan sarmoyani, qolaversa, topgan pulini, Boyqaro in’om etgan yerlarni tadbirkorlik bilan ishlatib, qisqa fursat ichida boyib ketdi. Tadbirkorlik yo‘nalishini asosan bog‘-u rog‘lar qilishga qaratdi, undan keladigan daromadni

esa madaniy-ma'rifiy inshootlar qurilishiga sarfladi. Ya'ni qishloqlarni bog'zorlarga aylantirdi, ulardan tushgan pullarni xayriya ishlariga, ilmga sarfladi.

Alisher Navoiyning dehqonchilik qilinadigan ko'plab yeri bo'lib, asosan Hirot atroflarida, Sabzavorda edi. Bu yerlarda dehqonlar kelishilgan holda ishlab, muntazam haq olib turishgan.

1481-yilda yozilgan "Vaqfiya"ga ko'ra, Navoiyning "Olinjon bo'luki Farroshon mavze'ida yigirma besh jerib bog'", Xoja Shihob bog'oti va yuz jerib yer, Sabgur bo'lukida ikki qit'a uzum bog'i – olti jerib, yana Sifliy mahallasida necha bog'ot, ja'mi oltmis jerib, yana mazkur mahallada yigirma olti jerib uzum bog'i. Yana bir qit'a o'n sakkiz jerib yer va dag'i o'n ikki jerib bog'. Yana qit'a o'n to'qqiz jerib. Yana tok bila bog'ot yetmishto'rt jeribkim, undan o'ttiz to'rt jeribi uzum toki, o'zgasi yer bo'lgay, yana necha qit'a yer tutash o'n to'rt jerib, yana bir qit'a yer yigirma to'rt jerib, yana bir qit'a yer bir yarim jerib" yerlari bo'lib, jami 800,5 jeribni tashkil qildi. Deyarli bari sug'oriladigan, hosildor yerlar bo'lgan.

Bulardan tashqari, Alisherbekka qarashli bir qator savdo rastalari ham bo'lib, ular asosan eng gavjum bozorlarda joylashgandi: "Hirotdagi Malik bozori ichindagi rastada bir-biriga muttasil (tutash) beshta do'kon, janubiy bozorning g'arbida yana bir po'stinfurushlik do'koni ham bir bolaxonasi, yana bir timcha va to'rt do'kon bir-biriga muttasil. Malik darvozasi toshida (tashqarisida) ikki oshom (qavat) imorat va sakkiz do'kon timchaga tutash. Yana ikki do'kon Quhunduzda, yana ikki do'kon Bog'i Zog'on ko'chasida voqe'dur". Yana Xuroson sarhadlarida 4 ta tim bozori, 24 ta do'kon ham bor edi.

Ushbu bozorlardagi savdo rastalarida, do'konlarda tosh-u tarozining to'g'rilibini, xaridor haqiga rioyani, olib kelingan molga yo'l xarajatlaridan tashqari ortiqcha pul qo'ymaslikni ham shaxsan Navoiy hazratlarining o'zi nazorat qilib turgan.

Ana shu yerlar, bog'zorlar, do'konlardan keladigan daromadni shoir saxiylik bilan muhtoj, yetim-yesir, beva-bechora, ilmli insonlarga in'om qildi. Hatto bir gal Husayn Boyqaroning davlat xazinasida xarajatlar ko'payib ketganda soliqlar xalqdan yig'ilsa, ahli muslimga jabr bo'lur, deya o'z hisobidan 25 ming dinorni butun boshli mamlakat ahli uchun to'lab yuborgandi.

Bu jo'mard zot o'zi qurdirgan Shifoysi, Nizomiya, Xisraviya madrasalari ma'muriyatiga topshiriq beradi. Unga ko'ra, "Ikki olimu muttaqiy (taqvodor olimlar) mudarris bo'lgay. Har birining yillik vazifasi (ish haqi) ikki yuz oltin naqdi, yigirma to'rt xarvor (bir eshak ko'tararlik yuk) oshlik, yarmi arpa, yarmi bug'doy bo'lgay. Har halqayi darsda o'n bir tolibi ilmkim, borisi yigirma ikki bo'lgay. Olti a'lo (a'lochi) har biriga oylik naqdi yigirma to'rt oltun, yilda bug'doy besh yuk, vasat (o'rtta o'qig'onlar) sekiz (talaba) oylig' har biriga naqdi o'n oltin, bug'doy – yillik to'rt yuk, adno (past o'qigonlar) sekiz talaba oylik har biriga o'n ikki oltun, oshlig' yiliga uch yuk" berilardi. Oshpaz va farroshlarga

ham ochiqqo‘llik bilan maosh to‘langan. “Tabaqchi (oshpaz)ga yillik naqdi ikki yuz oltun, bug‘doy besh yuk. Bir farrosh va ikki xodimdin har biriga yiliga ikki yuz oltundin jam’i olti yuz oltun, bug‘doy besh yukdin o‘n besh yuk” etib belgilangan.

Ushbu madrasalarda asosiy e’tibor talabalarining ilm olishiga qaratilib, o‘qitish jarayoni Navoiyning nazoratida bo‘lgan. Talabalar guruhlarga ajratilgan, har bir guruh o‘n bir kishidan tashkil topgan. Bu ularning darsni yaxshi o‘zlashtirishi uchun qilingan. Tabiiyki, darsni o‘zlashtirishiga qarab, talabalar uch toifaga bo‘lingan, shunga ko‘ra nafaqa to‘langan. Eng ilmli tolib shaxsan Navoiydan oyiga 24 oltin pul va yiliga besh qop oshlik olgan. O‘scha vaqtida eng semiz qo‘yning narxi 4-5 oltin dinor bo‘lib, talaba bir oylik nafaqasiga beshta qo‘y sotib ololgan.

Shoir mudarrislarni ham g‘oyat qadrlagan – yiliga 200 oltin dinor maosh, har oyda 2 qop bug‘doy va arpa, kundalik oziq-ovqat, hatto uyidan madrasagacha minib keladigan oti uchun yem ajrattirgan. Ba’zi ulovi yo‘q mudarrislarga ot ham olib bergen. Bularning barchasini tadbirkorlikdan qozonilgan mablag‘lar hisobidan qilgan.

Rus olimi Y.E.Bertels 1948-yilda nashr etilgan “Navoiy” asarida “Alisher Navoiy xazinasiga yer-mulklaridan har kuni 300 dan ortiq rabotlar, yigirmaga yaqin ko‘priklar va 380 joyda xayriya-ehson uylari qurilgan, ular orqali minglab muhtojlarga tekin ovqat va kiyim-kechak ulashib turilgan” (134-bet. Moskva, 1948) deb yozgan.

Ulug‘ shoir masjid va madrasalar bunyod etish, ularni ta’minalash bilangina kifoyalanib qolmay, hayoti davomida ko‘plab ariq, to‘g‘on, 9 ta hammom, 20 ta hovuz kabi 300 dan ortiq inshoot bunyod qildirganki, bu ancha-muncha boyvachchaning qo‘lidan kelavermaydigan saxovatlilik namunasidir.

Otasidan qolgan meros, davlat amaldori sifatida ajratilgan mol-u mulk va yerlaridan keladigan daromad Mirzo Haydar Do‘g‘lotning “Tarixi Rashidiy” asaridagi ma’lumotga ko‘ra, kuniga 18 ming shohruhiy dinorni, Faxriy Hirotiyning “Latoifnoma”sida yozilishicha esa kundalik daromadi 75 ming, chiqimi 15 ming dinorni tashkil etardi. Ammo u boshqa mulkdorlardan farqli ravishda, o‘z ehtiyojidan ortiqcha barcha pullarini xayriya ishlariga sarfladi...

Navoiy hazratlari “Mahbubul qulub”da “Yaxshilarni topmoq yedirmoqdir va ayblarni yopmoq kiydirmoqdir. O‘rinli berilgan eski chopon va qora to‘n – saxiylik va o‘rinsiz berilgan zardan to‘qilgan sarpo – yaramaslik. Ovqating bekor ketmasin desang, yedir; kiyiming eskirmasin desang, kiydir. Saxiylik yo‘lini yuqorida aytalgancha angla, ammo yaxshilik ravishi va hojat chiqarish rasmlarini boshqacha angla”, deya yozgan. Ya’ni ul zot davlatmand kishi sifatida qanday saxiylik qilish kerakligini o‘z asarida ta’kidlab o‘tgan.

Tabiiyki, bunday saxovatpeshalik ulug‘ shoir qalbiga yoshligidan ota-onasi tomonidan singdirilgandi. Alisherbekning otasi G‘iyosiddin bir umr temuriylar xonadoniga xizmat qilgan, 1452 – 1457-yillarda Sabzavor shahriga hokim ham

bo‘lgan. Mol-u mulkini uch o‘g‘il – Bahlulbek, Alisherbek va Darveshalibekka meros qilib qoldirgan. Keyinchalik, 1469-yili sharqda Balx, g‘arbda Bistom va Domagon, shimoli Xorazm, janubi Qandahor va Seyistondan iborat Xuroson taxtiga Husayn Boyqaro chiqqach, do‘sti Alisherbekni oldiniga muhrdor, so‘ngra amir va Astrobod viloyatiga hokim qilib tayinlaydi. Shuningdek, Bahlulbek va Darveshalibek ham viloyat hokimi lavozimiga erishadilar.

Alisher Navoiy otasidan meros mulki va o‘ziga davlat amaldori sifatida ajratilgan yerlardan keladigan daromad hisobidan Hirotda Ixlosiya, Shifoysi, Nizomiya madrasasini, Xalosiya xonaqohi, jome masjidini, Marvda Xisraviya madrasasini, Hirotdan tashqarida Raboti ishq, Raboti sang, shoir Attor qabriga maqbara, Nishopur shahri atrofidagi joylardan biriga Raboti yazdobarni qudiradi; Gulast bulog‘idan Mashhad tomon 80 chaqirim uzunlikdagi ariq qazdirib, shu va boshqa ariqlarga 16 ta ko‘prik o‘rnattiradi. 9 hammom, 20 hovuz, 52 rabot barpo ettiradi.

Ingliz olimi D.S.Trimingem 1989-yilda Moskvada nashr qilingan “Суфийские ордена в исламе” asarida 90 ta rabot qudirgan degan ma’lumotni keltirib o‘tgan, shuningdek, yana ko‘plab to‘g‘on, jami 300 dan ortiq inshoot bunyod qildirgan.

Xondamir “Xulosat ul-axbor” asarida Hirotdagi jome masjidining toqisi va maqsurasi zilzila natijasida shikastlanib, ta’mirga muhtoj bo‘lib qolganini, Navoiy hazratlari ushbu obidalarni o‘z mablag‘idan ta’mirlatganini keltirgan. Shu kabi zilzila va davr to‘fonlari bois shikast topgan yana 12 ta masjidni, mashhur Qobus minorasini, Aslon-joziba rabotini qayta ta’mirlash ishiga ham bosh bo‘lgan.

“Vaqfiya” asarida Navoiy hazratlari yozadi: “Va bu Marg‘ani ko‘shki bu havili muhavvatasining haddi janubi bila haddi g‘arbiysining mobaynida voqe’ erdi va ul imorate erdi-burun chog‘da tarh solg‘on va qadimda yasalg‘on binosi toshdan erdi. Hamonoki, ul toshni mehnat tog‘idin tashib erdilar va devori xom kirpichdin erdi, go‘yokim, ul kirpichni anduh tufrog‘i va hasrat suvidin quyub erdilar, tarhi ikki oshom erdi: quyig‘i oshomi tiyralikdin firoq shomi va anda nuhusat bimlari bila zulmat xuffoshlarining oromi, yuqorig‘i oshomi buzug‘lug‘din firoq ahli ko‘ngli evidin nishoni va anda navmidlik chug‘zları bila motamiy libos kabutarlar oshyon... chun bu muvajjah xayol ko‘ngulda ustuvor bo‘ldi va bu maqbul andisha xotirda qaror tutti, ul binoyi dayr payvandni hamvor qilib, o‘rnida madrasaye bino qilindi va ul asosi kaliso monandni buzub, yerida masjide solildi... Va madrasadin kirkach, masjid aning haddi g‘arbiki, qibla sori bo‘lg‘ay, voqe’ bo‘ldi. Va xushxon imom va xushovoz muqri muqarrar bo‘ldikim, saloti xamsani mahalla ahli bila qoim tutub, ul hazrat duosig‘a mashg‘ul bo‘lg‘aylar. Va madrasaning to‘ridakim, haddi shimoliydur, gunbaze yasaldikim, surai qur’oniy va oyoti furqoniy adosida qiroat gulshanining Isaviy nafas andalibi xush alhonlari va tajvid ravzasining Dovudiy nag‘ma foxtai shirinadolari har kun

hazrati risolatpanohi mutahhar ruhoniysi uchun bir siy pora kalom o‘qub, ul hazrat duosi birla xatm qilg‘aylar. Va gunbazni Dorul huffoz deyildi. Va madrasaning sharqiy va g‘arbiy suffasida ikki mudarriskim, birisi fiqh usuli va furui va birisi hadis furu va usuli aytqoylar va har dars halqasida o‘n bir tolibi ilmkim, muvazzaf bo‘lg‘aylar – ta’yin qilildi. Va madrasag‘akim, xulusi ixlosdin yasaldi – Ixlosiya ot qo‘yuldi. Va bu Ixlosiya madrasasi janubiy haddining toshidinkim, Injil arig‘i oqar, ul arig‘ning janubiy haddikim, qirog‘i bo‘lg‘on shorii omdurkim, ul hazrat bino qilg‘on madrasadinkim, har toqi ulvi rif‘atdin sipehri muqarnas ravoqig‘a kungira yetkurubtur va har gunbazi sumuzi manzilatdin falakning ko‘k gunbazidin bosh o‘tkaribdur, har mudarrisi qoshida Mushtariykim, oltinchi ayvon donishmandidur – omiy va nodon, va har tolibi ilmi olinda Atoridkim, ikkinchi sufa mustaiddidur – tifli abjadxon, xodimlari sufrasida oy girdasi va quyosh qursi ikki fatir va tabboxlari taxtasida qahkashon shakli un sepgan bir zuvola xamir.

Ruboiya:

Bu buq‘aki to binosi bunyod o‘ldi,
El hojat ila faqrin ozod o‘ldi,
Darveshu g‘ani ne’matidin shod o‘ldi,
Bu vajhdin oti Ne’matobod o‘ldi...”.

Ha, Alisherbek o‘z asarida zavqlanib yozganidek, bu hududlar aynan Navoiy tufayli obod bo‘la boshlagan.

Yana Navoiy Hirot ahliga jabr bo‘lmasin deb, bir necha bor soliqlarni o‘z hisobidan to‘lab yuborgan. Har yili kambag‘allarga ming dona sarpo tuhfa qilardi. “Makorimul axloq”da quyidagicha keladi: “906-hijriy yil boshlarida (1500-yilning avgusti) sulton sohibqiron Mozandaron viloyatiga tashrif buyurgan edilar. Hukumat egasi amir Muborizuddin Valibek janoblari nomiga Hirot shahri va uning atrofidagi aholidan zarur xarajat uchun 100 ming dinor kepakiy undirib yetkazish haqida farmon keldi. Ul janob shu mablag‘dan 50 ming dinorni bulukot dehqonlari va moldorlaridan, qolgan qismini, xona boshiga sochish yo‘li bilan Hirot ichida istiqomat qiluvchilardan undirishni xayol qildi. Lekin biron ishga davlatli Amirning fikrisiz va maslahatisiz qo‘l urmas edilar. Shuning uchun ham ul hazratning noiblaridan birini chaqirib, bu fikr Navoiyga yetkazildi. Ul kishi “bu fursatda xalq ustiga o‘rinsiz soliq solishni oliy darajali sohibqiron davlatiga munosib ko‘rmaymiz”, – dedilar va shu vaqtning o‘zidayoq mazkur mablag‘ni o‘zlarining xususiy pullaridan berdilar. Xalq esa ul hazratni duo qilib, ko‘pdan ko‘p rahmatlar aytdi...”.

Ixlosiya madrasasida she’riy san’atlar bo‘yicha mudarrislik qilayotgan Burhonuddin Atoulloh Husayniyga uch ming dinordan ortiqqa madrasa yaqinidan hovli sotib olib berishi, Mavlono Shahobuddin Mudavvinga egar-jabduqli ot in’om etishi ham o‘sha vaqtda Hirotda katta shov-shuvga sabab bo‘lgandi. Bunday ishlardan maqsad tanilish emasdi, aslo, balki iqtidorli odamlar qiynalib yurmay, bor e’tiborini o‘z kasb-u koriga qaratishlari uchun qilingandi.

Hotamtoy shoir madrasa, masjid, xonaqohlarda yashovchi talabalar, mullavachcha, beva-bechora, yetim-yesirlarning ham moddiy ehtiyojlarini ta'minlab turgan. Masjid va madrasaga ajratilgan yerlardan keladigan daromad evaziga talabalarga nafaqa, ishlovchilarga maosh, kundalik oziq-ovqat, kiyim-kechak berilardi. Agar talabalar madrasa hujrasida emas, boshqa joyda istiqomat qilsa yoki dars qoldirsa, boshqalar olgan pulning yarmini berishgan. Shu bilan birga, madrasa va masjidda yashovchilardan obodonchilik, tozalik, saranjom-sarishtalikka qat'iy rioya qilish talab etilardi. Qish faslida qor yog'sa yoki tevarak-atrofdagi ariqlar balchiq va qum bilan to'lib ketsa, tozalash ishlariga farrosh, qori, xodimlar jalb qilingan. Ba'zida mutavalli, ish ko'p bo'lsa, mardikor yollangan. Jamoat ishlari uchun talabalar darsdan qoldirilmagan.

Mutavalli Navoiy bunyod ettirgan har bir madrasa talabalari uchun 100 po'stin, 100 to'n, 100 chakmon, 100 ko'ylak, 100 to'nbon (chalvar), 100 kavush ulashardi. Shu kabi ularning uy-ro'zg'or anjomlari – kigiz, polos,



bo'yra, yoritqich shamlar uchun 400 oltin pul sarflangan.

Saxovatpesha va muruvvatli shoir 450 botmon bug'doy, 270 botmon non, 30 botmon chalpak, 110 botmon holva, 900 tovoq uzum shinnisi yoki mavizob, 5 ta qoramol, 10 ta qo'y, 20 botmonu 3 tonnalik go'shtni ham madrasadagilar uchun ajratardi. Bundan tashqari, qish faslida har kuni 20 botmon (400 kg) non, 3 tangalik go'sht, agar go'sht topilmasa, go'ja oshi pishirtirib turgan.

Shu kabi vazifadorlar va talabalarning o‘zigagina bug‘doy, arpa va oshliqdan tashqari oyiga 1300 oltinga yaqin maosh tayinlagan.

Bor pulini xayr-u ehsonga sarflagan mutafakkir shoir hayit kunlari yanada muruvvatli bo‘lgan. Ulug‘ ayyom sharafiga 100 botmon non va 50 botmon holva tarqatilgan. Qurbon hayitining birinchi kunida har yili beshta mol, beshta qo‘y so‘ydirib, masjid, madrasa, xonaqohlarga ulashilgan bo‘lsa, ikkinchi kuni 20 botmon go‘sht, 20 botmon bug‘doydan tayyorlangan halim, 50 botmon non ehson qilingan.

Navoiy “Vaqfiya” asarining “Ravotib” bo‘limida bunday yozadi: “Ro‘za oyida har kecha o‘n besh botmon bug‘doy, besh botmon poludai dushobdin yoki mavizobdin o‘ttiz tabaq, masoliq – ulcha ehtiyoj bo‘lg‘ay”.

Shuningdek, Xalosiya xonaqohida har kuni mingdan ortiq faqirlar uchun ovqat pishirilgan. Har yili muhtoj miskinlarga ikki mingta po‘stin, bosma chakmon, ko‘ylak-ishton, toqiya va kovush ulashilgan. Mashhad shahridagi Imam Rizo bog‘ida esa muhtoj, zaif va yetimlarga taom tayyorlab beriladigan imorat, Dorul huffoz barpo qildirgan.

Navoiy hazratlari o‘zi qurdirgan inshoot ustalarini ham taqdirlab borgan. “Makorim ul-axloq”da Xondamir bunday yozadi: “...ushbu jannatmisol masjidni bezash va pardozlash ishlari poyoniga yetgandan keyin, 905-yil sha’bon oyining o‘n to‘rtinchisi chorshanba (1500-yil 13-mart) kuni tadbir egasi Amir Alisher osh tortish marosimini o‘tkazib, xatib, imom voizlar, qorilar, mutavalli, xodimlar, ustalar va imorat ishchilari bu marosimga chaqirilib, ziyofat marosimlari amalga oshirildi. Qariyb 100 kishidan iborat guruhning qobiliyatli qomatlari qimmatbaho po‘stinlar, a’lo tikilgan chakmonlar va boshqa xil liboslar bilan bezatildi.

Shundan keyin bu tabarruk maqomning tomi yuzasini mustahkamlash va chidamliligini oshirishga ishora qildi. Imorat ishchilari asbob-uskuna tayyorlash, ustalar esa ularni ishga solishga kirishib, bir oz vaqt ichida soni taxminan o‘n to‘rt jerib miqdordagi bino tomlarini ikki qavatli qilib yopib, ustini somonli loy bilan suvadilar, ko‘ngilni bu ishlardan batamom forig‘ qildilar. Shu paytda hidoyatli Amir yana bir to‘y kerak-yarog‘ini hozirlash to‘g‘risida qayta-qayta farmon berdi. Farmonbardorlar bu ishga mashg‘ul bo‘lib, chaqiriqqa 50 bosh qo‘y va 9 bosh ot sarfladilar...”.

Xondamir shu asarining boshqa bo‘limida yana bir bor Navoiyning xayr-saxovatini qalamga oladi: “Ul hazrat Navoiy mazkur yilning sha’bon oyi o‘rtalari (1499-yil mart oyi oxiri)da yana bir bor faxrli shahar Hirotni o‘zining muborak chehrasi bilan nurga to‘ldirdi. Shu sababdan mashoyix, sayyid va olimlardan tortib, barcha aholi va fuqaro g‘oyatda shod-u hurram bo‘ldilar. Shu asnoda hidoyatli Amiring ko‘ngli Ansoriya ostonasida katta yig‘in qilib, Hirot shahri ulug‘larini mehmon qilishni, ulardan fotiha so‘rashni tilab qoldi. Mulozimlari chaqiriqni tartibga solish ishlari bilan shug‘ullanib, 75 qo‘y, 20 bosh ot va 30 botmon qand sarfladilar. Boshqa xarjlarni shunga qiyoslash lozim...”.

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” kitobiga ko‘ra, Amir Alisherning vaqf inshootlariga sarf bo‘lgan xarajati 500 tumanni tashkil etgan.

Husaynqulixon Azimobodiyning “Nashtari ishq” asarida yozilishicha, “qariyb 12 ming kishi Navoiyning homiyligi ostida tarbiya qilingan”. Bular, menimcha, ulug‘ shoirga qarashli madrasalarda tahsil olib, Alisherbekning muruvvatidan bahra olgan tolibi ilmlardir.

Bu saxovatpesha zot eli uchun shu darajada fidoyilik qildiki, muruvvat istab kelgan nochor fuqaro, masjid, madrasa, xonaqohda yashayotgan kishilar yozda chang, qishda loyda qiyalmasin deb yo‘llarga tosh ham yotqizdirgan.

Navoiy hazratlari boyliklarini el-u yurt manfaati uchun og‘rinmay sarflagan, boshqa mulkdorlarni ham himmatga chorlagen. Bu haqidagi mulohazalarini “Mahbub ul-qulub” asarida bayon etgan: “Saxiylik kishilik bog‘ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o‘lkasining to‘lqinli daryosi, balki u to‘lqinli daryosining asl gavharidir. Saxovatsiz yer yog‘insiz bahor buluti va hidsiz mushki totordir. Mevasiz daraxt ham bir-u o‘tin ham bir va yog‘insiz bulut ham bir-u tutun ham bir. Saxovatsiz kishi bilan gavharsiz sadafni birday hisoblasa bo‘ladi. Dursiz sadaf bilan o‘lib qurigan toshbaqaning qanday e’tibori bor?.. Saxiy bulutdir, ishi xirmon, balki xazina bermoq, baxil esa chumolidir, odati don va mashoq termoq. Himmatlilarning ixtisosi saxiylikdir, bu ikki sharafli sifat pokiza kishilarga xosdir. Saxiylik odamning badanidir, himmat uning joni; himmatlilardan dunyoga yuz ming kushoyish bo‘lur. Himmatsiz kishi er sonida emas, jonsiz badanni kishi tirik demas.

Arslon ishi ov qilib, yirtqich hayvonlarni to‘yg‘izmoq, sichqon harakati aqcha o‘g‘irlab, tugun axtarmoq. Himmelgasi qashshoqlik bilan tuban tushmas: himmatsiz xazina topsa, buyuklar bilan teng bo‘lmas. Chinorning bo‘sh qo‘lligidan uning yuksakligiga qanday nuqson keladi, tuproqqa esa yashirin xazinalari bilan qanday sharaf va shon hosil bo‘ladi, himmatlilarning agarchi darjasini yuksakdir, ammo saxiylikning martabasi bir qanchadir. Isrofgarchilik saxiylik emas, be’mani sovurishni odamlar saxiylik demas. Haq molini kuydirganni devona derlar, yorug‘ kunda sham yoqqanni aqldan ozgan derlar.

Shu tarzda Navoiy Xuroson davlatining katta mulkdori sifatida yer va mol-mulklaridan keladigan daromadni xayr-saxovat ishlariga sarflab, ma’rifat parvar shaxs sifatida tarixda qolgan.

TARIX**ABDURAZZOQ SAMARQANDIY ASARI XORAZMDAGI
JARAYONLARGA OID TARIXIY MANBA****UO‘K 574.510**

**Gulzoda
IBRAXIMOVA**
Urganch innovatsion
universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdurazzoq Samarqandiy asarining Xorazm tarixini o‘rganishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada Xorazmdagi tarixiy jarayonlar bo‘yicha asardagi voqealar tahlil etilgan.

Аннотация: в статье подчеркивается значение работы Абдураззока Самарканди в изучении истории Хорезма. В статье анализируются события в произведении, посвященные историческим процессам в Хорезме.

Annotation: this article highlights the importance of Abdurazzoq Samarkandi's work in studying the history of Khorezm. The article analyzes the events in the work according to the historical processes in Khorezm.

Kalit so‘zlar: Samarqandiy, Xorazm, Amir Temur, tarix, ulus, jarayon, manba.

Ключевые слова: Самарканди, Хорезм, Амир Темур, история, народ, процесс, источник.


Key words: Samarkandi, Khorezm, Amir Temur, history, nation, process, source..

Xorazm tarixiga oid noyob manbalar faqat shu hududning muarixlari tomonidangina emas, boshqa hududlarda yashab faoliyat ko‘rsatgan tarixchilar tomonidan ham yoritib berilgan. Bunga misol sifatida Abdurazzoq Samarqandiyning asarini keltirish mumkin. XV asrning birinchi yarmida Xorazmda boshqaruva tizimiga qisman daxldor kechgan siyosiy voqealar, jarayonlar temuriylar davri yozma manbalaridan Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn” asarida qisqacha sharhlab o‘tilganligi g‘oyatda ahamiyatlidir...

Unda yozilishicha, Musaka hokimligi yillarida Xorazmda yuz bergan voqealardan biri, totorlarning ko‘chishi bilan bog‘liq. Sohibqiron Amir Temur yetti yillik yurishi chog‘ida qarototorlarni Kichik Osiyodan Movarounnahr tomonlarga ko‘chirgan edi. Amir Temur vafotidan so‘ng, Xalil Sulton hukmdorligida qarototorlar bosh ko‘tarib, o‘z yurtlariga qaytishga azm qiladilar. Ular dastlab Xorazmga o‘tib, amir Musaka bilan qattiq jang qiladilar va u yerdan Xuroson tomonga yo‘l oladilar [1].

Keyingi tarixiy voqelik Oltin O‘rdaning hukmdori Shodixonning lashkarboshisi (amir ul-umaro) amir Idiku Dashti Qipchoqdan Xorazmga bostirib kirganidir. Tadqiqotlarda Idiku kelib chiqishi mang‘it qabilasidan bo‘lib, 1396-

1411-yillarda Oltin O‘rda xonligida uning va qarindosh-urug‘larining obro‘-e‘tibori va siyosiy ta‘siri juda yuqori bo‘lganligi qayd etilgan [2].



bog‘liq holatda kechdi.

Biroq shu davrdagi vaziyatda Xorazm Temuriylardan norozi kuchlarning ham panoh joyiga aylangandi. Masalan, 1406-yilning bahorida Samarqandda bir guruh iroqliklar temuriyzoda Xalil Sultondan yuz o‘girib o‘z yurtlariga qaytishga azm qiladilar. Ular Xorazmgaga yetib kelib, u yerda Pirpodshohni o‘zlariga boshliq saylab, Mozandaron tomon yo‘l olishadi.

Xorazm yetti yil (1406-1413) Oltin O‘rda hukmi doirasida bo‘ldi va shu vaqt davomida hududni dastlab amir Idiku tayinlagan hokimlar – amir Anko va Bag‘alja, so‘ngra amir Idikuning o‘zi, u Dashti Qipchoqqa qaytgach o‘g‘li Muborakshoh boshqardilar. Mazkur viloyat, qisqa muddat Oltin O‘rda tarkibida bo‘lishiga qaramay, Amir Temur saltanatida mavjud devon tizimi tartibi bo‘yicha boshqarilgan. Masalan, Muborakshoh hokimligida Bekijak ismli shaxs devon amiri, sadr va qozi mansablarini egallagani manbalardan ma’lum [3].

Xorazmda amir Idikuning o‘g‘li Muborakshoh hokim bo‘lib turganida Temuriylar hukmdori Mirzo Shohruh bu viloyatni egallahash uchun lashkar

“Amir Idiku sakkiz yuz sakkizinchchi yil rajab oyida (1405, XII – 1406, I) Xorazmni egalladi hamda bu yerga amir Ankoni hokim qilib qoldirib, o‘zi Dasht (Dashti Qipchoq) tomonga jo‘nadi”, – deb yozadi Abdurazzoq Samarqandiy. Shu yillarda Oltin O‘rdada tez-tez hokimiyat almashib, Shodixon, Po‘lodxon (1409-1411), Temurxon va Jaloliddin Sulton hukmdorlik qildilar. Taxt uchun kurashlar natijasida yuzaga kelgan nizolar Xorazm bilan ham

jo‘natadi. Ammo bu yurish muvffaqiyatsiz yakun topadi. Mirzo Shohrux mashhur sarkardalar Sayid Ali tarxon va amir Shohmalik boshchiligidagi yangidan Xorazmga lashkar safarbar qiladi. Katta lashkar kelayotgani ovozasidan sarosimaga tushgan Muborakshoh Dashti Qipchoqdagi otasi Idikuning oldiga qochib ketadi. Natijada Xorazm 1413-yil boshlarida Mirzo Shohruh hukmiga o‘tadi va u mazkur hududni amir Shohmalikka butunlay (darbasta) suyurg‘ol qiladi. Shu tariqa Amir Shohmalik to vafoti (1426-yil)ga qadar Xorazm hokimi bo‘ladi. Abdurazzoq Samarqandiyning ta’kidlashicha, uning hukmdorligi yillarida Xorazm barcha xavflardan xoli va obod maskanga aylangan edi.

“Hazrat xoqoni said ham unga (amir Shohmalikka) nisbatan shunday bir mehribonlik ko‘rgazar ediki, (hatto) Xorazm viloyatini unga darbasta suyurg‘ol qilib tayinladi va u Xorazm mulkida osoyishta hayotni shu darajaga yetkazdiki, dunyo sarkashlari ham O‘zbek viloyatlariyu Dashti Qipchoq mutakabbirlarini el qilib itoatga keltirdi”, – deb yozadi Abdurazzoq Samarqandiy bu haqda. Ushbu tarixchi boshqa joyda amir Shohmalikni noib deb tilga olgan: “Ulug‘ noib amir Shohmalik Xorazm tomondan Oliy O‘rduga (Hirota) keldi” [4].

Boshqacha qilib aytganda, amir Shohmalik Xorazmda Temuriylar davlatining oliy hukmdori Mirzo Shohrux nomidan mustaqil qarorlar qabul qilish huquqiga ega edi.

Amir Shohmalikning vafoti (1426-yil)dan so‘ng o‘rniga o‘g‘li Ibrohim Sulton Xorazm hokimi etib tayinlandi.

“Onhzrat amir Shohmalikning suyurg‘oli bo‘lgan Xorazmni idora qilishni uning farzandi Ibrohim Sultonga inoyat qildi”, – deb yozadi Abdurazzoq Samarqandiy. Biroq Xorazm boshqaruvini amir Shohmalik avlodlariga qoldirish an‘anasi faqat Shohruh hukmronligi davriga tegishli bo‘lgan va undan keyin taxtga kelgan temuriy hukmdorlar bu yerga o‘z vakillarini tayinlaganlar.

Xorazmning boshqaruv tizimiga daxldor keyingi voqealari Abulkayrxonning yurishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Dashti Qipchoqda uzoq muddatli o‘zaro qabilaviy urushlardan so‘ng, ko‘pchilik qabilalarining xayrixohligi bilan 1428-yili Abulkayrxon xonlik taxtini egalladi va shu asosda ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati tashkil topdi. Mazkur davlat poytaxti G‘arbiy Sibirdagi Tura shahri edi. Mazkur shahar to 1446-yilgacha, ya’ni poytaxt Sirdaryoning quyi havzasiga Sig‘noq shahriga ko‘chirilgungacha, o‘z mavqeyini saqladi. Abulkayrxon tez orada davlatning harbiy salohiyatini oshirib, uning hududini ancha kengaytirishga muvaffaq bo‘ldi va Xorazmga ham yurishlar qildi. Abdurazzoq Samarqandiy “Matlai sa’dayn” asarida Dashti Qipchoq tomondan ikki marta chopqin bo‘lgani haqida yozadi. Birinchi marta 834-yil (milodiy 1430-1431-yillar) va ikkinchi marta 839-yil (milodiy 1435-1436-yillar)lar voqealari bayonida. 834-yilgi yurish haqida quyidagilar yozilgan:

“Shu orada ahvolni o‘zgartiruvchi osmon shodmonlik chehrasi kunlariga yomon ko‘z bo‘yog‘ini surtishni istab qoldi. Nogoh Xorazm mamlakati tomonidan bir elchi yetib kelib, o‘zbek lashkari o‘z tirikligi boshiga sharmandalik

tuprog‘ini sochib fitna gardini to‘zitdi hamda ko‘p sonli lashkar birdaniga Xorazmga qasd qilgach, amir Shohmalikning o‘g‘li amir Ibrohim ularga qarshi turolmay Kot va Xivaqqa qarab jo‘nadi. Xoja Asiluddin vazir qal’adorlik asboblarini shay qilib qarshi turish va jang qilish bayrog‘ini tikladi, ammo oxiri ojiz kelib, qatlga yetdi. O‘zbek lashkari Xorazmni olib ko‘p xarobaliklar keltirdi va haddan ortiq talon-torojlar qilib, Dasht (Dashti Qipchoq) tomon qaytib ketdi, – degan xabarni arzga yetkazdi.

Bu xabarni eshitish onhazratning tog‘dek viqorli xotiriga og‘ir kelib, bir guruh amirlarni ul tarafga borishga nomzod qildi. Nomdor amirlar botirlik va shijoat asarlarini zohir qilib, o‘zbek el-uluslariga chopqin yasadilar va u beboklarning barchasini qirg‘in qilib tarqatib yubordilar”.

Mazkur asarda 839-yil voqealari bayonida ham shunga o‘xshash so‘zlar bililgan:

“Shu asnoda Xorazm mamlakati tarafidan elchi kelib, Abulxayr o‘g‘lon nogahondan Dasht (Dashti Qipchoq) tomonidan Xorazm yerlariga kirganligi, amir Shohmalikning o‘g‘li amirzoda Sulton Ibrohim unga qarshi jang qilishga majoli kelmay qochish yo‘lini tutib, chiqib ketganligi, raiyat ojiz qolib, shaharni taslim qilganligi, u berahm beboklar esa butun Xorazm viloyati va shaharni zeru zabar qilib, yana yo‘lsiz tomonga, Dasht bo‘ylab qaytib ketganliklari xabarini arzga yetkazdi” .

“Tarixi Abulxayrxoniy” asarida Abulxayrxonning faqat bir marta Xorazmga lashkar tortgani haqida yozilgan, lekin yili qayd etilmagan. Unda quyidagilarni o‘qiyimiz:

“Abulxayrxon Gurganjni olgandan keyin “oldingi hukmdorlar ko‘p mehnat sarf qilib to‘plagan xazinalarini ochib qo‘yishlarini va eshik oldida ikki obro‘li amirning kuzatib o‘tirishini, qo‘mondonlar, xonga yaqinlar hamda oddiy navkarlar xazinadan (boyliklarni) bemalol ko‘tarib imkon qadar olib chiqishlariga ruxsat berdi. Barcha navkarlar xon amriga muvofiq (xazinaga) kirishib, har biri ko‘targanicha qimmatbaho narsalardan olib chiqib ketar edilar” .

Bu yerda Abdurazzoq Samarqandiy ma’lumotlarida bitta chopqin haqida ikki marta yozilgan bo‘lishi ham mumkin. Chunki voqelik bayoni juda o‘xshash. Undan tashqari, “Tarixi Abulxayrxoniy” asaridagi ma’lumotlar hamda Mirzo Shohrux sultanati davrida yozilgan solnomalardan yana biri, Fasih Ahmad Xavofiyning “Mujmali Fasihiy” asarida yozilganlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Unda Abulxayrxon Xorazmga faqat bir marta yurish qilgan deyiladi va bu haqda 839-yil voqealari bayonida keltirilgan .

Tadqiqotlarda Abulxayrxon Xorazmga ikki marta yurish qilgani (1433 va 1435-yillarda) aytilgan. Ko‘rinib turibdiki, bu yerdagi sanalarda farq bor. Buning sababi bizga noma’lum.

XV asrning 40-yillarida Abulxayrxon o‘z davlati chegaralarini janub tomonga kengaytirdi va Sirdaryoning quyi havzasidagi Sig‘noq shahri 1446 –

1468-yillar davomida ushbu davlatning poytaxti edi. U 1446-yili Dashti Qipchoqda ko‘chmanchi o‘zbeklarning katta harbiy qudratga ega xonlaridan Mustafoxonni jangda mag‘lub qildi.

Mustafoxon kelib chiqishi jihatdan Shayboniy sulolasiga mansub bo‘lib, Ishim daryosi va uning irmog‘i Otbosarning havzasida yashagan. U dastlab 1428-yili Abulkayrxon bilan birlashgan bo‘lsa-da, biroq keyinchalik unga qarshi chiqdi va jangda mag‘lubiyatga uchragach, Mangqishloq tomonga qochib ketdi .

Mazkur voqeа XV asrning 40-yillarida Dashti Qipchoqdan ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari katta bir guruhining Kaspiybo‘yi tomonlarga ko‘chib borishiga sabab bo‘ldi. Abdurazzoq Samarcandiy ularni qozoq-o‘zbeklar deydi. Ular Gurgon va Astrobod viloyatlariga chopqinlar qilganlar. Natijada Mirzo Shohruh bunga qarshi u yerda muntazam qo‘shin saqlashga majbur bo‘lgan.

“Hazrat xoqoni sa’id (Shohrux) “har yili bir necha tumon amirlari Jurjon viloyatida qishlov qilib, Dashti Qipchoq va qazoq-o‘zbeklar lashkaridan boxabar bo‘lib tursinlar” degan shohona buyruq bergen edi”, – deyilgan ushbu manbada.

Demak, Shohruh mirzo saltanatida Xorazmning boshqaruv tizimida, Abulkayrxonning chopqini voqeasidan tashqari, boshqa o‘zgarish bo‘lgani yo‘q va bu yerda hokimiyatni temuriylar vakili egallab turgan. Asosiy ma’muriy o‘zgarishlar undan keyingi yillarga, aniqrog‘i Sulton Abusaid hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurazzoq Samarcandiy asari Xorazm tarixidagi jarayonlarni yoritishda boshqa manbalarga taqqoslab o‘rganuvchi noyob manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurazzoq Samarcandiy. Matla’i sa’dayn va majmai bahrayn. II jild birinchi qism, 1405-1429-yillar voqealari; II jild ikkinchi va uchinchi qismlar, 1429-1470-yillar voqealari. Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi – Asomiddin O‘rinboyev. Geografik nomlar izohli ko‘rsatkichi O.Bo‘riyev tomonidan tuzilgan. Toshkent “O‘ZBEKISTON”, 2008. I jild 631 bet; II jild 831 bet. I jild. B.231.
2. Ahmedov Bo‘riboy. O‘zbek ulusi. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1992. – 152-b. B.37.
3. Abdurazzoq Samarcandiy. Matlai sa’dayn. II jild, birinchi qism. B.235.
4. Abdurazzoq Samarcandiy. Matlai sa’dayn. II jild, birinchi qism. B.359.

TARIX**XIVA XONLIGIDA OLIY KENGASH FAOLIYATI****UO‘K 574.510**

**Dildora
JUMABOYEVA**
**Urganch innovatsion
universiteti
bosh psixologi**

Annotatsiya: mazkur maqolada Xiva xonligida davlat boshqaruvida muhim o‘rin tutgan oliy kengash faoliyati yoritilgan. Turli manbalarning qiyosiy taqqoslash orqali oliy kengash a’zolarining vazifalari tahlil etilgan.

Аннотация: в статье описывается деятельность Верховного Совета, игравшего важную роль в государственном управлении Хивинского ханства. Задачи членов Верховного Совета были проанализированы путем сравнительного сравнения различных источников.

Annotation: this article describes the activities of the Supreme Council, which played an important role in state administration in Khiva Khanate. The tasks of the members of the Supreme Council were analyzed through a comparative comparison of various sources.

Kalit so‘zlar: Xiva, davlat boshqaruvi, Oliy Kengash, xon, devonbegi, davlatchilik.

Ключевые слова: Хива, государственное управление, Верховный Совет, хан, деванбеки, государственное управление.

Key words: Khiva, state administration, Supreme Council, khan, devanbegi, statecraft.

Tarixdan ma’lumki, har bir davlatda hukmdor mamlakatni, jamiyatni boshqarishda o‘z atrofida turli sohalarga oid mansablarni ta’sis qilgan va shular orqali boshqaruvni amalga oshirgan. Jumladan Xorazm singari qadimiy davlatchilikka ega hududda ham yillar, asrlar davomida ma’lum bir sohalarga oid boshqaruv tizimi tashkil etilgan. Ba’zida bunday vazifalar nomlanishi, ularning nufuzi turli davrlarda har xil darajada bo‘lib kelgan. Xususan, Xiva xonligida ham. Xiva xonligining ma’muriy tizimi bundan avval o‘rganilgan bo‘lsa ham, xonlikdagi unvon va mansablar, ularning ijtimoiy nufuzi, ba’zi jihatlari haqida V.V.Bartold, M.Yo‘ldoshev, P.P.Ivanov, A.Boltayev, Q.Munirov, Sh.Vohidov, S.Saburovaning tadqiqot va asarlarida eslatib o‘tiladi. Mazkur asarlardan tadqiqotimiz uchun M.Yo‘ldoshevning “Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi” asari nihoyatda qimmatli bo‘lib, u Xiva xonlari arxivining ma’lumotlari asosida yozilgan.

Xiva xonligida unvon va mansablarni saroy, ma’muriy-hududiy, harbiy, diniy, qozixonasi unvon va amallariga bo‘lish mumkin. Shuni ham qayd etish

lozimki, bu tasnif sof nazariy bo‘lib, aslida xonlik davrida muayyan unvon va mansablar sohalar bo‘yicha berilmagan. O‘sha vaqtida amaldor va unvon egasi ko‘pincha xonga nisbatan shaxsiy sadoqati, qavmi yaqinligidan, monarxiyaga asoslangan tuzum bo‘lgani uchun ham bir mansabdan boshqa mansabga o‘tib, unvon(lar) egasi bo‘lgan [1].

Xonlikda eng oliy unvon xon bo‘lib, u ma’muriy, siyosiy va harbiy (ba’zan diniy) vakolat hamda salohiyatga (qudratga) ega edi. 1804-yildan boshlab Xivada faqatgina Qo‘ng‘irot sulolasi namoyondalari xon bo‘lganlar.

Xiva xonligida Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligidan farqli o‘laroq, xon huzurida Oliy Kengash amal qilar edi. Bu Kengashni Muhammad Rahimxon I “o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo‘lgan urug‘ oqsoqollari kengashi o‘rniga ta’sis etgan edi. Bu Oliy Kengashga turli da’vo va jinoiy ishlarni ko‘rish va qaror chiqarish huquqini berdi, to‘g‘riroq‘i, amr qildi” – deb yozadi N.Muravyov [2].

Muallif boshqa guvohlar kabi “Oliy Kengashni xon o‘z ixtiyori bilan arzandalaridan ta’sis etadi va ular xonning irodasiga qarab qaror chiqaradilar” - deb yozgan bo‘lsa ham, bu Kengashning vakolati juda chegaralangan bo‘lib, maslahat beruvchi organga o‘xshar, uning a’zolari eng yuqori mansab va unvondagi amaldorlar bo‘lgan.

Kengash majlisida boshqa amaldorlarga qaraganda ko‘proq inoq, shayx al-islom, devonbegi va yasovulboshi hal etuvchi ovozga ega edilar. Kengash majlislari masalalarning muhimligi darajasiga qarab, xon tomonidan chaqirilar edi. Oliy Kengash oqsoqollaridan, ya’ni ma’lum mansab va unvon egalaridan, chunonchi, naqib, shayx al-islom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg‘a, shig‘ovul, dasturxonchi, arbob, miroxo‘r, to‘sakchi, oqog‘a va hokazolardan iborat edi. Oliy Kengashga xonning qarindosh-urug‘laridan bo‘lgan beklar, otaliq, inoq va biylar kirgan (3) .

N.Muravyov bu Kengash faoliyati to‘g‘risida quyidagicha ma’lumot beradi: “Bu kengash har haftaning juma kuni ko‘rinishxonada to‘planadi. Muzokaralar boshlanish oldidan xonning mulozimlari hozir bo‘lganlarga tovoqlarda osh tortadi. Hamma ovqat yeb to‘yanidan keyin maslahat boshlanadi”. Yoki “Yuqorida bayon etilgan Oliy Kengash Xiva xonligida yagona fuqarolik va jinoiy ishlar sudi hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlardan qanchalikadolat bor yoki yo‘qligini ko‘rish mumkin. Negaki, doimiy mustahkam qonunlar yo‘q bo‘lib, ishlar ba’zan shu kengashning xohishiga qarab, ba’zan esa xonning foydasiga hal qilinadi” .

Bu to‘g‘rida N.Ignatev ham shunday deb yozadi: “Bunday Kengash, aftidan, ishlarning borishini ancha mushkullashtiradi va diplomatik ishlar uchun butunlay nomaqbuldir, buning ustiga, a’yonlar, mahramlar kengashi tizimi favqulorra hollarda ... tasodifiy mullalar va shayxlar bilan to‘ldiriladi”. N.N.Muravyov va N.Ignatevlarning bu fikrlarini arxiv materiallari tasdiqlaydi. Bu tor doiradagi kengash garchi davlat tashkiloti sifatida rasmiylashtirilmagan

bo‘lsa-da, uning qarori xonning qaroridek ko‘rsatilsa-da, amalda yuqori qonun chiqaruvchi ma’muriy va sud hokimiyati edi.

Kengash xonlikning ichki ishlariga doir hamma masalalar yuzasidan qaror qabul qilar va xonlikning boshqa davlatlar bilan bo‘lgan tashqi munosabatlariga doir muammolarni hal etardi. Buni XIX asrda Xivaga kelgan ajnabiy elchilarning yozib qoldirgan ko‘pgina xotiralari tasdiqlaydi.

Xonning maslahatchilari oqsoqollar bo‘lgan. Manbalarning ko‘rsatishicha, oqsoqollar ma’lum bir fikrga kelganlaridan keyingina ularning qarorini mehtar xonga bildiradi. Kengash majlisi bayonnomaga tuzmagan, mustaqil qarorlar chiqarmagan. Garchi kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qila olsa-da, biroq muhokama qilingan masalalar, kengashning fikri, dastavval, xonning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lgan .

Odatda, xon o‘limidan so‘ng “valiahd” xon etib saylanar edi. “Xon nomzodini ko‘rsatishda mehtar, qushbegi va yasovulboshi katta rol o‘ynaganlar. Hech shubha yo‘qki, yuqori tabaqa a’yonlari va xon urug‘lari tor doirada o‘tkaziladigan saylov avvaldan kelishib qo‘yilgan bo‘ladi. Xonni tayinlash esa rasmiy bir marosimdek gap edi”. Yangi xon e’lon qilingach, marhum xon dafn etilib, “davr falonchi xon davri” deb jarchilar jar solardilar. Davlatda oliv hokimiyat egasi bo‘lgan Xiva xoni o‘z a’yon va mulozimlarining ko‘pligi bilangina emas, balki tashqi ko‘rinishi bilan ham ajralib turardi.

1873-yili Xiva urushi safariga qatnashgan I.Ibrohimovning yozishicha, “xonning o‘zi va uning xonadoni fuqarolardan ajralib turish uchun zaryoqalik va zar tugmalik to‘n kiyadilar. Xon va uning qarindosh urug‘lari etiklarining qo‘nji tepasiga bir parcha yumaloq charm tiktirib kiyadilar. Bu ham xon xonadoniga mansublik alomati edi” [4].

Davr zarurati va bo‘lib turgan jarayonlarga qarab, vaziyat taqozosi bilan boshqaruvda ham ba’zi o‘zgarishlar bo‘lib turgan.

XIX asrda Xiva xonligining ma’muriy tuzilishi va boshqarilish tartibi ancha ixchamlashadi va qisqartiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldoshev M.Y. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. - Toshkent.: Fan. 1959. 127-b.
2. Муравёв Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. гвардейского Генералного Штаба капитана Николая Муравёва, посланного в сию страну для переговоров. Ч. ИИ. – С. 61.
3. Saburova S. XIX asr va XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tizimi. Tarix fan. nom. diss. – Toshkent., 2002. – 180-b.
4. Ибрагимов И. Некоторые заметки о Хивинских туркменах и киргизах. СПб., 1874 //ВС. 1874. – С. 9, 133, 163.

TARIX**KULOLCHILIK MAKTABLERLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI****UO'K 540.510**

**Nuraddin
ALLAYAROV**

**Urganch
innovatsion
universiteti
talabasi**

Annotatsiya: ushbu maqolada yurtimiz kulolchilik maktablari va uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: в статье содержится информация о гончарных школах нашей страны и ее особенностях.

Annotation: this article contains information about pottery schools in our country and its features.

Kalit so'zlar: zangori kulolchilik, Madir kulolchilik maktabi, Kattabog' maktabi, Ko'hna Urganch maktabi, kulollar maktabi.

Ключевые слова: Зангорская гончарная мастерская, Мадирская гончарная школа, Каттабогская школа, Старая Ургенчская школа, Гончарная школа.

Key words: Zangori Pottery, Madir Pottery School, Kattabog School, Old Urganch School, Pottery School.

Yurtimizning turli hududlarida ko'p yillar davomida olib borilgan va davom ettirilayotgan arxeologik qazishmalar vaqtida turli turdag'i kulolchilik namunalari topilgan. Xorazm vohasi bilan bir qatorda Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlaridan, Toshkentdagi Shoshtepa, Oqtepedan chiqqan sopol buyumlar kulolchilik soxasining O'zbekiston diyoridagi eng qadimiy amaliy san'at turlaridan biri ekanligi yorqin dalil bo'la oladi.

Asrlar davomida rivojlanib kelgan amaliy san'at turning o'z milliy xususiyatlari bilan ajralib turgan va mashhur bir qancha maktablari va markazlari bo'lgan. Jumladan, Xorazm zangori kulolchilikning asosiy markazlaridan biri hisoblangan. Ko'hna Xorazm diyorida uchta qadimiy zangori kulolchilik maktablari bo'lgan: Madir kulolchilik maktabi, Kattabog' maktabi, Ko'hna Urganch maktabi. Garchi ushbu barcha maktablarda zangori kulollik buyumlarini ishslash bilan band bo'lsa-da, naqsh shakllari uslubi jihatidan bir-biridan farq qilgan.

Yurtimizda Toshkent, Samarqand, Rishton kulolchiligi mahsulotlari ham azaldan juda e'zozlab kelingan [1].

O'zbek kulolchiligidagi badiiy uslub uzoq davr davomida shakllanib, ayrim tumanlarda idish-tovoqlar turlari va naqshlarining o'ziga xosligi saqlanib kelmoqda. Idishlarga beriladigan naqshlar, asosan, qalami, chizma yoki xarroji uslubida amalga oshirilgan, ba'zan ular birgalikda ishlatilgan. Kulolchilik O'zbekistonning hamma joyida uchraydi. Ammo badiiy buyumlar yaratishda eng

yirik markazlardan Rishton, G‘ijduvon, Shahrisabz, Xiva, Xonqa, Samarqand, Toshkent qadimdan mashhur bo‘lgan. Masalan, Rishton kulollari yaratgan sirli idish va sopol buyumlar o‘zining nozik va murakkab naqshlari, bo‘yoqlar koloriti, ayniqsa, och ko‘k kobalti va feruza rangli bir necha ohangliligi bilan ajralib turadi. Hozirgi Rishton buyumlaridagi qalami uslubida yaratilgani naqshlar yirik va dekorativ xildagi ornamentli. G‘ijduvon sopol idishlari o‘zining rang boyligi va qatlamliligi bilan ko‘zga tashlanadi. Ularda ham xatlami uslubida to‘q jigarrang fonida yashil, to‘q sariq, to‘q ko‘k va qizil g‘isht rangli naqshlar bir necha qatlamda berilgan bo‘lib, bo‘rttirilgandek seziladi.

Hozirgi Shahrisabz ustalari yirik ornamentli qizil-jigarrang fonda yashil, sariq, qizg‘ish va ba’zan ko‘k ranglar bilan idish-tovoqlarni bezaydilar. Samarqandlik kulollar katta dekorativ shakldagi oltin yoki sakkiz qirrali yulduz, doirasimon, o‘simglik ornamentli naqshlari bilan o‘z mahsulotlarini bezaganlar. Toshkentliklarda ikki xil sopol idishlar farqlanadi: eski xilda yasalgan suyuqlik oqimiga o‘xhash yashil, sariq va jigarrang bo‘yoqli va hozirgi davrga oid ochiq fonga bitilgan chekkasi gravirovkali, mayda o‘simglik ornamentli, polixrom bezakli namunalar. Farg‘ona kulollari sopol idishlarga oq, ko‘k, qizil, yashil, sariq, va hokazo tusda sir beradilar [2].

O‘zbekistonda kulolchilik turlarini saqlab, rivojlantirib kelayotgan ustalarining erkin ijod qilishlari uchun keng shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratib berilgan, madaniyat va san’atimizni jahon miqyosiga olib chiqib namoyish etishlarida, shu bilan birga O‘zbekistonning barcha hududlarida kulolchilikning o‘ziga xos turlari va maktablarini yaratib, davom ettirib kelayotgan, kulolchilikning milliylikni yo‘qotmagan holda uni rivojlantirib, usta-shogird an’analarini saqlab kelayotgan usta hunarmand kulollarning O‘zbekiston xalq amaliy san’atida o‘rni beqiyos. Kulolchilik xalq amaliy san’atining ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan turi sanaladi. Uning diyorimizning har bir hududiga xos bo‘lgan maktablari mavjudligi va yil sayin sayqal topib borayotgani e’tiborga molikdir. Jumladan, Rishton kulolchilik maktabi nozik va mukammal naqshlari bilan dunyoda nom qozongan bo‘lsa, Xorazm maktabiga xos sopol buyumlar zangori, moviy, firuza ranglardagi tasviriy bezaklari bilan g‘oyat go‘zal. Samarqand ustalarining ijod namunalarida yorqin ranglar, yaxlit naqshlar ko‘zga tashlansa, Toshkent kulolchilik maktabi to‘q tusdagi bo‘rtma chizgilari bilan ajralib turadi.

An’anaviy Rishton kulolchiligi IX asrdan buyon faoliyat ko‘rsatib keladi. Rishton kulolchilik mahsulotlarini qaysi bir ko‘rgazmada bo‘lmasin, uzoqdan turib tanish mumkin. Chunki o‘zining an’anaviy rangiga ega. An’anaviy rang deganda, albatta, har bir mahsulotga beriladigan, asosan, bunda 3-4 xil rang hisobga olinadi. Har bir rang, albatta, bir-biri bilan raqobatda bo‘lgan. Ustaning raqobati bilan ranglarning uyg‘unlashishiga ustanning tayyorlaydigan ranglarini, uning barcha tayyorlash usullarini bir-biriga yaqinlashtirib, ko‘zni

charchatmaydigan holatga olib keladi. Mana shunisi bilan Rishton kulolchiligi dunyoga mashhurdir. Respublikamizda keng tarqalgan, juda ham ko‘p ustalar mehnat qiladigan maktab bu Rishton maktabidir. Chunki Rishton maktabining o‘ziga xos davri, har bir mahsulotlarga qaraganda o‘sha davrlarni ko‘rish mumkin. Sodda qilib aytganda ustaning qo‘l ostidagi xom ashyo qanday bo‘lsa, o‘sha xom ashyo bilan ishlangan. Aynan o‘sha davrda ham an’adan chetga chiqish bo‘lмаган. “G‘ijduvon kulolchiligining o‘ziga xosligi shundaki, u yerda yasaladigan har bir sopolning kichik bir tarixi, ishlatilish sohasi, naqshlarining ham o‘zining nomi, tarixi, nega mana shunday deb ataladi degan savolga o‘z-o‘zidan naqshning o‘zi javob beradi. G‘ijduvon kulolchilik namunalari bugungi kunda O‘zbekiston, jahon muzeylari va kataloglaridan joy olgan [3].

Ma’lumki, o‘zbek kulolchilik san’ati qadimiy davrlardan shu kungacha keng tarqalgan va aholi ehtiyojlarini qanoatlantirib kelgan, muhim kasb-hunar sohasidir. O‘zbekiston jabhasida qadimdan har vohaning hunarmandchilik markazlari vujudga kelib shakllangan. Bu markazlarda xalq ehtiyoji uchun eng kerakli sopol buyumlar ishlab chiqarilgan va sotilgan [4].

Xalq amaliy san’atining tarixi insoniyatning uzoq o‘tmishidan boshlangan. Qadimshunoslarning ma’lumotlariga ko‘ra, badiiy ijod mahsuli bo‘lgan buyumlar tosh asridayoq paydo bo‘lgan. San’at turlari asrlar davomida insoniyatni ohanrabo kabi o‘ziga rom qilib kelgan. Turmush va mehnat jarayonida ularga singib, hayot faoliyati uchun go‘zal muhit hosil qilib, uning ijtimoiy-estetik ideallarini, badiiy dini shakllantirib, tuyg‘ularini tarbiyalab, ongi va qalbini ulg‘aytirgan. Xalq amaliy san’ati insoniyatning har jihatdan mukammal, erkin va go‘zal jamiyatga intilib, unga sadoqat bilan xizmat qilib, ayni chog‘da o‘zi ham rivoj topgan. Inson ongi, ma’naviy-badiiy didi, ehtiyojlar o‘sib, turmushi farovonlashib borgan sayin uning ma’naviy talablarini qondirish lozim bo‘lgan. Xalq amaliy san’atining mazmuni, badiiy ifoda vositalari ham boyib, behisob badiiy uslublar, oqimlar maydonga keldi va rivoj topdi. O‘zbek xalq amaliy san’ati insoniyat sivilizatsiyasida o‘ziga xos muhim o‘rin egallab, xalq ustalari yaratgan yuksak san’at namunalari turli-tuman o‘yma, to‘qima naqshinkor buyumlar o‘tmishda ham, hozir ham dunyoga mashhur bo‘lib jahoning turli mamlakatlaridagi amaliy san’at va etnografiya muzeylarida namoyish qilinmoqda. Xorazm amaliy san’ati o‘zining jozibasi, takrorlanmasligi, naqshlarining uyg‘unligi, koloriti bilan boshqa hududlardan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirov A. Etnologiya T:”Yangi nashr” 2014. 273-274-betlar
2. O‘zbek kulochilik san’ati. <http://komilaxon.blogspot.com/2015/05/o'zbek-kulolchilik-sanati.html>
3. O‘zbekiston badiiy akademiyasi. “O‘zbek kulolchiligi afsonalari” 24.11.2014.
4. Ўзбекистон санъати (1991-2001 йиллар). Т.: Шарқ. 2001.

TARIX**XIVA XONLIGI TARIXINI O'RGANISHDA A.L.KUN ASARINING AHAMIYATI**

**Dildora
Jumaboyeva**
**Urganch innovatsion
universiteti
bosh psixologi**

UO'K 574.510

Annotatsiya: mazkur maqolada Xiva xonligi tarixini o'rganishda A.L.Kun asarining ahamiyati yoritilgan. Maqolada xonlik arxiv hujjatlarining sharqshunos tomodan to'planishi va tadqiq qilinishi tahlil etiladi.

Аннотация: в статье подчеркивается значение работы А.Л. Куна в изучении истории Хивинского ханства. В статье с востоковедной точки зрения анализируется сбор и исследование ханских архивных документов.

Annotation: this article highlights the importance of A.L. Kun's work in studying the history of Khiva Khanate. The article analyzes the collection and research of the khan's archival documents from an orientalist perspective.

Kalit so'zlar: Xiva, arxiv, sharqshunos, Sankt-Peterburg, qo'lyozmalar. kutibxona.

Ключевые слова: Хива, архив, шаркиунос, Санкт-Петербург, кольозмалар. кутибхона.

Key words: Khiva, archive, orientalist, St. Petersburg, manuscripts. library.

Har bir davlatda bo'lgani singari Xiva xonligida ham hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonlar, umuman olganda rasmiy hujjatlar kanselyariyada saqlangan. Oradan vaqt o'tib o'z davri uchun oddiy rasmiy hujjat bo'lgan kanselyariyadagi bitiklarning ahamiyati oshib, muhim tarixiy manbaga aylandi. Xiva xonligi kanselyariya hujjatlarining esa Xorazm tarixini tadqiq etishda o'rni katta bo'lib, bu borada A.L.Kun va P.Ivanovlarning xizmatlari beqiyosdir.

Ma'lumki, 1873-yil may oyida Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligining bosib olinishi paytida xon saroyidagi mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyatga oid buyum va ashyolar talon-toroj etilgani xorazmlik tarixchi Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida, shuningdek, yuqoridagi harbiy yurishda kuzatuvchi sifatida qatnashgan amerikalik jurnalist – "Nyu York Jerald" gazetasining muxbiri Mak Gaxanning "Oks sohilidagi janglar" kitobida haqqoniy tasvirlab o'tilgan.

Ana shu Xiva yurishida sharqshunos A.L.Kun ham qatnashib, bevosita xon saroyidagi talon-toroj paytida noyob qo'lyozma asarlar, xonlik arxiviga oid hujjatlarni to'plash va ularni dastlab Toshkentdag'i o'zi ishlayotgan Turkiston general-gubernatorlik mahkamasiga, keyin Sankt Peterburgdagi Saltikov-

Shchedrin nomli davlat xalq kutubxonasiiga yuborish ishlariga boshchilik qiladi.

Shu o'rinda bevosita Xiva xonlari arxiv hujjatlarining to'planib, saqlab qolinishi, Sankt Peterburgga yuborilishida tashkilotchilik qilgan Aleksandr Lyudvigovich Kunning hayoti va faoliyatiga to'xtalib o'tsak.

Aleksandr Lyudvigovich Kun 1840-yilda hozirgi Ozarbayjonning Shamog'iy shahrida o'qituvchi oilasida tug'ilgandi. Uyezd mакtabida ishlovchi uning otasi 14 ta tilni bilar, onasi esa arman millatiga mansub bo'lib, Eronning Tabriz shahridan bo'lган. Yoshligida otasi singari tillarni o'rganish va tarix ilmiga qiziqqan Aleksandrning quvonchi uzoqqa bormaydi – endigina 14 yoshga to'lganida ota-onasi vafot etadi. Shundan so'ng otasining ilmlı do'stlari Aleksandrning iqtidorini sezib, 1855-yilda uni hukumat hisobidan o'qish uchun Stavropol guberniyasidagi gimnaziyaga yuborishadi. Gimnaziyani tugatgan Aleksandr 1860-yilda Sankt Peterburg universitetining Sharq fakultetiga qabul qilinadi. A.L.Kun universitetni tamomlagach, mashhur sharqshunos V.V.Grigurevning maslahati va talabi bilan dastlab Orenburg general gubernatorligiga, u yerdan esa 1868-yil 24-noyabrda O'rta Osiyoga yuborilgan.

Ma'lumki, bu paytda Qo'qon xonligining ko'plab hududlari, Buxoro amirligi zabit qilingan, Xiva esa navbatdagi nishon edi. Oradan ko'p vaqt o'tmadi – 1873-yilda Xorazm ham bosib olindi. Aleksandr Lyudvigovich ana shu Xiva yurishida Turkiston general gubernatori K.P.Kaufman yonida birga bo'ldi. Bosib olish jarayonlaridagi voqealarning, urush dahshatlarining guvohi bo'ldi. 29-may kuni Xiva xonining saroyi talon-toroj etilgach esa u yerdan A.L.Kun bir qator hujjat va buyumlarni qo'lga kiritgandi.

Bu haqda u 1873-yil 18-dekabrda chop qilingan "Туркестанские ведомости" gazetasidagi "Xiva safari vaqtida qilingan ilmiy ish" nomli maqolasida shunday yozadi: "Xiva ekspeditsiyasi vaqtida men quyidagi ilmiy materiallarni to'pladim: xon saroyini musodara qilish vaqtida sharq qo'lyozmalaridan iborat 300 kitob to'plandi, shulardan 129 tasi sarlavhalik 140 tomdan iborat tarixiy qo'lyozmalar, 30 tomdan iborat sharq shoirlarining devonlari, 50 tomdan iborat 40 ta huquqiy va diniy asarlardir. Bundan tashqari, 18 tacha "Qur'on" va 50 ta dars kitoblari ham to'plandi. Xon saroyi musodara qilinganida, qo'lyozmalar bilan birgalikda hujjatlar ham to'plandi. Bu hujjatlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruhga xonlikning daromadlari va xarajatlariga doir daftarlar hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlarini, ikkinchi guruhga xatlar va diplomatik yozishmalarni kiritish mumkin. Daftarlar orasida pul soliqlariga dior yozuvlar (solg'ut), zakot daftarlari va Matmurod devonbegining xon hujjatlari to'g'risidagi hisobotlari bor.

So'ngra shu hujjatlar orasida Buxoroda, G'azalida, Istambulda va boshqa joylarda savdo-sotiq ishlari bilan yashab turgan xivaliklarning xonga yuborgan iltimosnomalari, nizolarini hal qilib berish to'g'risida yozilgan imkoniyatnomalar, biror mansab berish to'g'risidagi iltimosnomalar va shu kabilar bor. Diplomatik hujjatlar orasida Ost-Indiya general-gubernatori

Narsbrukning xati, Turkiya sultonining xatlari va farmonlari, rus elchisi podpolkovnik Danilevskiy bilan Xiva xoni o'rtasida tuzilgan ahdnama hamda Turkiston general-gubernatori tomonidan xonga yuborilgan bir necha maktub bor”(IV AI AN, Fond 33, p 16).

Sharqshunos A.L. Kun ana shu ma’naviy boyliklarni Xivadan Toshkentga olib kelib, ayrimlari bilan to‘liq, ba’zilarining esa mazmuni bilangina tanishib chiqadi. Tabiyki, olim bisotidagi ko‘plab hujjatlarni Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli Xalq kutubxonasiiga taqdim qiladi, ayrimlarini sharqshunos bo‘lgani bois tanishib chiqish maqsadida o‘zida olib qoladi.

Oradan ikki yilcha vaqt o‘tib “Xalq kutubxonasing 1876-yilgi hisoboti”da bu haqdayam to‘xtalib o‘tiladi: “Kutubxonaning faxriy a’zosi general-adyutant K.P.Kaufman O‘rta Osiyo xonlarining hujjatlari va yozmalari to‘plamini sovg‘a qilib yubordi, bu hujjatlar va yozmalar Iskandarko‘l, Shahrisabz va Xiva ekspeditsiyalari vaqtida to‘plangandir”.

Xullas, A.L.Kunning xizmatlari bois Rossiya sharqshunosligi katta ma’naviy boylikka ega bo‘ldi. Aleksandr Lyudvigovich Kun esa 1876-yildan 1882-yilgacha Turkiston general gubernatorligining maktablar bosh noziri bo‘lib ishlaydi. Ya’ni tashkil qilingan rus-tuzem maktablari faoliyati bilan shug‘ullanadi va davr talabiga ko‘ra, bunday maktablarni yanada ko‘paytirish imkoniyatlarini izlaydi.

Turkiston general gubernatorligi mahkamasida ishlayotgan A.L.Kun 1882-yilda Peterburgga yuborilib, u yerda bir oz oz ishlaydi. Ma’lumki, bu paytda uning Xiva yurishidan olib kelingan hujjatlarning ko‘pchilik qismi Peterburgdagi davlat xalq kutubxonasida saqlanayotgandi. Xivadan olib kelingan va Toshkentda o‘rganish niyatida olib qolgan hujjatlarning ikkinchi qismini A.L.Kun o‘zi bilan birga Sankt Peterburgga olib kelib, kvartirasida o‘qib o‘rganish maqsadida saqlab qo‘yadi.

Ammo u Sankt Peterburgda ozgina vaqt faoliyat ko‘rsatgach, Vilno shahridagi maorif okrugi nozirining yordamchisi vazifasi ishga yuboriladi. Biroq sharqshunos sifatida poytaxtda ishlashni ma’qul topgan, bevosita Korazmdan olib kelingan hujjatlarni tadqiq qilishga endigina imkon topayotgan A.L.Kun o‘zining bu ishga tayinlanganidan norozi edi. U bu haqda 1886-yil 4-iyulda sharqshunos V.V.Stasovga yuborgan xatida “meni sharqshunos sifatida dastlab Orenburgga ishlatishga va’da bergen edilar, lekin vakansiya yo‘q degan bahona bilan Vilnoga yubordilar”, – deya yozadi. Sharqshunos sifatida V.V.Stasov ham Vilnoga xat jo‘natib, A.L.Kun qo‘lida qanday hujjatlar borligiga qiziqadi.

A.L.Kun esa V.V.Stasovga shunday maktub yozib yuboradi: “1876-yilga qadar men Iskandarko‘l, Shahrisabz, Xiva va Qo‘qon harbiy safarlarida marhum K.P.Kaufman huzurida kolleksioner sifatida qatnashganman. Xalq kutubxonasiagi qo‘lyozmalar va Fanlar akademiyasida saqlanayotgan lingvinistikaga doir materiallar mening o‘sha harbiy safarlarda qatnashganligimni

isbotlovchi materiallardir. Menim qo‘limda Xiva xonlarining to‘liq tarixi, sharq qo‘lyozmalari, qadim zamonlardan tortib to 1873-yilga qadar bo‘lgan voqealarni bayon qilgan qo‘lyozmalar bor. Lekin bularning hammmasi Peterburgda saqlanmoqda va shu sababdan men ular haqida ma’lumot berolmayman”.

Demakki, Vilnoda ishlayotgan A.L.Kunning o‘zi yuqorida ta’kidlab o‘tgan, to‘plagan materiallari Sankt Peterburgda qolgandi. 1888-yil 24-oktabrda sharqshunos A.L.Kun 48 yoshida Vilno shahrida vafot etadi. Uning vafotidan keyin Sankt Peterburgdagi kvartirasida saqlanayotgan shaxsiy arxivining anchagini qismi Fanlar Akademiyasining Sankt Peterburgdagi Osiyo muzeyi ixtiyoriga, shuningdek, Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt Peterburgdagi moddiy madaniyat tarixi institutiga topshiriladi.

Shu tariqa A.L.Kun to‘plagan Xiva arxivi uchta ilmiy ma’rifiy tashkilotda:

1. Saltikov Shchedrin nomli xalq kutubxonasida;
2. Osiyo muzeyida;
3. Sankt Peterburgdagi sharqshunoslik institutida hozirda ham saqlanmoqda.

Bundan tashqari, sharqshunos A.L.Kunning ayrim shaxsiy hujjatlari, ilmiy merosiga oid ba’zi manbalar esa moddiy madaniyat tarixi institutining 19-fondida saqlanmoqda.

Akademiyaga qarashli “Melanj Aziatik” jurnali 1890-yilda A.L.Kun kolleksiyasidagi qo‘lyozmalarning ro‘yxatini e’lon qiladi.

A.L.Kun hayoti va faoliyatiga nazar tashlab shuni aytish mumkinki, u sharqshunos sifatida 1873-yilgi yurishda to‘plagan ma’naviy boyliklar, xonlik arxiv hujjatlarining to‘planib, Rossiya imperiyasi poytaxtiga olib ketilishiga boshchilik qildi. Ammo 1876-1882-yillarda Turkiston general gubernatorligida, keyin esa Vilno shahrida maktablar noziri bo‘lib ishlagani bois, garchi mutaxassisligi sharqshunos bo‘lsada Xiva xonligi arxiv hujjatlarini to‘liq tadqiq qilishga ulgurmadi.

Faqatgina Xivadan olib ketilgan hujjatlarni tavsiflab, ularni ikki guruhgaga ajrata oldi:

1. Xonlikning daromadlari va xarajatlariga oid daftarlar hamda bir qancha vaqf va mulk hujjatlari;
2. Xiva xonlarining boshqa davlat rahbarlari bilan yozishgan diplomatik yozishmalari va xatlari.

Shu tariqa yetuk sharqshunoslardan istiqbolli tadqiqotchi sifatida e’tirof etilgan A.L.Kun aynan o‘z mutaxassisligi bilan bog‘liq bo‘limgan muassalarda ishlagani sabab, yuqoridagi hujjatlarni tadqiq qilishga ulgurmay 48 yoshida vafot etadi. O‘ylaymanki, agarda u uzoq umr ko‘rib, yana hayot kechirganida o‘zi olib kelgan arxiv hujjatlarinigina emas, ko‘plab qo‘lyozma asarlarni ham tadqiq qilish bilan shug‘ullanardi.

TARIX

JADIDCHILIK HARAKATI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI



**Dilnoza
ATAJANOVA**
 Urganch innovatsion
universiteti Ijtimoiy-
gumanitar fanlar va
tillar kafedrasi
o'qituvchisi

UO'K 574.510

Annotation: ushbu maqolada Turkistonda jadidchilik harakti va uning ahamiyati, vazifalar keltirib o'tilgan. Jadidchilik davrlari va namoyondalari keltirib o'tilgan.

Аннотация: в статье упоминается движение джадидизма в Туркестане, его значение и задачи. Упоминаются периоды и проявления модернизма.

Annotation: in this article, the Jadidism movement in Turkestan and its importance and tasks are mentioned. Periods and manifestations of modernism are mentioned.

Kalit so'zlar: jadid, sotsialistik diktatura, maorif, matbuot, teatr, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy.

Ключевые слова: модерн, социалистическая диктатура, образование, пресса, театр, социальный, политический, экономический, духовный.

Key words: modern, socialist dictatorship, education, press, theater, social, political, economic, spiritual.

Jadidchilik Turkistonda XIX asrning oxirlarida maydonga kelgan, XX asr boshlarida shakllanib, qisqa muddatda o'zining haddi a'losiga ko'tarilgan, 1917-yilgi bolsheviklar to'ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o'rnatilgunga qadar o'z mavqe va yo'nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir. U ijtimoiy turmushning barcha jabhalarni qamrab olgan edi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, mazkur davrda yuzaga chiqqan na siyosiy, na madaniy biror hodisa yo'qliki, uning e'tibor va ta'sir doirasidan chetda qolgan bo'lsin.

Jadidchilik g'oyalarga erta bahorning shiddatli shamollari singari po'panak bosib, biljirab ketgan o'rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momaguldirak bo'lib, millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibga qo'yilgani haqida bong urdi. Chaqmoqdek chaqnab, uning bag'ridagi jarohatlarni yoritdi. Obirahmat bo'lib, ona Turkiston ko'ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollarga hayot baxsh etdi. Bu go'yalarning asosida milliy uyg'onish, milliy mustaqillik uchun kurash milliy g'oya yotar edi [1].

Jadidchilik harakati va jadidlar tarixini, asosan, ikki davrga bo'ish mumkin:
 1) XIX asrning 90-yillaridan – 1917-fevralgacha; 2) 1917-yil fevralidan – 1929-yilgacha. Birinchi davrda jadidchilik harakati uch bosqichga bo'linadi:
 1) Jadidchilikning paydo bo'lishi va muntazam uyushgan harakat shakliga ega bo'lishi (XIX asrning 90-yillari – 1905-yil). 2) Jadidchilik harakatining nisbatan

tez va qarshiliksiz rivojlanishi (1905-1909-yillar). 3) Jadidchilikning chorizm tomonidan ozodlik, demokratik va inqilobiy harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirgan davrdagi rivojlanishi (1909-1916-yillar). Ikkinci davr ham voqealar rivojlanishiga qarab uch bosqichga bo‘linadi: 1) 1917-yil fevral-oktabr; 2) 1917-yil noyabr – 1924-yil. 3) 1925-1929-yillar [2].

Jadidchilik, ma’rifatchilik millatni ma’rifatli qilish, ma’naviyatini yuksaltirish maqsadlarida yuzaga kelgan buyuk tarixiy harakatdir. Jadidlar aholini savodli qilmoqchi bo‘lgan oddiy ma’rifatchilar emas. Ular mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmron bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatni, xalqning ma’naviy holati darajasini yaxshi bilganlar, bu jarayonlarning sabablarini chuqur tahlil eta olganlar. Ular Turkistonning mustaqilligini ta’minalash, mahalliy millatlarni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish uchun birinchi navbatda xalqning umumiy madaniy-ma’naviy, ma’rifiy saviyasini davr talablari va imkoniyatlariga asoslanib rivojlantirish lozimligini anglab yetganlar. Ularning xalq maorifini rivojlantirish, milliy madaniy-ma’naviy merosni tiklash, Yevropa xalqlarining madaniyati, tajribasini o‘rganishga chaqirish borasidagi faoliyati ham pirovard natijada mustaqillikka erishish maqsadlari bilan bog‘langan. Jadidlar bilimli, madaniyatli, ma’rifatli, ma’naviyatli millatgina katta tarixiy vazifalarni hal etishga qodir bo‘la olishi mumkinligini chuqur anglab yetganlar.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o‘tishi ma’rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, oq-qoranini tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko‘zlovchi ma’naviyatli kishilari ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanadilar.

Ma’rifat ma’naviy qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi. Shuning uchun ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma’rifiy uyg‘oqligida deb biladilar va ma’rifat uchun kurashadilar. Bizning xalqimiz azal-azaldan ma’rifatga intilib yashagan. Bu o‘lkadan dunyo ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar yetishib chiqqan. Ular ham dunyoviy, ham diniy ilmlar sohasida dunyo ilmi ahlini hayratga solganlar.

Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy o‘tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li, Abdulqodir Shakuriy, Ashurali Zohiri, Saidrasul Saidazizi, Is’hoqxon Ibrat va Ahmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etishning yagona yo‘li ma’rifatda deb bildilar. Bu fidoyi zotlar mustabid tuzum va jaholatga, ma’naviy qullik va zulm-zo‘ravonlikka qarshi bor kuchlari bilan kurash olib bordilar.

Mustabid sovet tuzumi sharoitida jadidchilik harakatiga to‘g‘ri baho berish va uni munosib taqdirlash imkoniyatiga ega emas edik. Aksincha, jadidchilik harakatining vakillari millatchilik g‘oyasini targ‘ib qiluvchi panturkizm va

panislomizm mafkurasi tarafidori deb e’lon qilindi. Ularga “millatchi” degan tamg‘a bosilib, qatag‘on qilindilar [3].

Turkistonni o‘rtalashtirish xos qoloqlik, diniy xurofotdan ozod qilish, shariatni isloq qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘sish tuzish. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilar tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi [4].

Turkistonda jadidchilik milliy ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o‘zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g‘oyalar yetakchilik qilgan. O‘lkani mustamlaka zulmidan ozod qilishni jadidlar hamma narsadan ustun qo‘yanlar. Jadidlar erk, istiqlolga erishish uchun milliy ongi o‘stirish zarurligini anglab yetdilar. Shu orqali milliy uyg‘onish yasamoqchi bo‘ldilar. Buni esa ta’lim va tarbiyada, ma’rifatda deb bildilar. Mana shuning uchun ham jadidlar yangicha ta’lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo‘lida hormay tolmay faoliyat yurtdilar.

XIX asr oxiri va XX asr bosqlarida bu harakatning tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. Bu davrda jamiyatning ma’naviy inqirozi chuqurlashgan bo‘lib, milliy madaniyatni ko‘tarmay, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo‘lmay ma’rifat, tarbiyaviy ishlarni keng yo‘lga qo‘yan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo‘lmash edi. Jadidlar, ya’ni ma’rifatchilar millatning ma’naviy kamoloti yo‘lida o‘zining butun kuchi va iste’dodini safarbar etishga tayyor bo‘lgan fidoyilar edi.

Jadidlar millatni qoloqlik, xurofot botqog‘idan olib chiqish uchun harakat qilar ekanlar, bunda shariatga qat’iy rioya qilish orqali maktab va madrasalarda ta’lim berish tizimini dunyoviy ilmlarni berish asosida isloq qilish g‘oyasini ilgari surganlar va bu borada o‘zlarini amaliy harakat namunasini ko‘rsatganlar.

Hozirgi mustaqillik sharoitida ham Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “...ma’naviyat, ma’rifatni targ‘ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma’rifatchi fidoyi bo‘lmog‘i, o‘zidan kechmog‘i kerak”.

Jadidchilik harakatidagi ma’naviylik quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi: birinchidan, ular ozodlikka, mustaqillikka qon to‘kishlarga olib keluvchi turli to‘polon, qirg‘inbarot urushlar bilan emas, balki aholining savodini chiqarish, ularning ma’rifatini, madaniyatini ko‘tarish orqali qaramlikning kelib chiqishi, uning millat taqdiridagi salbiy oqibatlarini tushunib yetish darajasiga ko‘tarish orqali erishishni;

Ikkinchidan, milliy ongi rivojlantirish milliy birlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligini, milliy birlikning vujudga kelishi esa uni taraqqiyotga olib boruvchi asosiy omili ekanligi g'oyasida;

Uchinchidan, jadidchilik harakati namoyandalari faqat o‘z g‘oyalarini ilgari surish, uni tashviqot qilish doirasida cheklanib qolmasdan, ular aholining umumiyl savodxonligini ko‘tarish borasida ko‘pgina amaliy ishlarni ham olib bordilar. O‘zlarining mablag‘lari hisobiga maktab ochdilar, gazeta, kitoblarni bosmadan chiqardilar [5].

Tarixning ko‘rsatishicha, jadidchilik harakatida orqaga yo‘l yo‘q edi: u ma’rifatchilik va tor doiradagi madaniylashtirishdan ish boshlab, siyosiy harakatga aylandi, o‘z oldiga jamiyat va uni boshqarishni qayta qurishdek vazifalarni qo‘ydi. Shunday qilib, jadidchilik fenomeni (noyobligi) shundaki, keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo‘lib, milliy davlatchilik qurishga urindi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va u milliy mustaqillik g‘oyasiga asos soldi, uyqudag Shargni uyg‘onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g‘urur, o‘z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va umuman, mustamlaka tuzumning tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarni xotirlashga undadi. Jadidlar ta’limoti – o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z ortidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo‘ldi. Jadidlar tomonidan pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni evolyutsion – islohotchilik tamoyillari asosida hal etishning ishlab chiqilganligi, ularning format-institutsional o‘zgartirishlarni, mustamlaka tuzumni tubdan yo‘qotishning maksimal darajada samarali yo‘llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir [6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begali Qosimov “Milliy uyg‘onish”. Toshkent. “Manaviyat” 2002-yil. 4-bet.
2. P.X. Murtazaeva. “Ўзбекистон тарихи”. Тошкент. “Янги аср авлоди”. 2003 йил. 350 бет.
3. http://aks.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=8510:tanma55&catid=3:1atanqid&Itemid
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. З-жилд. Тошкент. 2002-йил. 519-бет.
5. http://aks.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=8510:tanma55&catid=3:1atanqid&Itemid
6. <http://www.edebi.net/index.php/kardes-edebiyatlar/ozbek-edebiyat/20-21-as-r/601-normurodova-g-b-turkistonda-jadidchilik-harakati>

IQTISODIYOT**TIJORAT BANKLARIDAGI MUAMMOLI KREDITLAR HOLATINI
TAHLIL QILISH VA ULARNI KAMAYTIRISH MASALALARI****UO‘K 520.50**

**Anvarbek
NAVRUZOV**
Urganch davlat
universiteti mustaqil
tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada banklarning muddati o‘tgan qarz bilan ishslash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari muhokama qilingan. Muammoli kreditlarning salmog‘ini kamaytirish, ularning vujudga kelish omillarini bartaraf etish va kredit portfelini sog‘lomlashtirishdagi eng samarali usullar ochib berilgan. Shuningdek, kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности работы банков с просроченной задолженностью. Выявлены наиболее эффективные методы снижения риска проблемных кредитов, устранения факторов их возникновения и улучшения кредитного портфеля. Также были проанализированы существующие проблемные кредиты в кредитном портфеле и даны практические предложения по их устранению.

Annotation: the article deals with the issues of improving the efficiency of banks with overdue debts. The most effective methods of reducing the risk of problem loans, eliminating their occurrence factors and improving the loan portfolio are identified. The analysis of existing problem loans in the loan portfolio was also carried out and gave practical suggestions for their elimination.

Kalit so‘zlar: bank, bank faoliyati, kredit, kreditlash, qarz oluvchi, muddati o‘tgan qarz, muammoli kredit, kredit monitoringi, kredit qaytmaslik xavfi.

Ключевые слова: банк, банковская деятельность, кредит, кредитование, заемщик, просроченная задолженность, проблемный кредит, кредитный мониторинг, риск невозврата кредита.

Key words: bank, banking, credit, lending, borrower, overdue debt, problem loan, credit monitoring, non-performing loan.

Ayni kunda bank faoliyati O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida eng tez sur’atlarda rivojlanayotgan tizimlardan biridir. Biroq bu tez o‘sish aktivlar sifati (shu jumladan, kreditlar) hamda banklarning kredit risklarini boshqarish qobiliyatini xatarga qo‘ymoqda va shu o‘rinda tijorat banklari uchun muammoli kreditlar bilan ishslash usullarini takomillashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2024-yil 16-yanvardagi “Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minalash bo‘yicha ustuvor vazifalar” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida “Banklar resurs yo‘qligi sababli kredit foizi yuqori, deyishga o‘rganib olgan. Vaholanki, muammoli kreditlarni undirishni o‘zidan 25 trillion so‘mlik kreditga resurs topsa bo‘ladi”, – degan [1].

Bankning risklarni boshqarishdagi maqsadi barcha aktivlarining qaytarilishini ta’minalash va mumkin bo‘lgan tebranishlar chegaralarini toraytirishdan iboratdir. Odatda, xavf haqida gapirganda, mutaxassislar, birinchi navbatda, kredit xavfi, ya’ni kredit va unga hisoblangan foizlar qaytmaslik xavfini nazarda tutishadi. Ushbu xavf darajasiga mijozlar tarkibi va uni baholashga katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri – mijozning kreditga layoqatliligin hisoblash usuli ta’sir ko‘rsatadi. Kredit xavfini va muammoli kreditlar sonini kamaytirish uchun mijozlarning kreditga layoqatliligin diqqat bilan baholash va risklarini boshqarishning samarali usulini tanlash kerak.

Bu esa, tijorat banklarining kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlarni undirish amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi va bank tizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining shakllanishi bilan tijorat banklaridagi muammoli kreditlar sohasida tadqiqotlar o‘tkazishga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Bank tizimida muammoli kreditlar tahlilini turli usullar yordamida tadqiq etish xorijiy tadqiqotchilardan Lavrushina, Y.S., Nurzat O.A., Likova N.M., Kovanyov A.A., Yashin M.V., Slavyanskiy A.V., Kuznitsov S.V.lar nomlari bilan bog‘liq.

Muammoli kreditlarni boshqarish sohasidagi qator xorijiy tadqiqotlar muammoli kreditlarni boshqarish bo‘yicha optimal strategiyani tanlashga bag‘ishlangan bo‘lib, bu izlanishlar Xerring R.J., Greppet J.M., Karele G.V., Riddou T.J., Viatt S.B., Grivz R. kabi g‘arb tadqiqotchilarining asarlarida o‘z aksini topgan.

Tijorat banklaridagi kredit xavfi va muammoli kreditlarni boshqarish hamda ularning sonini minimallashtirish bilan bog‘liq muammolar mahalliy olimlardan T.M.Karaliyev, U.A.Tuxtabayev, K.A.Muxamedjanov va boshqalar tomonidan tahlil qilingan.

Tadqiqotchi Kuznitsov S.V. (2008) ilmiy ishida shunday deydi: “muammoli kredit – bu qarzdor o‘z majburiyatlarini bank bilan qabul qilingan bitimlar va kelishuvlarga muvofiq to‘liq bajara olmaydigan kreditdir, shuning uchun qarzdorning kredit majburiyatları bo‘yicha muddati o‘tgan to‘lovlar bank uchun qisman yoki to‘liq yo‘qotish xavfi mavjud demakdir [2].

Y.Y.Platonov va S.Y.Zaychenkolar (2011) tadqiqotlari natijasidan kelib chiqib, muammoli kreditlar sonining ko‘payishi bank kredit portfeli sifatining yomonlashuviga, qo‘sishma xarajatlar, kam foyda yoki yo‘qotishlarga olib

kelishi mumkinligi hamda muammoli aktivlarni boshqarish ishlarini eng samarali vositalardan foydalangan holda tashkil etish lozimligini bildirishgan [3].

Muammoli kreditlar sohasidagi tadqiqotchi A.V.Slavynskiyning (2009) fikriga ko‘ra, “muammoli kredit” – bu qarz oluvchi qarzni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish bo‘yicha kredit shartnomasi shartlarini bajarmagan, shuningdek, bank ham shartnomaga shartlarini qarzdor tomonidan bajarilmasligiga yetarli asoslarga ega bo‘lgan kreditdir [4].

O.A.Yusupovning (2016) ilmiy maqolasida muddati o‘tgan qarz nafaqat qiyin moliyaviy yoki kutilmagan holatlar tufayli, balki mijozning chalg‘ishi tufayli ham yuzaga kelishini, natijada u pul mablag‘lari va imkoniyatga ega bo‘la turib, to‘lojni o‘z vaqtida amalga oshirishni unutishini asoslagan [5]. Qoida tariqasida, bunday holatlarda muddati kechikkan qarz ko‘pi bilan besh – yetti ish kunida kredit inspektori tomonidan qarz oluvchiga yo‘llangan SMS xabarnomasi, yoki telefon qo‘ng‘irog‘i orqali yetkazilgan xabar orqali bartaraf etiladi.

V.V.Mazurinning (2016) ilmiy maqolasida muddati o‘tgan kredit qarzdorning joriy shartnomaga bo‘yicha qarzni to‘liq va o‘z vaqtida qaytarmasligini ta’kidlagan. Shu bilan birga, muammoli kredit tushunchasi qarz oluvchining kreditga noto‘g‘ri yondashuvi tufayli bank uchun moliyaviy zararlarning yuqori darajasi bilan bog‘liqligi va bu holat ko‘pincha qarz oluvchining moliyaviy ahvoli yomonlashishi bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tgan [6].

Bazel qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, muammoli kredit – bu qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatlarini bajarish muddatlarining sezilarli darajada buzilishi, qarz oluvchining moliyaviy ahvolining sezilarli darajada yomonlashuvi va garov sifatining sezilarli darajada pasayishi yoki hatto yo‘qotilishi bo‘lgan kreditdir [7].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ayni kunda mamlakatimiz tijorat banklaridagi muammoli kreditlar bilan bog‘liq holatlarda ham nomi keltirilgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar dolzarbligini kuzatishimiz mumkin.

Darhaqiqat, tijorat banklaridagi mavjud muddati o‘tgan va muammo tusini olgan kreditlar nafaqat aktivlar sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki kreditlarni qaytarmaslik xavfining ortishiga olib keladi.

Bank tizimida muammoli kreditlar (NPL) ulushi 2023-yil 1-oktabr holatiga 3,7 foizni (16,8 trln. so‘m) tashkil etmoqda. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1% bandga pasaygan [8].

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL)

1-jadval

Sana	Kreditlar			Muammoli kreditlar (NPL)			Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda		
	jami	shundan		jami	shundan		jami	shundan	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2020	211 580,5	186 630,3	24 950,2	3 169,1	2 809,0	360,1	1,5	1,5	1,4
01.02.2020	213 032,1	188 321,4	24 710,8	3 939,9	3 583,9	356,0	1,8	1,9	1,4
01.03.2020	215 814,6	190 558,9	25 255,7	4 519,9	4 132,3	387,6	2,1	2,2	1,5
01.04.2020	221 933,8	195 884,1	26 049,7	5 021,2	4 620,0	401,2	2,3	2,4	1,5
01.05.2020	232 301,9	205 814,5	26 487,4	5 217,5	4 797,3	420,1	2,2	2,3	1,6
01.06.2020	237 980,2	211 136,8	26 843,4	5 473,7	4 979,7	494,0	2,3	2,4	1,8
01.07.2020	244 906,2	216 970,8	27 935,3	7 087,4	6 492,6	594,8	2,9	3,0	2,1
01.08.2020	249 756,1	221 283,8	28 472,3	5 887,0	5 306,1	580,9	2,4	2,4	2,0
01.09.2020	255 687,8	226 578,7	29 109,1	6 508,7	5 913,2	595,5	2,5	2,6	2,0
01.10.2020	260 711,6	230 585,7	30 125,9	6 838,8	6 273,3	565,5	2,6	2,7	1,9
01.11.2020	266 933,2	235 970,7	30 962,4	6 560,1	5 987,7	572,4	2,5	2,5	1,8
01.12.2020	270 716,5	239 120,2	31 596,2	6 518,2	5 893,4	624,8	2,4	2,5	2,0
01.01.2021	276 974,8	244 483,9	32 490,9	5 784,8	5 167,6	617,2	2,1	2,1	1,9
01.02.2021	277 754,6	245 001,2	32 753,4	7 487,0	6 858,1	628,9	2,7	2,8	1,9
01.03.2021	280 214,7	246 631,5	33 583,1	7 844,3	7 226,1	618,2	2,8	2,9	1,8
01.04.2021	283 485,1	249 302,8	34 182,2	10 177,9	8 440,9	1 737,0	3,6	3,4	5,1
01.05.2021	292 029,0	256 648,7	35 380,3	12 932,7	11 188,0	1 744,7	4,4	4,4	4,9
01.06.2021	297 777,9	261 488,6	36 289,3	14 006,7	12 214,4	1 792,3	4,7	4,7	4,9
01.07.2021	300 459,4	261 194,7	39 264,7	16 793,7	14 718,1	2 075,6	5,6	5,6	5,3
01.08.2021	302 692,8	262 384,6	40 308,2	18 888,5	16 715,1	2 173,4	6,2	6,4	5,4
01.09.2021	307 204,2	265 479,2	41 725,1	18 474,2	16 310,8	2 163,5	6,0	6,1	5,2
01.10.2021	311 590,6	268 938,8	42 651,8	18 126,0	15 844,9	2 281,0	5,8	5,9	5,3
01.11.2021	316 200,2	272 401,6	43 798,6	18 017,0	15 670,4	2 346,6	5,7	5,8	5,4
01.12.2021	320 812,5	275 757,2	45 055,3	18 392,1	16 117,8	2 274,2	5,7	5,8	5,0
01.01.2022	326 385,6	280 073,6	46 311,9	16 974,0	15 068,8	1 905,2	5,2	5,4	4,1
01.02.2022	324 138,9	277 521,7	46 617,2	17 476,6	15 522,1	1 954,5	5,4	5,6	4,2
01.03.2022	327 179,8	279 218,4	47 961,4	17 211,7	15 289,8	1 921,9	5,3	5,5	4,0
01.04.2022	340 258,7	289 760,0	50 498,7	16 830,8	14 972,8	1 858,0	4,9	5,2	3,7
01.05.2022	340 254,7	288 536,2	51 718,5	18 084,1	15 926,5	2 157,6	5,3	5,5	4,2
01.06.2022	345 201,4	292 140,0	53 061,4	18 282,2	16 077,9	2 204,3	5,3	5,5	4,2
01.07.2022	343 572,4	288 962,9	54 609,5	16 794,9	14 535,2	2 259,8	4,9	5,0	4,1
01.08.2022	346 389,6	290 614,3	55 775,3	16 935,7	14 567,8	2 368,0	4,9	5,0	4,2
01.09.2022	355 489,6	297 582,7	57 906,8	17 483,8	15 048,4	2 435,4	4,9	5,1	4,2
01.10.2022	362 933,3	303 128,9	59 804,4	17 112,9	14 718,3	2 394,6	4,7	4,9	4,0
01.11.2022	375 296,6	314 065,7	61 230,9	16 144,6	14 535,2	1 609,3	4,3	4,6	2,6
01.12.2022	382 078,1	318 787,9	63 290,1	15 344,1	13 828,4	1 515,7	4,0	4,3	2,4
01.01.2023	390 048,9	324 680,8	65 368,2	13 992,4	12 643,3	1 349,1	3,6	3,9	2,1
01.02.2023	391 109,2	324 113,9	66 995,2	14 912,4	13 543,6	1 368,9	3,8	4,2	2,0
01.03.2023	397 637,5	328 047,7	69 589,8	15 052,1	13 637,9	1 414,2	3,8	4,2	2,0
01.04.2023	408 167,2	334 767,0	73 400,1	14 341,7	12 919,8	1 421,9	3,5	3,9	1,9
01.05.2023	413 400,3	336 821,6	76 578,7	14 766,7	13 341,8	1 424,9	3,6	4,0	1,9
01.06.2023	420 469,5	340 335,0	80 134,5	14 639,0	13 211,9	1 427,1	3,5	3,9	1,8
01.07.2023	423 772,5	307 886,8	115 885,7	14 303,2	11 855,0	2 448,2	3,4	3,9	2,1
01.08.2023	430 227,2	310 873,2	119 354,0	15 743,1	12 191,8	3 551,3	3,7	3,9	3,0
01.09.2023	444 722,9	320 436,6	124 286,3	17 269,4	12 668,6	4 600,8	3,9	4,0	3,7
01.10.2023	451 610,3	324 034,7	127 575,6	16 828,3	12 589,3	4 239,1	3,7	3,9	3,3

Bunda, korporativ kreditlarning NPL qismi mos ravishda 0,5% bandga pasayib, 4,2% ni, chakana kreditlarda esa 2% bandga pasayib, 2,6% ni tashkil etgan. Hisobot sanasiga NPLning 60 foizini milliy valyutadagi va 40 foizini xorijiy valyutadagi kreditlar tashkil etsa, mijozlar qirqimida 22 foizi jismoniy shaxslar va 78 foizi korporativ mijozlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarda NPL ulushi 2,6% ni tashkil etib, bunda iste’mol kreditlari bo‘yicha 8,5% ni (75 mlrd. so‘m), ipoteka kreditlarida

1,5% ni (804 mlrd. so‘m), mikroqarzlarda 1,6% ni (336 mlrd. so‘m) va avtokreditlarda 0,7% ni (273 mlrd. so‘m) tashkil etgan.

Kredit qo‘yilmalarida NPL ulushi tarmoqlar qirqimida uy-joy communal xizmat ko‘rsatishda 9,2%, savdo va umumiy xizmat sohasida 7,7%, qurilish sohasida 7,6%, qishloq xo‘jaligida 5,7% va sanoat sohasida 3,6% darajasida shakllangan.

Shuningdek, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan tarmoqlar kesimida NPL ulushi uy-joy communal xizmatlar sohasida 3,3% bandga oshgan bo‘lsa, qurilish sohasida 2,4% bandga, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 0,9% bandga hamda qishloq xo‘jaligida 0,6% bandga pasaygan. Tijorat banklari kredit portfelidagi NPLning ulushi bo‘yicha guruhlanganda 24 ta bankda 3% gacha (bank tizimi jami aktivlarida ulushi 40%), 4 ta bankda 3,1% dan 5% gacha oraliqda (bank tizimi jami aktivlaridagi ulushi 43%) va 7 ta bankda 5,1% dan yuqori bo‘lib, ularning jami aktivlardagi ulushi 17% ni tashkil etgan.

Shuningdek, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan tizim bo‘yicha NPLning kamayishi natijasida NPL ulushi 3,1% dan yuqori bo‘lgan banklarda NPL 3% dan past guruhga ko‘chishi kuzatilgan. Bunda, kredit portfelidagi NPL ulushi 3,1 dan 5% gacha bo‘lgan banklar soni 8 taga, 5,1% dan yuqori bo‘lganlari soni esa 3 taga kamaygan.

Kredit xatarlarining banklar moliyaviy barqarorligiga bo‘lgan salbiy ta’sirini yumshatish maqsadlarida banklar tomonidan shakllantirilgan jami zaxiralar qoldig‘i o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 26% ga oshgan.

Banklarda muammoli kreditlarning zaxiralar bilan qoplanish darjasasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 26% bandga oshib, 2023-yil 1-oktabr holatiga 110,2% darajasida shakllangan. Sof NPLning kapitalga nisbati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3% bandga kamayib, 9,9% ni tashkil etgan.

Ushbu maqola tadqiqotlarining maqsad va vazifalariga muvofiq tijorat banklaridagi muammoli kreditlarni undirish hamda sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui quydagi harakatlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- Banklarning kredit portfeli va loyihalar sifatini oshirish choralari;
- Banklarning kredit portfelida mavjud kreditlarga nisbatan stress-test amaliyotini qo‘llash imkoniyatlari;
- Muammoli kreditlarni tasniflar kesimida batafsil tahlil qilib, kredit portfeli sifatini saqlab qolish bo‘yicha ta’sirchan mexanizm ishlab chiqish;
- Tijorat banklari kredit portfellari xatlovdan o‘tkazilib, qiyin ahvolga tushib qolgan har bir mijozning moliyaviy imkoniyatlarini tiklash bo‘yicha aniq choralarни ishlab chiqish.

Shuningdek, kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlar ulushini bartaraf etish hamda salmog‘ini kamaytirishga quydagi samarali holatlarga e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi:

- qo‘srimcha ta’mintoni jalg qilish: qo‘srimcha kafolatlar yoki kafililiklar, mol-mulk yoki ko‘chmas mulk garovi;
- garov mulkini sotish;

- qarz oluvchining aktivlarini sotish orqali kreditni qaytarish, kam daromadli aktivlarga sarmoya jalg qilinishini oldini olish;
- mijozlarga nisbatan sanksiyalar qo'llash;
- qarz oluvchidan qo'shimcha mablag' va moliyaviy yordam jalg qilish yo'li bilan kreditni qaytarish.

Shunday qilib, shakllantirilgan amaliy harakatlarga asoslangan ushbu maqola tаддиqotlari doirasida qarz oluvchilarning muammoli kreditlarini boshqarish tizimini tashkil etishga ilmiy-uslubiy yondashuv taklif etildi. Unda muammoli kreditlarni barvaqt aniqlashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, shakllantirilgan barcha tavsiyalarni bank amaliyotida qo'llash imkoniyati mavjud, bu esa muammoli kreditlarni boshqarish jarayoni samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 16-yanvardagi "Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalar" yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi.
2. Кузнетсов С.В. (2008) "Ссудная задолженность кредитных организаций: проблемы и инструменты ее урегулирования / Автореф. дисс канд. экон. наук. М., С.14.
3. Платонова Ю.Ю., Зайченко С.Е. (2011). Инструменты управления портфелем проблемных кредитов в современных условиях. Финансы и кредит, (4 (436)), 29.
4. Славянский А.В. (2009) «Управление проблемной задолженностью банка». Аудит и финансовый анализ. № 1. С. 303-308.
5. Юсупова О.А. (2016). Организация администрирования проблемной задолженности в кредитном портфеле коммерческого банка. Финансовая аналитика: проблемы и решения, (10 (292)), 54-66.
6. Мазурин Владимир Викторович (2016). Механизм работы с просроченной и проблемной задолженностю розничном кредитном портфеле российских банков. Вестник университета, (6), 120.
7. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalari. – Bazel, 2001.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulletini – 2023-yil sentabr.

IQTISODIYOT**MINTAQADA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Marxamat
MADRAIMOVA**

Urganch davlat
universiteti o'qituvchisi



**Dilfuza
BABAJANOVA**

Urganch davlat
universiteti o'qituvchisi



**Zulfiya
ABDULLAYEVA**

Urganch davlat
universiteti o'qituvchisi

UO'K 520.50

Annotatsiya: maqolada mintaqada aholi jon boshiga to'g'ri kelgan soha va tarmoqlar hajmi, shuningdek, yalpi hududiy mahsulotning yaratilishida kichik biznesning o'rni, mintaqadagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi aniqlangan. Olingan natijalar asosida mintaqani rivojlantirish bo'yicha taklif va mulohazalar keltirilgan.

Аннотация: в статье рассмотрен размер отраслей и отраслей на душу населения в регионе, а также роль малого бизнеса в создании валового регионального продукта, доля малого бизнеса и частного предпринимательства в регионе, размер основного определены показатели отраслей экономики. На основе полученных результатов представлены предложения и комментарии по развитию региона.

Annotation: in the article, the size of industries and sectors per capita in the region, as well as the role of small business in the creation of gross regional product, the share of small business and private entrepreneurship in the region, and the size of the main indicators of economic sectors are defined. Based on the obtained results, proposals and comments on the development of the region are presented.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, yalpi hududiy mahsulot, "yashil" va raqamli texnologiyalar, import, export.

Ключевые слова: предпринимательство, валовой региональный продукт, «зеленые» и цифровые технологии, импорт, экспорт.

Key words: entrepreneurship, gross regional product, "green" and digital technologies, import, export.

Kirish. Mamlakatimizning iqtisodiyotini rivojlantirishda, shubhasiz, tadbirkorlik muhim o'rin tutadi. Zero, tadbirkor ham davlat, ham fuqarolik

jamiyati barqarorligi va barqaror rivojlanishining tayanchi va kafolati hisoblanadi. Aynan tadbirkorlik orqali aholi daromadlarining o'sishishiga erishish bozor iqtisodiyotining muhim omillaridan biridir.

Zamonaviy jamiyat uchun tadbirkorlikning g'oyat muhimligini baholash uchun xususiy tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'rtasidagi farqlarga murojaat qilish foydali bo'ladi. Mamlakat YHMning tarkibiy mezoni yalpi hududiy

mahsulot o'sishi mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishirish, ularda soha va tarmoqlar ko'lmini kengaytirish bilan uzviy bog'liqidir. "Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektini oyoqqa turg'izish, kamida 25 mingtasini o'rta korxonalarga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o'rni yaratishdan iborat" [1]. Mazkur maqsadlarga erishish uchun mintaqalar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tadqiq



qilish, olingan natijalar asosida ustuvor soha va tarmoqlarni aniqlash hamda ular ko'lmini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilishi lozim. Bunda hudud iqtisodiyotini rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushini baholashdagi mavjud omillarni ochib beramiz.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashda barcha kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi [3]. Bozor munosabatlari murakkab jarayon bolib, unga tavakkalchilik va noaniqlik elementlari xosdir. Shuning uchun ham ushbu omillarni hisobga olib korxonalar va firmalarda har bir ishlab chiqarish "zanjiri"ni to'g'ri tashkil etish, korxonaning pirovard natijalariga erishishida yordam beradi [2]. Shu munosabat bilan zamonaviy korxonalarda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini modellashtirishning matematik va instrumental usullarini qollab, ilmiy asoslangan qayta tashkil etish uslubiyatini yaratishning ahamiyati ortib bormoqda.

Tahlil va natijalar. Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish maqsadida 2024-yil mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi va yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytirish, ilm-fan,

innovatsiya, IT kabi sohalarni, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi ko‘zda tutilmoqda.

Bunday imkoniyatlar samarasi bilan mamalakatda yangi tashkil qilingan kichik biznes subyektlarining soni oshib bormoqda. Vohamizda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 nafar aholiga, birlikda 2022-yil yanvar-sentabr oylavrida 12,8 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida bu ko‘rsatkich 14,5 tagacha ortgan. So‘nggi yillarda Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha 2023-yilning yanvar-sentabr holatiga yangi tashkil etilgan korxona va mikrofirmalarning soni 5 655 tani tashkil etgan. Buni quyidagi jadval ma’lumotlardan ko‘rshimiz mumkin.

1-jadval

Xorazm viloyati bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari soni [4]

	Yangi tashkil etilgan										
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yil yanvar-sentabr
Jami	1 058	1 201	1 292	1 487	1 565	2 009	4 668	4 632	4 914	5 655	5 096
Shu jumladan											
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	77	90	107	124	191	224	629	1 116	636	910	555
sanoat	261	255	221	345	385	445	926	963	1 090	1 187	895
qurilish	173	222	200	149	164	228	364	263	238	220	200
savdo	282	260	361	465	360	555	1 716	1 422	1 845	2 118	2 158
tashish va saqlash	45	84	66	54	78	81	140	86	174	280	314
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	76	73	130	136	142	216	391	246	325	279	269
axborot va aloqa	13	36	36	43	32	35	52	80	115	127	118
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	19	24	30	34	53	51	87	94	94	76	81
boshqa turlari	112	157	141	137	160	174	363	362	397	458	506

So‘nggi 3 yil tahlil qilinganda (2021-2023), 2021-yilda viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni 18 875 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 21984 gacha ortgan. Joriy yilning oktabr oyiga bu turdagи korxonalar soni 24 104 taga yetgan. Bundan ko‘rinadiki,

mamlakatimizda tadbirkorlik sohasidagi islohotlar o‘z samarasini bergan, natijada faoliyat olib borayotgan korxonalar soni 5 229 taga, ya’ni 2021-yilga nisbatan o‘sish 9,64 %ni tashkil etgan. Vohada yangi tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni 2021-yilda 4 632 tani, 2022-yilda 4 914 tani, 2023-yilning oktabr oyiga qadar esa 5 096 tani tashkil qilgan. Demak, so‘nggi 3 yilda vohada yangi tashkil qilingan bu turdagи korxonalar soni 464 taga, ya’ni



www.naesmi.uz

2021-yilga nisbatan o‘sish 10,01 % ga ortgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar hududlar kesimida tahlil qilinganda 2021-yilda vohada faoliyat ko‘rsatayotgan bu turdagи korxonalar sonining eng yuqori ko‘rsatkichi Urganch shahrida 4 107 ta, Xiva tumanida 1 544 ta, Xonqa tumanlarida 1 500 tani, 2022-yilda Urganch shahrida 4 558 ta, Urganch tumanida 2 547 ta, Xiva shahrida 1944 tani, 2023-yilning oktabr holatiga esa esa Urganch shahrida 4 434 ta, Xiva shahrida 1973 ta, Xonqa tumanida 1 833 taligi kuzatilgan bo‘lsa, yangi tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik soni borasida yuqori ko‘rsatkichlar 2021-yilda Urganch shahrida 765 ta, Urganch tumanida 457 ta, Xiva shahrida 369 tani, 2022-yilda Urganch shahrida 773 ta, Urganch tumanida 562 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 465 tani, 2023-yilning oktabr oyigacha Urganch shahrida 642 ta, Shovot tumanida 526 ta, Urganch tumanida 491 tagacha kuzatilgan. Bundan kelib chiqadiki, Urganch shahri, Xiva shahri va Urganch tumanlari bu borada peshqadamlik qilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikka keng urg‘u berilayotganligi va aholi o‘ziga berilgan imkoniyatlardan keng foydalanayotganligi, buning natijasida esa tadbirkorlarning iqtisodiyotdagi ulushi kundan kunga ortyapti. Bu o‘sishlar vohamizda o‘tgan 2022-yil shu davrga nisbatan 113,5 % o‘sish sur’atini tashkil qilgan. Ushbu raqamlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu davr mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi

savdo sohasida 42,3 %, sanoat sohasida 17,6 %, qurilish sohasida 3,9 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida 10,9 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari 5,3 %, tashish va saqlash xizmatlari 6,2 % ni tashkil qilgan.

Buning natijasida 2023-yilning yanvar-sentabr oylari mobaynida vohada sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2 647,8 mlrd. so‘mga, xizmatlar hajmi 5 485,5 so‘mga, eksport hajmi 146,0 mln. AQSH dollariga, import hajmi 163,2 mln. AQSH dollariga, qurilish ishlari 3 698,1 mlrd so‘mga, chakana tovar aylanmasi 7 689,5 so‘mga, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 19 064,0 mlrd. so‘mga, avtomobil transportda yuk tashish xizmati hajmi 26,8 mln. tonnaga ortgan.

Vohamizda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga, birlikda 2022 yil yanvar-sentabr oylarida 12,8 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida bu ko‘rsatkich 14,5 tagacha ortgan. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning 96,1 %i kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. 2023-yilning 1-noyabr holatiga ko‘ra, axborot va aloqa faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar soni 10 471 birlikka yetgan. Shundan 10 065 birligi (umumiyl sonining 96,1 %i) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Kichik biznes ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashda muhim vazifalarni bajarish hal qiluvchi yo‘nalish sifatida katta o‘rin egallaydi. Jahon bozorida raqobat tobora keskinlashib borayotgan hozirgi sharoitda mavjud kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini rekonstruksiya qilmasdan, zamonaviy, ilg‘or va yuksak texnologik uskunalar bilan jihozlangan korxonalarini tashkil etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 18-avgustdagи “Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko‘tarish-ustuvor vazifamizdir” mavzusidagi tadbirkorlar bilan uchrashuvi
2. Rasulev D., Nurullayeva Sh., Rozmetova N., Muminova M. Biznes-jarayonlarini modellashtirish: o‘quv qollanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019. – 175-bet.
3. Nishonboyev D.E. Tadbirkorlik faoliyatining tashqi iqtisodiy faoliyati ko‘rsatkichlari tizimi takomillashtirish. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. №10/2 (107), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2023-y. – 51 b.
4. www.xorazmstat.uz – Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

IQTISODIYOT

O'ZBEKISTONDA TASHQI IQTISODIY ALOQALARINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI AHAMIYATI

UO'K 530.40



**Farida
OZODOVA**
Urganch davlat
universiteti
magistraturanti



**Guli
ATAJANOVA**
Urganch davlat
universiteti
magistraturanti



**Sharifa
FARKHODOVA**
Urganch davlat
universiteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanayotganligi, shuningdek, u orqali ishlab chiqarishni kengaytirish, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning rivojlanayotganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: в статье представлена информация о развитии внешнеэкономических связей, реализуемых в настоящее время в Узбекистане, а также развитии расширения производства, выпуска товаров народного потребления и оказания через него услуг.

Annotation: this article provides information on the development of foreign economic relations currently implemented in Uzbekistan, as well as the development of the expansion of production, production of consumer goods and the provision of services through it.

Kalit so'zlar: sanoat, zamonaviy globallashuv, tashqi savdo, eksport, tashqi iqtisodiy siyosat.

Ключевые слова: промышленность, современная глобализация, внешняя торговля, экспорт, внешнеэкономическая политика.

Key words: industry, modern globalization, foreign trade, export, foreign economic policy.

Hozirgi kunda O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalari kundan kunga rivojlanmoqda. Bu borada O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtaida hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, u 30 yillik tarixga ega. O'zbekistonda yirik ishlab chiqarish salohiyati shakllangan bo'lib, bu O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanish asosini tashkil etadi. Sanoat tarkibidagi siljishlar, birinchi navbatda, oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning o'rta muddatli maqsadlarida iqtisodiy o'sish sur'atlarini har yili kamida 8 foiz darajasida ushlab turish nazarda tutilgan.

Mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya, jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmini oshirmsandan turib, ushbu muammoni hal etib bo'lmaydi. Iqtisodiy amaliyot shuni

ko‘rsatadiki, xorijiy investitsiyalar jalb qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan investitsiya siyosati bilan birgalikda, qabul qiluvchi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘sadi. Bu esa iqtisodiyotga qo‘sishma kapital kiritish va zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni kiritish, ichki bozorda raqobatga ijobjiy ta’sir ko‘rsatish, kadrlar salohiyatini oshirish va xalqaro savdoni rivojlantirish shaklida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda tashqi savdo mamlakat iqtisodiy o‘sishining kuchli “katalizatori” bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni samarali rivojlantirishga, tadbirkorlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotga valyuta mablag‘larini kirib kelishiga xizmat qiladi. Bu borada tashqi savdo iqtisodiyotning eng muhim tarmog‘i bo‘lib, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Samarali va raqobatbardosh savdo tarmog‘ini yaratish maqsadlaridan biridir. Bu O‘zbekistonning o‘rta uzoq muddatli strategiyasidir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda yangi global hamkorlikni mustahkamlash borasida samarali tashqi siyosat amalga oshirildi. Chunki, zamonaviy globallashuv sharoitida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bevosita uning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuviga bog‘liq bo‘ladi [1]. Shu bois, mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lib hisoblanadi. Bu holatda mamlakatimizda tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy tamoyillari quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi.

turli g‘oyalar ta’siridan qat’iy nazar, savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish;

ikki tomonlama va ko‘p tomonlama asosda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish;

xalqaro huquq normalarining milliy norma va qoidalarga nisbatan ustuvorligi;

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aloqalari yildan yilga rivojlanib borib, unda diplomatik aloqalarni o‘rnatgan davlatlarining alohida o‘rni bor. Xususan, 2023-yilning iyun holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi BMTga a’zo 144 ta davlat, shuningdek, BMT kuzatuvchilari bilan ham diplomatik munosabatlarni o‘rnatgan (1-jadval).

1-jadval. O‘zbekiston BMTga a’zo quyidagi davlatlar bilan ham diplomatik aloqalar o‘rnatgan [2]

T/r.	Davlatlar	Aloqa o‘rnatilgan yili
1.	Sent-Vinsent va Grenadina	2022-yil 10-may
2.	Antigua va Barbuda	2022-yil 13-iyun
3.	Gayana	2022-yil 10-oktabr
4.	Syerra-Leone	2023-yil 29-aprel
5.	Trinidad va Tobago	2023-yil 16-iyun

Darhaqiqat, jadvalga ko‘ra, ularning aloqa o‘rnatish shakli Nyu-York shahrida imzolangan qo‘sishma bitim bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston jahonning 167 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda.


Uning jahondagi tashqi savdo aylanmasiga nisbatan salmoqli hissasi Xitoyda (18,5 %), Rossiya Federatsiyasida (14,6 %), Qozog‘istonda (8,1 %), Janubiy Koreyada (6,5 %), Turkiyada (5,7 %), Germaniyada (2,2 %) va Qirg‘izistonda (2,1 %) qayd etilgan. Tahlillarga ko‘ra, tashqi savdo aylanmasi hajmi 2019-yil yanvar-iyul oylarida 24,5 mld. dollarni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,8 mld. dollar qiymatga oshgan. Tashqi savdo aylanmasi tarkibiy dinamikasida ijobiy siljishlar ham kuzatilmoqda. Ya’ni, o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushi 1,8 foizga ortgan. Shu bilan birga, boshqa xorijiy hamkor-davlatlar bilan savdo iqtisodiy munosabatlar davom etmoqda. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasidagi ulishi 66,8 foizga yetib (16,7 mld. dollar), o‘tgan yilning mos davridagi tashqi savdo aylanmasiga nisbatan 50,6 foizga oshgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor davlatlarning 5 tasida faol tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Qirg‘iziston (347,2 mln. dollar), Afg‘oniston (315,6 mln. dollar), Tojikiston (88,7 mln. dollar), Fransiya (27,3 mln. dollar) va Eron (16,2 mln. dollar) shular jumlasidandir. Qolgan 15 ta davlat bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda [3]. So‘nggi yillarda O‘zbekistonning yangi, pragmatik va faol tashqi siyosati natijasida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida mintaqaviy hamkorlik jadallahib, natijada savdo-iqtisodiy aloqalari yaxshilandi. Xususan, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro savdo aylanmasi 2019-yilda 5,2 mld. AQSH dollariga yetgan bo‘lsa, 2020-yilda esa global pandemiyaga qaramay, ushbu ko‘rsatkich 5 mld. AQSH dollarini tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida respublikamizning tashqi savdo aylanmasi hajmi 40,1 mld. dollarni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 7,3 mld. dollarga yoki 22,2 foizga oshdi. Tashqi savdo aylanmasi eksport hajmi 15,5 mld. AQSH dollarga (yoki 23,8 foizga) oshdi va import hajmi esa 24,6 mld. AQSH dollarga (yoki 21,2 foizga) yetdi. 2022-yilda 9,1 mld. AQSh dollari qiymatiga teng passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib importni mahalliy ishlab chiqarishga almashtirish va yuqori qo‘silgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish hisoblanadi. Ammo, xalqaro tajriba shuni ko‘satadiki, import o‘rnini bosish siyosati eksportni rag‘batlantirish siyosati bilan birgalikda olib borilishi mumkin emas. Ushbu siyosatni amalga oshirish mamlakatlar import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko‘maklashish va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishni sekinlashtirish bilan namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda savdo rejimi tovarlarni eksport qilishni cheklash, valyuta tushumlarini oshirib yuborilgan kurs bo‘yicha sotish, oraliq tovarlarni import qilishdagi muammolar tufayli eksportni rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, mamlakatimizning tovar eksporti tarkibida paxta tolasi, tabiiy gaz, oltin va uran kabi tovarlar ustunlik qiladi. Tayyor mahsulotlarning umumiy eksportdagi ulushi past ulushni tashkil etadi.

Boshqa statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonning boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aloqalari 2023-yil yanvar oyida 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,9 foizga oshib, uning jami tashqi savdodagi ulushi 73,0 foizni tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo

aylanmasi 2023-yil yanvar holatiga ko‘ra, 1361,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 479,8 mln. AQSH dollarga yetgan bo‘lsa, import hajmi esa 881,8 mln. AQSH dollariga teng bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining yuqori ko‘rasatkichlari Rossiya (50,6 %), Qozog‘iston (24,5 %) hamda Qirg‘iziston Respublikasi (4,5 %) davlatlari bilan qayd etildi (1-rasm).



1-rasm. 2022-2023-yillarda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi tarkibi [4]

Xulosa shuki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangi tashqi iqtisodiy siyosat bir-biriga bog‘liq bo‘lib, turli xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu borada mamlakatimizda ochiqlik, innovatsiya va yangilanish, shuningdek, iqtisodiy liberallashtirish, bozorni rivojlantirish, tadbirdorlik muhitini yaxshilash, raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ta’lim va ma’rifat, fuqarolar faolligi va inson huquqlari himoyasiga e’tibor qaratilmoqda. Ushbu jihatlar mamlakatimiz tashqi siyosatiga ijobiy ta’sir etmoqda. Bugugi kunda O‘zbekiston Respublikasi ochiq iqtisodiyotga egaligi va izchil, aniq iqtisodiy siyosatni olib bormoqda. O‘zbekiston uchun dunyoning Rossiya, AQSH va Xitoy kabi yetakchi davlatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlangan mamlakatlar, xususan, Koreya, Yaponiya, Yevropa mamlakatlari va boshqa davlatlar bilan o‘zaro manfaatli, samarali va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma - T.: TDIU, 2008.
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/23/commerce/>
3. <https://invexi.org/uz/press/the-foreign-trade-turnover-of-the-republic-of-uzbekistan-in-january-2023-amounted-to-5-billion-us-dollars/>
4. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma’lumotlari

FILOLOGIYA

KOMIL XORAZMIYNING HAYOTI VA IJODIY MEROsi



**Umid
BEKMUHAMMAD**
**Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori**

UO'K 574.530

Annotatsiya: ushbu maqolada Xiva xonligi davlat arbobi va shoir Komil Xorazmiyning hayoti va ijodiy merosi yoritib beriladi. Maqolada Komil Xorazmiyning Sankt-Peterburg, Toshkent shaharlariga qilgan sayohatlari va yaratgan ijodiy asarlari ham tahlil qilingan.

Аннотация: в статье освещается жизнь и творческое наследие государственного деятеля и поэта Хивинского ханства Камиля Хорезми. В статье также анализируются поездки Камиля Хорезми в Санкт-Петербург и Ташкент и его творчество.

Annotation: in this article, the life and creative heritage of Khiva Khanate statesman and poet Kamil Khorezmi is highlighted. The article also analyzes Kamil Khorazmi's trips to St. Petersburg and Tashkent and his creative works.

Kalit so'zlar: Xiva, davlat boshqaruvi, mirzaboshi, Sankt-Peterburg, Toshkent, sheriyat, ijodiy meros.

Ключевые слова: Хива, государственное управление, миразбоши, Санкт-Петербург, Ташкент, шариат, творческое наследие.

Key words: Khiva, state administration, mirzaboshi, St. Petersburg, Tashkent, sharia, creative heritage.

“Санкт-Петербургские ведомости” gazetasining 1875-yilgi 74-sonida hamda “Новое время” haftanomasi o‘zining 83-sonida Xiva xoni Feruz va bir guruh xorazmlik amaldorlarning Rossiya shaharlariga tashrifini yoritgan edi. Ularda imperatorning maxsus sovg‘asini olishga sazovor bo‘lgan Komil Xorazmiy haqida ham xabar berib o‘tilgan...

Tarixda shoir, bastakor, tarjimon, sozanda va davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Komil Xorazmiy 1825-yili Xivada tavallud topgan. Uni mard va bir so‘zliligi uchun Pahlavon Mirzaboshi deb ham atashgan. Madrasada tahsil olib, arab va fors tillarini mukammal egallagan bu inson ijodkorligi bois Feruzxonning nazariga tushdi. Uni hukmdor o‘zining saroyiga xattot qilib ishga oldi.

Komil Xorazmiy xon hazratlarining mehrini qozonganidan, qolaversa, o‘zida boshqaruvi layoqati borligi tufayli 1865-yili mirzaboshi etib tayinlanadi. Ma’lumki, o‘sha davr bag‘oyat tahlikali bo‘lib, chorizmnning xonlikka tajovuzi kuchaygandi. 1873-yildan esa Xorazm Rusiyaning bosqini natijasida uning tobeligiga o‘tdi. Alg‘ov-dolg‘ovli yillarda Komil Xorazmiy istilochilarga qarshi kurashdi. Ammo kuchlar nisbati teng bo‘lmaganligi sababli, xonlik zabit etildi.

Bu paytda Xiva – Chor Rusiyasi o‘rtasida diplomatik aloqalarni olib boradigan, vaziyatni yaxshi yo‘lga soladigan kishi Feruzxon uchun zarur edi. Bu shaxs esa rus tilini biladigan Komil Xorazmiy bo‘lib, xon uni devonbegi qilib

tayinlaydi. Bir necha bor Peterburg va Moskva safarlariga borganida yonida davlat amaldorlari, zakiy inson sifatida uni ham olib yurdi.

1873-yilgi shunday safarlardan birida Komil Xorazmiy o‘zi bilan birga Rusiyaga tanbur va g‘ijjak olib boradi. Imperatorning xorazmliklar tashrifiga oid davlat ziyofatida esa o‘sha musiqa asboblarini chalib, mezbonlarni hayratga soladi. Musiqaga ixlosi yuqoriligini sezgan imperator shunda Komil Xorazmiyga eman daraxtidan yasalgan pianinoni sovg‘a qilib berib yuboradi.

Xorazmlik sozanda bu cholg‘u asbobini chertishni ham tezda o‘rganib, pinaninoni Xivaga keltiradi. Uni xorazmliklar va xonlikdagi ruslarga chalib berib, xalq mehrini qozonadi.

Ikkinci marotaba 1883-yili u 17 kishilik xonlik amaldorlari qatorida yana Feruzxon bilan birga Moskva va Peterburgga, 1891-yili esa shahzoda Asfandiyorxoniga hamroh bo‘lib Rusiyaga safar qiladi.

1883-yili Rusiyada nashr etiladigan “Новости и биржевая газета” Xivaliklar safari to‘g‘risida, “21-iyun seshanba kuni Xiva xoni Muhammad Rahimxon II boshchiligidagi 17 kishidan iborat, shaxsiy soqchilar va xizmatchilardan ham iborat osiyoliklar temir yo‘l orqali Peterburgdan Moskvaga jo‘nab ketishdi. U yerdan Orenburg orqali Xivaga yo‘l olishadi”, – deya xabar berib o‘tgandi.

Komil Xorazmiy shu kabi Toshkentga ham sayohat qilgan bo‘lib, bu to‘g‘ridayam bir nechta hujjatlar va shoirning she’rlari saqlanib qolgan. Shoirga zamondosh bo‘lgan Laffasiyning yozishicha, “Komil parishonhol bo‘lganidin g‘am-u hasratlar tortib, natijada ikki ko‘ziga qora suv kelib, ojiz bo‘lib qoladur. Komil parishon ahvol, ko‘zidan ayrilib, betoblig‘ bistarig‘a bosh qo‘yub, Xiva tabiblarig‘a bir necha muolaja qildirsa-da, hech foyda bermay, balki avvalgidan yamonlashadi. Shul sababli, Komil xondin ruxsat olib, Toshkandg‘a borib ko‘zini do‘xturlarg‘a muoalaja qildiradur. Ammo ko‘zning og‘rig‘i kundan kun shiddatlig‘ bo‘lg‘anda, hech bir natija hosil qilmay, Komil Xivaga qaytib keladur”.

Garchi Toshkentdagagi muoalajalar ham Komil Xorazmiyga unchalik ijobiy ta’sir qilmagan bo‘lsa-da, shahri azimdan u ko‘p tassurotlar oladi. Uni 1891-yilning 5-sentabrida mashhur N.Ostroumovdek o‘qituvchilar seminariyasi direktori uyida mehmon qiladi. Ostroumovning kundaliklarida bu haqda shunday yoziladi: “Suhbat Xiva xususida bordi. Sobiq bosh inspektor Kunni esladik (A.L.Kun 1873-yilgi istiloda qatnashgan Rusiyalik sharqshunos bo‘lib, Xivadan ko‘plab qo‘lyozmalar, xon taxtini Peterburgga olib ketishga boshchilik qilgan – U.B). Kunni mirzaboshi o‘z buyruqlariga salgina qarshilik ko‘rsatgudek bo‘lsa, Xivaning qozikaloni ketidan Sibirga jo‘nataman, deya qutqu soluvchi amaldor sifatida ta’rifladi. Choydan keyin biz mehmonxonaga o‘tdik. Shoir divanda o‘tirib, katta qizimning royal chalishini tingladi. U xivacha hamda forscha kuylarni, “qiz munojoti” va boshqa ba’zi pyesalarni chalib berdi. Qariya musiqani va rus xalqining ba’zi qo‘shiqlarini diqqat bilan, berilib tingladi.”.

O‘sha kungi suhbatda Komil Xorazmiy Ostroumov xonardonida ekanligida “Iki sho‘x” nomli g‘azal yozadi:

Solurdi g‘amza xadangni kamona ul iki sho‘x,
 Mani ul o‘qg‘a qilurlar nishona ul iki sho‘x.
 Ham iki gul kibi bir shoxdin ochilmishlar,
 Qilur navosini ham bulbulona ul iki sho‘x.
 Eshitsa bandasi bo‘lg‘usi Zuhrou yana Bahrom,
 Rubobu chang ila tuzsa tarona ul iki sho‘x.
 Boqib jamolig‘a yuz til bila fig‘on aylar,
 Yetursa ilkini fatrapiyona ul iki sho‘x.
 Qilurda nola araqdin iki yuz bo‘lub gulfom,
 Ko‘zumdin ayladi qon yosh ravona ul iki sho‘x.
 Quchoqlashib bo‘ladur bir-biriga juft andoq,
 Ki toqupo‘sti Iramg‘a dugona ul iki sho‘x.
 Agarchi husnda ma’shuqi ahli olamdur,
 Valek nola qilur oshiqona ul iki sho‘x.
 Parilar erdimukin, uchtilar ko‘zumdin yo,
 Farishta erdimu charxi oshyona ul iki sho‘x.
 Birisi Komil bedilg‘adur base matlub,
 Agarchi xo‘blar ichra yagona ul iki sho‘x.

Komil Xorazmiy shu kabi Toshkentda eski shahar qismining boshlig‘i, keyinchalik 1892-yilgi vabo qo‘zg‘olonining asosiy aybdorlaridan sanalib, Qo‘qon turmasida vafot etgan In’omxo‘ja Umriyoxo‘ja, Muhiddinxo‘ja, Sharifxo‘ja, Sattorxon Abdug‘afur o‘g‘li singari ma’rifatparvarlar ham mehmon qilishgandi.

Ostrooumov Xivalik shoirni Toshkentdagi erlar gimnaziyasiga olib borib, dargohdagi o‘qish jarayoni, kutubxona hamda poytaxtdagi matbaaxona bilan ham tanishtirgan.

Oradan uch yil o‘tib u yana ko‘zini davolatish maqsadida shahri azimga tashrif buyuradi. Bu gal ham Komilning Toshkentdan olgan taassurotlari shunchalik ta’sirli bo‘ldiki, bu safarda ko‘rganlari haqida u “Dar bayoni ta’rif va tavsifi Toshkand” degan qasida ham yozdi. Unda shunday satrlar bor:

Rashvan etgandek sipehr ayvonini sham‘i nujum,
 Shabni ro‘z aylar charog‘oni fanori Toshkand...
 Sayr etarlar anda yuz, ming erkagu qizu juvon,
 Barchasi ilmu xiradda nomdori Toshkand..

Ushbu qasida 1894-yil 8-oktabrda “Turkiston viloyatining gazeti”da nashr etilgan.

Komil Xorazmiy O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib mumtoz kuylarni “nota”ga tushirgan. Dunyo musiqashunosligida “Xorazm tanbur chizig‘i” deya e’tirof etilgan nota yozuvi mumtoz kuylarning zamonlar osha avlodlarga asl holida yetib kelishi uchun asos bo‘lgan. Komil shu singari “murabbai Komil”, “Peshravi Komil” kuylariniyam yaratgan.

Bundan tashqari, xon o‘zi bilan, 1891-yilda esa valiahd shahzoda Asfandiyor to‘ra hamrohligida Rossiya shaharlari, Toshkentni kezgan devonbegi taraqqiyotga erishish, zavod-fabrikalarni ishga tushirish uchun mahalliy kadrlar kerakligini

tushunib yetdi. Shu bois Xivada o‘zi maktabga asos soldi. Komil Xorazmiyning ushbu yangi usulda ta’lim beruvchi maktabida rus tili, musiqa o‘qitilgani uning o‘z davrining zamonaviy ziyyolisi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, u Xivada O‘rtta Osiyoda ilk bor matbaaxona tashkil etish, faoliyatini keng quloch yoydirishga ham hissa qo‘shdi. Komil Xorazmiy matbaaxonada qaysi kitoblar chop etish kerakligini belgilab berardi. Toshbosmadan ilk chiqqan asarni esa, tabiiyki xon hazratlariga ko‘rsatgani saroyga olib borardi. Davlat miqyosida katta vakolati bo‘la turib, u avvalo, Navoiy, Forobiy asarlarini chop qildirdi. Xon va o‘zi yaratgan ijod namunalarini nashr ettirishga intilmadi. Komil Xorazmiy adabiyotning musaddas, masnaviy, ruboiy, muxammas, qasida, g‘azal janrlarida maftunkor she’riy mo‘jizalar yaratdi.

Komil Xorazmiy o‘ynoqi, sho‘x, ayni paytda so‘z javhari sifatida yaratilgan she’rini, oradan yillar o‘tib, Komiljon Otaniyozov “Lazgi” kuyiga matn qilib tanlagan. Ungacha “Lazgi” faqat kuy sifatida ijro etilgandi. Shu tariqa Komil Xorazmiy “Lazgi” kuyining qo‘sniq matnini o‘zi bilmagan holda yarim asr oldin yaratgan shoir sifatida tarixda boqiy qoldi.

Balki bu uning matnlarni “nota” ga tushirgani tufayli berilgan ilohiy in’om bo‘lgandir. Komilning sho‘x g‘azallariga oradan yillar o‘tib adashi – Komiljon Otaniyozov o‘ynoqi musiqa bastalab kuy yaratgandi:

Qaysi falak burjini mehri pur anvorisan,
 Qaysi sadaf durjini gavhari shahvorisan,
 Qaysi Xo‘tan ohusi, nofai totorisan,
 Qaysi chamanzorni lolavu gulnorisan,
 So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?
 Qomatinga bandadur bog‘ aro sarvi ravon,
 La'l labing rashkidin g‘uncha erur bag‘ri qon,
 Chunki chaman sahnida bo‘lsa yuzung gulfishon,
 Nolasin aylar fuzun bulbuli bexonumon,
 So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?
 Ayshu nashot istabon g‘amga duchor o‘lmaq‘on,
 Mehringa dil bastayu zoru nizor o‘lmaq‘on,
 La’li labing shahdig‘a bormu xumor o‘lmaq‘on,
 Dahr aro yo‘qtur sang‘a oshiqi zor o‘lmaq‘on,
 So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?...

Komil Xorazmiy shuningdek tarjimon sifatida XVIII asr adiblaridan Barxurdor bir Mumtoz Turkman Firoqiyning “Qalblar sevgilisi”, Sayfiyning “Latifalar” asarlarini, “Maxfiloro”ning bir, “Ravzat us safo” ning o‘n ikki jildini, “Latifat Tavoif” kitoblarini arab-fors tillaridan tarjima qilgandi.

Har bir davrda, har bir davlatda bo‘lgan saroy o‘yinlari Xiva xonligida ham bo‘lib, Komil Xorazmiy ham guruuhlar ta’qibiga uchragan. Devonbegilikdan iste’foga chiqib, mirzaboshilik qilgan. Biroz muddat o‘tib esa amalni o‘g‘liga topshirib, o‘zini butunlay ijodga bag‘ishladi. Garchi umrining oxirida ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, musiqa asboblarini chalib, Qur’oni karim oyatlarini

qiroat etib o‘tirgan. “Nota” yozuvining qolgan qismini esa o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzo, ijodini esa bobosi kabi shoir, davlat arbobi bo‘lib yetishgan nevarasi davom etdiradi.

Shu tariqa Komil Xorazmiy avlodlarga ulkan boy madaniy meros qoldirib, 1899-yili hayotdan ko‘z yumdi. O‘sha vaqtida u 74 yoshga kirgan edi.



FILOLOGIYA

O'ZBEK ISMLARINING QISQARISHI YUZASIDAN OLIB BORILGAN AYRIM ILMUY ISHLAR TAHLILI

UO'K 520.10



**Ravshan
XUDOYBERGANOV**
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent.



**Sayyora
SAMANDAROVA**
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek ismlarining qisqarishi yuzasidan olib borilgan ayrim ilmiy ishlar tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируются некоторые научные работы по редукции узбекских имен.

Annotation: In this article, some scientific works on the reduction of Uzbek names are analyzed..

Kalit so'zlar: Inson, ism, sheva, fonetika, tilshunislik.

Ключевые слова: Человек, имя, диалект, фонетика, лингвистика.

Key words: Person, name, dialect, phonetics, linguistics.

Ma'lumki, o'zbek tili onomastikasi hozirda ancha rivoj topgan sohalardan biridir. O'zbek onomastikasi tizimi, uning lisoniy va ayrim nolisoniy xususiyatlari endilikda bir qator monografiyalar, tadqiqotlar, risolalar, izohli lug'atlar, ko'p sonli ilmiy maqolalarda tavsiflangan, tadqiq qilingan. Ushbu adabiyotlarning barchasini tahlil qilish biz tadqiq qilayotgan mavzuning doirasi va vazifasiga kirmaydi. Buning ustiga, tilga olingan ishlarning aksariyat qismi bizgacha turli onomastik mavzularda yozilgan tadqiqotlarda tahlil qilingan. Shu sababli biz quyida o'zimiz o'r ganayotgan mavzu, ya'ni onomastik variantlarga aloqador bo'lgan ishlarnigina tanqidiy tahlil qilishni lozim topamiz.

Antroponomik tizimdagi variantdorlik haqida gap ketganda, F.Abdullayevning o‘zbek ismlarining Xorazm lahjasidagi lisoniy xususiyatlari yuzasidan mulohazalarini chetlab o‘tish mumkin emas. Muallif Xorazm shevalaridagi fonetik xususiyatlarni tahlil qilar ekan, kishi nomlarining materialiga murojaat qiladi. Chunonchi: *Me:mmet (Muhammad), Hussian (Husain), Remat (Rahmat), Raman (Rahmon), Patma (Fotima), Xatcha//Xachcha (Xadicha)* [1] kabi.

Xorazm shevalarida kishi ismlarining qisqarishiga doir F.Abdullayev to‘plagan materiallar ismlarning adabiy hamda lahjaviy variantlarini namoyish etuvchi muhim materiallardir. U o‘zining “Xorazm shevalari” nomli monografiyasida “Ba’zi bir kishi otlari va ularning qisqargan formalari”ni keltiradi. Berilgan ro‘yxatda 163 ta ism bo‘lib, har bir nom quyidagi tartibda talqin qilingan.


Ismning shevadagi varianti	Qisqargan shakli	Adabiy tildagi shakli
Abdnyaz	Abdyaz	Abdulniyoz
Abdlla	Abl	Abdulla
Aypashsha	Aynash//Aysh	Oyposhsha
Keri:me	Kermesh	Karima
Metyaqip	Mataq	Muhammadyaqub
Jumesh	Jummi	Jumamurod
Yegembay	Yegg	Yegamboy
Guljan	Gull//Gulsh	Guljon [2] va b.

F.Abdullayev ushbu ishda kishi ismlarining qisqarishidagi qonuniyatlar haqida fikr bildirgan emas, ammo bu masala uning “Kishi otlarining qisqarish usullari” nomli maqolasida talqin qilingan. Maqolada kishi ismlarining Xorazm shevalaridagi qisqarish usullari, bundagi fonetik jarayonlar, ismlarning qisqargan shakllari, qisqargan tiplari xususida asosli mulohazalar aytilgan. [3] Muallifning fikricha, ismlarning qisqarishi shevalardagi fonetik o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Ammo u bunday o‘zgarishlar uchun sabab bo‘luvchi omilni aniq ko‘rsatib bermagan.

Tilshunos A.Ishayev ismlarning qisqarishi o‘rnida “**torayish formalari**” terminini qo‘llaydi va ushbu hodisani talqin qilar ekan, ismlarning qisqarish (torayish) shakllarini tahlil qilgan. Bu formalar kishi nomlarining lahjaviy variantlaridan iboratdir. [4]

Ismlarning mintaqaviy, lahjaviy shakllarini adabiy shaklga nisbatan qiyos qilib qayd etish shevashunoslarning ishlarida epizodik xarakterda uchrab

turadi. Chunonchi, E.Y.O'razov Janubiy Xorazmdagi o'zbek shevalarida ismlarning quyidagi qisqargan variantlari mavjudligini qayd qiladi: *Xude-Xuddi* (*Xudoybergan*), *Ivat* (*Ibodulla*), *Ro'zim*, *Ro'zimat* (*Ro'zimuhammad*), *Atoq* (*Otamurod*), *Ibbi* (*Ibrohim*), *Mataq*, *Matyaqub* (*Muhammadyaqub*), *Jummi*, *Jumyaz* (*Jumaniyoz*), *Nurri* (*Nurposhsha*), *Qummi* (*Qurbanboy*), *Do'kki* (*Durdixonim*), *Matti*, *Matyoz*, *Matniyoz* (*Muhammadniyoz*), *Allam* (*Ollobergan*), *Sappi* (*Safarboy*), *Meshshi* (*Masharif*), *Matti*, *Matqurban* (*Muhammadqurban*) [5] va b.



Adol (*Adolat*) tipi; **-Ulli, Ultuv** (*O'g'ilbibi, O'g'iltug'*) tipi; **-Dilish, Dilash** (*Dilbar*) tipi; **-Atom, Otam** (*Otanazar*) tipi; **Bobom** (*Bobonazar*) tipi va b.

O'zbek tilida kishi ismlarining qisqarish sabablari, ularning hosilalari vokativ kategoriyaga bog'langan holda professor B.O'rino boyevning "Hozirgi o'zbek tilida vokativ kategoriya" nomli ishida tahlil qilingan. B.O'rino boyev o'zbek tilidagi ba'zi nomlarning *Muhammad-Mamat*, *Abdushukur-Abish*, *Gulnora-Gul*, *Xolposhsha-Xolposh* shaklida qisqarishini so'zlashuv nutqidagi

E.Begmatov
kishi ismlarining
qisqargan variantlarini
antroponimiyaning
o'ziga xos
xususiyatlaridan biri
deb biladi va
hodisaning yuzaga
kelishi, bunda ishtirok
etuvchi
qo'shimchalarni
maxsus tahlil qilgan.
Shu munosabat bilan
uning ishlarida ismlar
shakliy variantlarining
ba'zi muhim tiplari
qayd etiladi: **-Sarvi**
(*Sarviniso*) tipi; **-Mat,**
Mamad, **Mad**
(*Muhammad*) tipi; **-**
Sarbish (*Sarviniso*)
tipi; **-Toji** (*Tojiniso*)
tipi; **-Mamash**
(*Mamashukur*) tipi; **-**

vokativlikning natijasi deb biladi. [6] B.O‘rinboyevning fikricha, kishi nomlarining qisqarishi “... so‘zlovchining tinglovchiga yaqinligini, intim aloqasini, kichraytirish, erkalash ma’nosini ifodalaydi”. [7]

Mazkur muallif kishi ismlarining qisqarishi uchun omil bo‘luvchi sabablarni ochishga intilgan. Uning ta’kidlashicha, “... kishi nomlarining qisqarishi murojaatda qulaylik tug‘dirishi orqasidan kelib chiqqan bo‘lishi kerak”. [8] Bundan tashqari, kishi nomlarining qisqarishiga olib keluvchi sabablardan biri dialogik nutqdir [9] yoki “kamsitish ma’nosidagi murojaatdir”. Bu esa sinfiy tengsizlik belgisidir, masalan: ***Eshmat-Eshmamat, Abish-Abdushukur, Sabo-Sabohat***. [10] Muallifning keyingi fikri, albatta, munozarali. Chunki tilga olingan ism shakllari oddiy xalq tilida ham keng qamrovda qo‘llaniladigan hodisadir.

Ismlarning qisqargan variantlari qoraqalpoq tiliga ham xosligi aytilib, O.Sayimbetov quyidagi qisqartmalarni qayd etgan.

Ismning qisqargan shakli	Ismning to‘liq shakli
Shazada	Shaxzada
Tursimurat	Tursinmurat
Sultamurat	Sultanmurat
Ulbosin	Ulbolsin
Qalqaroz	Qalliqoraz
Memmet	Muhammed
Ayimbet	Aymuhammed
Mamit	Mahmud
Gulbiy	Gulbiybi
Bag‘da	Bag‘dagul
Gulay	Gulaysha, Gulayim [11] va b.

O.Sayimbetov qayd qilingan nomlarni adabiy norma va variantdorlik nuqtayi nazaridan baholagan emas.

Umuman, antroponimik variantlarni yuzaga keltiruvchi yetakchi usullardan biri – bu ismlarning qisqarishi (torayishi) hodisadir. Bu holat til (nutq)ning iqtisod qonuni, ya’ni talaffuzda yengillik, ixchamlilik tug‘dirish bilan aloqador. Bizning tahlillarimiz bo‘yicha ismlarning qisqarish variantlari o‘zbek antroponimiyasida quyidagi usullarda yuz beradi:

- a) qo‘shma ismning birinchi qismi tushiriladi, masalan: ***Vahob (Abduvahob), Tolib (Abutolib)***;
- b) qo‘shma ismning ikkinchi qismi tushiriladi, masalan: ***Berdi (Berdirasul), Esh (Eshbo‘lsin)***;

d) ism tarkibidagi biror bo‘g‘in yoki tovush tushiriladi, masalan: *Zaro (Zahro)*, *Zo‘ra//Zavra (Zuhra)*, *Ubduraim (Abdurahim)*, *Isoqali (Is’hoqali)*, *Dilfuz (Dilfuza)* va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Ф. Фонетика Хорезмских говоров. – Ташкент: Фан, 1987. – С. 37, 115, 134.
2. Abdullayev F. O‘zbek tilining Xorazm shevalari. I. – Toshkent: Fan, 1961. – 106-109-betlar.
3. Abdullayev F. Kishi otlarining qisqarish usullari // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. 1960. 3-son. – 34-39-betlar.
4. Ishayev A. Mang‘it shevasida so‘zlarning torayish formalari // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. 1962. 3-son. – 24-28-betlar.
5. O‘razov E.Y. Janubiy Qoraqalpog‘istonidagi o‘zbek shevalari. – Toshkent, 1978. – 29-bet.
6. Begmatov E. O‘zbek ismlari imlosi (Ruscha yozilishi masalalari). – Toshkent, 1972. – 27-bet.
7. Yuqoridagi asar, - 52-bet.
8. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida vokativ kategoriya. – Toshkent: Fan, 1972. – 48-bet.
9. O‘sha asar, – 49-bet.
10. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida vokativ kategoriya. – Toshkent: Fan, 1972.
11. Сайимбетова О.Т. Состав и структура каракалпакских личных имён. Автореф. дисс. – канд. филол. наук. – Нукус. 1998. – С. 11.

FİLOLOGİYA

YODNOMALAR VA ONOMASTIKA



**Doniyor
ТОЖБОЕВ**

**Urganch
innovatsion
universiteti
o‘qituvchisi**

UO‘K 512.140

Annotatsiya: onomastikani o‘rganish Xorazm yodgorliklarining tarixiy ahamiyati va madaniy boyligini ochish uchun juda muhimdir. Markaziy Osiyoda joylashgan Xorazm mintaqaning ko‘p madaniyatli merosini ta’kidlaydigan turli xil nomlarni o‘z ichiga oladi. Xorazm yodgorliklarining onomastik xususiyatlarini o‘rganish orqali biz uning tarixi, an’analari va ijtimoiy dinamikasining murakkab gobelenlari haqida tushunchaga ega bo‘lamiz.

Аннотация: изучение ономастики имеет большое значение для раскрытия исторического значения и культурного богатства памятников Хорезма. Хорезм, расположенный в Центральной Азии, имеет множество названий, подчеркивающих многокультурное наследие региона. Изучая ономастические особенности памятников Хорезма, мы получаем представление о сложном переплетении его истории, традиций и социальной динамики.

Annotation: the study of onomastics is very important for discovering the historical significance and cultural wealth of Khorezm monuments. Located in Central Asia, Khorezm includes a variety of names that emphasize the region's multicultural heritage. By studying the onomastic features of Khorezm's monuments, we gain insight into the complex tapestry of its history, traditions, and social dynamics.

Kalit so‘zlar: onomastika, tilshunoslik, kelib chiqishi, rivojlanish, ismlar, joylar.

Ключевые слова: ономастика, лингвистика, происхождение, развитие, названия, места.

Key words: onomastics, linguistics, origin, development, names, places.

Tilshunoslik sohasida, onomastika to‘g‘ri ismlar, ayniqsa odamlarning ismlari (antroponimlar) va joylar (toponimlar) o‘rganishdir. To‘g‘ri ismlarning kelib chiqishi, tarqalishi va o‘zgarishini o‘rganadigan kishi onomastikdir.

“Onomastika ham keksa, ham yosh intizom”, – deydi Kerol Xough. “Qadimgi Yunonistondan beri ismlar tilni o‘rganishda Markaziy o‘rinni egallab, odamlarning bir-biri bilan qanday muloqot qilishlari va o‘z dunyosini tashkil qilishlariga nur sochib kelmoqda. Boshqa tomondan, ismlarning kelib chiqishini o‘rganish yaqinda bo‘lib, yigirmanchi asrga qadar ba’zi sohalarda rivojlanmayapti va bugungi kunda ham boshqalarda shakllanish bosqichida”.

“Joy nomlarini o‘rganish (toponimiya) geografiya, tarix va tegishli fanlar bilan chambarchas bog‘liq. Shaxsiy ismlarni o‘rganish (antroponimiya) nasabnama, sotsiologiya va antropologiya bilan bog‘liq. Yana bir sub-intizom adabiy onomastika, bu adabiyotda to‘g‘ri nomlardan foydalanishni o‘rganadi va ko‘pincha, badiiy adabiyotdagи belgilar nomlariga e’tibor beradi (characteronyms).

Onomastikaning asosiy talabi konsepsiaga tegishli ba’zi asosiy atamalarni aniqlashtirishdir. Tasodifiy foydalanishda to‘g‘ri ismlar va katta harflar ko‘pincha bir xil narsa sifatida qabul qilinadi. Biroq bu taxmin yo‘ldan ozdirishi mumkin, chunki uchta ibora qisman bir-biriga mos keladigan uch xil narsaga ishora qiladi.

Onomastika mashhur nomlarni olgan obyektlar toifalariga ko‘ra quyidagi bo‘limlardan iborat: antroponimika – odamlarning mashhur ismlari; toponimiya-geografik obyektlarning mashhur nomlari; te-onimika – turli diniy g‘oyalarga ko‘ra xudolar, ma’budalar, diniy-afsonaviy shaxslar va mavjudotlarning nomlari; zoonimika – berilgan ismlar hayvonlar uchun (shartli); kosmonomika – kosmik mintaqalar nomlari, galaktikalar, burjlar va boshqalar, astronomiya – ba’zi samoviy jismlar (sayyoralar va yulduzlar)ning nomlarini o‘rganadi.

Yuqoridagilardan tashqari, onomastika bir nechta boshqa bo‘linmalarga ega. Onomastika haqiqiy nomlarni realonimlarga (mavjud yoki mavjud obyektlarning nomlari) va mifonimlarga (xayoliy narsalarning nomlari) ajratadi.

Onomastika mashhur nomlarning lingvistik xususiyatlari qarab adabiy va dialektal, odatiy (amaliy) va she’riy, zamonaviy va tarixiy, nazariy va amaliy turlarga bo‘linadi.

Nazariy onomastika til va nutqda, adabiy va dialektal sohalarda mashhur nomlarning paydo bo‘lishi, nominatsiya (nomlash) asoslari, rivojlanishi, ushbu jarayondagi turli xil o‘zgarishlar, ularning nutqda ishlatilishi, ayrim mintaqalar va tillarda tarqalishi va ularning tarkibiy tuzilishini o‘rganadi.

Badiiy matnlarda she’riy nomlarni o‘rganish (she’riy onomastika) alohida muammo hisoblanadi. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, tarkibiy, genetik, areal, onomastik xaritasi usullardan foydalanish, fonetik, morfologik, so‘z shakllanishi, semantik, etimologik va hokazo jihatlarni o‘rganadi.

Amaliy onomastika: chet tillariga tegishli nomlarning transkripsiyasi va transliteratsiyasi, an’anaviy (talaffuzi va imlosi bo‘yicha), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, “chet el” nomlarini o‘z tilida yozish bo‘yicha ko‘rsatmalar tayyorlash, chet tillaridan olingan ismlardan yangi

so‘zlarni yaratish bilan, ismlarni berish va o‘zgartirish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Onomastika tarix, arxeologiya, nasabnama, geraldika, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, astronomiya, demografiya kabi fanlar bilan o‘zaro bog‘liqdir. Antroponimlar til tizimining muhim qismi sifatida milliy ong va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishining o‘ziga xosligini aks ettiradi.

Antroponimlarning semantikasi otning asosiy differensial belgisi sifatida taqdim etilgan havola nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Har qanday til tizimining eng qadimgi birliklari sifatida tegishli otlar eng qiziqarli va murakkab lingvistik universallardan biridir.

Ilmiy adabiyotlarda shu kungacha mashhur ot-antroponimning tabiatiga oid barcha lingvistik, semantik, kognitiv, pragmatik, madaniy ta’riflar u yoki bu darajada munozarali hisoblanadi.

Tilshunoslikda, shu jumladan, fransuz tilshunoslida antroponimlarning semantik tuzilishini aniqlashdagi qiyinchiliklar antroponimlar haqida “noto‘g‘ri”, til tizimining chekkasida joylashgan to‘liq leksik qiymatga ega bo‘lmagan birliklar haqida keng tarqalgan fikrga olib keldi va shunga mos ravishda ular lingvistik tahlil predmeti sifatida unutildi. Shuning uchun antroponimlar – antroponimika fani uzoq vaqt davomida rivojlanib, tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan ajralib chiqdi va tilning nom fondini tarixiy, etimologik va mintaqaviy jihatlarda tavsifladi.

To‘g‘ri, antroponimlarning lingvistik tabiatini o‘rganish bilan bog‘liq murakkab nazariy masalalar vaqtি-vaqtি bilan ko‘tarilgan, ammo ularning aksariyati tushuntirishsiz qolmoqda. Buning sababi shundaki, antroponimning ma’nosи metodologik va falsafiy darajada hal qilinmagan.

Mashhur ismlar katta miqdordagi semantik va hissiy tarkibni maxsus ixcham shaklda yetkazish imkoniyatini beradigan til vositalaridan biridir. Ismlar bilan bog‘liq bo‘lgan ramzlar, tasvirlar va uyushmalar tizimini ochish otlarning lingvistik tabiatining o‘ziga xos jihatlarini tashkil etadi. Taniqli ismlar – bu ism funksiyasini bajaradigan, shaxslar va shaxslarni tildagi boshqa shunga o‘xshash narsalar va hodisalardan ajratib turadigan alohida otlar guruhi.

Antroponim bitta obyektni bildiruvchi lingvistik birlik sifatida faqat keng ma’noga ega degan fikr mavjud. Biroq otlarda ma’no mavjudligini tan olgan tadqiqotchilar ism semantikasining konseptual jihat haqidagi tezisni qo‘llab-quvvatlaydilar. Shu bilan birga, Xorazm yodnomalarida antroponimning muhim ma’nosи otlarning ma’lum bir sinfga mansubligini aks ettiruvchi kategorik-mavhum ma’no sifatida talqin etiladi.

Masalan, odamlarning ismlari uchun muhim ma’no “shaxs” (erkak/ayol) umumiyl tushunchasini amalga oshirish bilan cheklanadi. Shunday qilib, ushbu yondashuvda predmet-mantiqiy ma’noning ahamiyati tan olingan bo‘lsa-da, shuni ta’kidlash kerakki, u tabiatan juda mavhum.

Antroponimik semantikada bitta otning ma’nosи, shubhasiz, asosiy ma’no hisoblanadi. Bu haqiqat real mavjudotdagi aniq yagona obyekt yoki aqliy tasvir bilan faktik bog‘liqligi bilan oldindan belgilanadi.

Bu antroponim va referent o‘rtasidagi yaqin bog‘liqlik antroponimning obyekt bilan o‘zaro bog‘liqligini kengaytirish uchun zamin tayyorlaydi. Umumlashtirilgan ma’noga ega bo‘lish xususiyati antroponimlarga xosdir, ular birinchi navbatda o‘ziga xos denotatsiyalar bilan bog‘liq.

Bu xususiyat ism va ma’lum bir shaxs o‘rtasidagi aniq va kuchli aloqalarga va shunga mos ravishda ushbu shaxsning ajralib turadigan xususiyatlari orqali paydo bo‘ladigan barcha doimiy uyushmalarga asoslanadi. Muayyan shaxs bilan bog‘liq bo‘lgan uyushmalarning qat’iyligi ushbu shaxsning ismini ushbu ismning birinchi egasi bilan bir xil xususiyatlarga ega bo‘lgan odamlarga o‘tkazishga imkon beradi.

Korazm shahrida shaxsiy ismning bunday umumlashtirilgan ishlatilishi natijasida nom bilan ifodalangan tushunchaning xarakteri o‘zgaradi. Kategorik-mavhumlikdan apellyatsiyaga yaqinlashadi. Ushbu maqolada biz umumiylarning “o‘zgartirilmagan” ishlatilishida havola omilining o‘rnini aniqlashga e’tibor qaratamiz.

Chunki antroponimlarning “metaforik ishlatilishi” dan farqli o‘laroq, ularning “namunali ishlatilishi” aksariyat hollarda taqlid va turli talqin vositalari bilan ko‘rsatiladi.

Ushbu holatlarni o‘rganish shaxsiy ism va familiyalardan “namunali foydalanish” tasnifini yanada takomillashtirish, inshootlarning “kichik oilalarini” guruhash imkonini beradi. Fransuz antroponimlarining tipik yoki o‘zgartirilmagan ishlatilishi matnda un NP qurilishi shaklida uchraydi.

Ushbu qurilishda BMT(e) tomonidan belgilangan ergash ism standart yoki aniqlanmagan foydalanishda bo‘lgani kabi odatiy yoki “birlamchi” referentni ko‘rsatishda davom etmaydi. Biz to‘g‘ri otlarda boshqa modifikatorlar bo‘imasligi kerak degan taklif bilan rozi bo‘la olmaymiz, chunki bizda bu taklif asossiz ekanligini ko‘rsatish uchun yetarli lingvistik faktlar mayjud.

Ism va familiyani ishlatishda noaniq maqolaning mavjudligi va uning asl egasiga havola ko‘plab muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Bunday foydalanishda antroponim bir vaqtning o‘zida ham o‘zgartirilishi, ham o‘zgartirilmasisi mumkin.

Semantik referensial talqinlar asosida, bizning fikrimizcha, bunday noaniqlikka chek qo‘yish mumkin bo‘ladi. Modal foydalanishdagi to‘g‘ri ism bu ismning dastlabki referentini anglatadi, faqat metaforik ishlatishdagi antroponim boshqa referentni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, namunali foydalanish – bu ma’lumotnomasiz foydalanish va metaforik foydalanish kurtaklarini hosil qiladi.

Ko‘pincha, ba’zi konstruksiyalar bizga namunali foydalanishni tavsiflovchi asosiy noaniqlikni ko‘rishga imkon beradi.

Kontekstda namunali foydalanish va metaforik foydalanish o‘rtasidagi chegarani ko‘rsatadigan bunday konstruksiyalar qatoriga qiyosiy konstruksiyalarni kiritish mumkin.

O‘zbek onomastikasi keyingi yillarda lingvistikaning alohida sohasi sifatida rivojlandi, sohaning o‘z tadqiqotchilari yetishib chiqdi. Tarixiy onomastikaning nazariy masalalari, obyektlar nomlarini hududiy jihatdan tadqiq etishga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar paydo bo‘lyapti. Shunday bo‘lsada, Xorazm viloyati tarixiy onomastikasi materiallari yetarli darajada tadqiq qilinmagan.

Xorazm viloyati tarixiy onomastik birliklari va ularni o‘rganish muammolari xususida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo, tarixiy onomastik birliklar o‘z xususiyatlarga egaligini aytib o‘tishimiz lozim. Tarixiy onomastik birliklar jar, tepalik, qir, buloq, quduq, hovuz, jilg‘a, soy, ariq, dala, dasht, o‘tloq, mahalla, guzar, ko‘cha singari mayda obyekt nomlarining atoqli otlarini o‘zida mujassamlashtiradi: Shovotyop, Qozoqovul, “Avesto”, Chingizning qiri kabi.

Tarixiy onomastik birliklar tilda tez-tez almashinib turmasligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, tarixiy onomastik birliklar qanday va qaysi tipdagи obyektning nomi ekanligini anglatishi jihatidan bir necha turga – oykonimlar (yunoncha oykos – “uy”, “turar joy” ma’nosini anglatib, tarkibiga qishloq, posyolka, ovul, mahalla, guzar, ko‘chalarning nomlari kiradi), polisonimlar (shahar nomlari), gidronimlar (suv obyektlari nomlari), oronimlar (yer yuzasining relyef nomlari) kabilarga bo‘lib o‘rganiladi.

To‘plangan tarixiy onomastik birliklar nomlanish tamoyillari, lisoniy o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi omillar, tarixiy onomastik birliklarning tiplari va alohida semantik guruhlarga mansub nomlarning shakllanish motivlari, hudud tarixiy onomastik birliklarining o‘zaro munosabati, turli tipdagи nomlarning statistik va areal tadqiqi, viloyat mikrotponimiyasi uchun xarakterli bo‘lgan lingvistik modellari bo‘yicha tadqiq qilinishi lozim.

Xorazm viloyati tarixiy onomastik birliklarini statistik usuldan va kompyuterdan foydalanilib, tarixiy onomastik birliklarning umumiy miqdori, takror qo‘llanishi, bundagi faol va nofaol modellarni belgilash lozim. Tarixiy onomastik birliklar monitoringi hozirgacha yaratilmadi. Endi bu ishni amalgamoshirish vaqt keldi deb hisoblaymiz.

Ma’lumki, tarixiy onomastik birliklarning nomi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Bu hodisa aholi punktlari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayoti, turmush darjasini bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy o‘zgarishlar ko‘proq ko‘cha nomlarida aks etadi.

Tarixiy onomastik birliklarni lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish necha ming yillar davomida Xorazm viloyati hududida yashab kelayotgan xalqning ma’naviy merosi va madaniy mulki bo‘lib hisoblangan bu boylikning asrlar osha saqlanib qolishiga ko‘maklashadi.

Shu bilan birga, to‘plangan va endilikda to‘planajak materiallar hudud tarixiy onomastik birliklari izohli lug‘atining yaratilishiga ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xorazm onomastik tizimining shakllanishi g‘oyat murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki, bugungi kundagi Xorazm hududi turli urug‘-qabilalar, turli genetikaga ega tillar bir-biri bilan aralashgan, to‘qnashgan makondir. Bu, albatta, toponimikada, umuman, onomastik tizimda o‘z aksini qoldirmay iloji yo‘q.

Xorazm vohasi hududida uzoq asrlar davomidagi tarixiy jarayonda tili jihatidan turli tillar oilasiga kiruvchi va turli manbaga bog‘lanuvchi kishilarning yashagani ma’lum.

Bu, shubhasiz, hozirgi Xorazm shevalari (va umuman turkiy tillarning ko‘pchiligida) leksikasida xususan, tarixiy toponomiyasida o‘z aksini qoldirgan. Darhaqiqat, mazkur hudud o‘zining geografik sharoiti bilan turli etnogenetik va madaniy aloqalarning to‘qnashgan, aralashgan o‘rni bo‘lgan.

Xorazm vohasining g‘arb va sharq mamlakatlarini bir-biri bilan bog‘lovchi yo‘lda joylashganligi va boshqa tarixiy-siyosiy sharoitlar bu yerda bir tomondan Ural, Volgabo‘yi va G‘arbiy Sibir xalqlarining, ikkinchi tomondan O‘rta Osiyo, Eron, Old Osiyo, Zakavkazye xalqlari va boshqa tomondan Hindiston etnik guruuhlarining tili, madaniyati aralashuviga, to‘qnashuviga sabab bo‘lgan.

Haqiqatdan ham Xorazm aholisining etnik tarkibi o‘tmishda juda murakkab va xilma-xil bo‘lganligi, ayniqsa, bu xususiyat uning janubiy qismida juda yorqin saqlanganligi ko‘pgina tarixiy etnografik asarlarda qayd etilgan.

Mahalliy tekshiriladigan onomastik birliklarga e’tibor qaratish uchun sarflangan vaqt davomida ularning nomlash standartlari, fonetik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan omillar, hududda tarqalgan ismlar turlari va alohida semantik guruuhlar bilan joy egallagan ismlarning rivojlanishidagi fikrlash jarayonlari muhimdir.

Masalan, ma’lum bir narsaga nom berishga urg‘u berish, nomlash tizimidagi turli ekstralengvistik holatlarning ishi, toponimik yasashning mavjudligi, o‘zbek so‘z yasalishi qonunlaridan foyda ko‘rishiga qaramay, o‘z rivojlanishi uchun texnikaning mavjudligi, sotsiolingvistik o‘zgaruvchilarning o‘zgarishi mumkin.

Taxallus holatidan onomastik holatga qadar biror narsa, ismlarning turg‘unligi nuqtai nazaridan turg‘unlik va titroq, shu jumladan B.A.Serebrennikov: “Ismlar g‘alati turg‘unlikka ega bo‘ladi. Biz odamlar guruuhlari va lahjalari sayyorada g‘oyib bo‘ladi, deb rozi, va nomlari dastak bir savdo belgisi nomi bilan Kiyos yo‘lida turli odamlar guruuhlari tomonidan so‘rilishi mumkin, va bu yo‘llar bilan ming yillar davomida himoyada”.

O‘lchovlar shuni ko‘rsatadiki, to‘rtta elementdan bitti antroponom, antrooykonim va teotoponim, fonetik komponentlar bilan, masalan, antroponom, etnonim tekshiriladigan onomastikada, muhim onomastik birliklar sifatida

ko‘rinadigan bo‘lishi kerak. Tumanning tekshiriladigan onomastikasida asosiy qurilma ot leksemalari, shu jumladan, antroponimlar ekanligi ishlab chiqilgan.

Soni 500 tacha atrofida bo‘lgan ushbu komponentlar mintaqaga nomlarining to‘rtadan bir qismidir. Bu odamlar keyin obyektlar nomlanishi kunlaridan boshlab bosh Osiyo odamlar guruhlari orasida bir amaliyot ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ular asosan Yamaqlar, masjidlar, bolalar bog‘chalari, dalalar, ibodat joylari, qabristonlar bu nomning asosini tashkil qilgani seziladi.

Xorazm yodnomalari onomastikasi til xazinasiga bo‘lib xizmat qiladi va mintaqaning jonli o‘tmishini aks ettiradi. Fors, Arab va turkiy madaniyatlar ta’sirida bo‘lgan son-sanoqsiz nomlar orqali biz Xorazm tarixining serqirra tabiatiga guvoh bo‘lamiz. O‘tish so‘zлari, faol ovoz, jumla xilma-xilligi va paragraf uzunligini boshqarish kabi turli xil lingvistik uslublardan foydalana olamiz. Xorazmning onomastik xilma-xilligini o‘rganish orqali biz uning madaniy mozaikasi va bizga bergen merosini chuqurroq anglaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Авлақулов Я.И. Ўзбек антропонимлари хакида// Личностно ориентированный подход к современному обучению. - Ташкент, 2008. - Ч.10. - С.134-138.
2. Дўсимов З. Топоними Северного Хорезма: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – 22 с.;
3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.– В.89.
4. Ильичевск Э. Аней асарларида антропонимларнинг стилистик хусусиятлари // Узбек тили а адабиёти, 1978, 4-сон, -Б.72-76.
5. Ilichev E. O‘zbek tili onomastikasi. O‘quv qo‘llanma - T.: 2005. 58-b.
6. Alaudinova D.R., Shirinkulova S.M. TRANSLATING PROBLEMS OF MEDICAL ENGLISH TERMS //Преподавание классических языков в эпоху глобальной информатизации. - 2019. - С. 176-178.
7. Мирзоева Ф.С. НАУЧНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ИННОВАЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА //Academic research in educational sciences. - 2021. - Т. 2. -№. 10. - С. 694-698.

MATEMATIKA**YASSI KANALDA REOLOGIK MURAKKAB
SUYUQLIKLARNING TEBRANMA OQIMI**

**Kuralbay
NAVRUZOV**
**Urganch davlat
universiteti
professori**



**Nabijon
ABDIKARIMOV**
**Urganch davlat
universiteti
doktoranti**



**Qudrat
XAYITBOYEV**
**Urganch davlat
universiteti
o'qituvchisi**

UO'K 532.516

Annotatsiya: ushbu maqolada yassi kanalda reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimi o'rganilgan bo'lib, bunda reologik murakkab suyuqlik Maksvell modeli asosida va uning aralashmasi esa Nyuton suyuqligi modeli sifatida olingan. Har ikkala suyuqlik aralashmasi ikki komponentli suyuqlikning gomogen modeli shaklida ifodalangan. Bunda gomogen suyuqlik aralashmalarining harakat differential tenglamalari tuzilib, yassi kanalda tebranma oqimi masalasi analitik usulda yechilgan. Yechimda tezlik profillarini aniqlash uchun formulalar keltirib chiqarilgan. Keltirib chiqarilgan formulalar yordamida tezlik profillarining kanal ko'ndalang kesimi bo'yicha taqsimlanish grafiklari tebranish chastotasi parametrining o'zgarishiga bog'liq ravishda aniqlangan va ular yordamida tegishli xulosalar keltirilgan.

Аннотация: в статье рассматривается колебательный поток реологически сложных жидкостей в плоском канале, в котором реологически сложная жидкость была получена на основе модели Максвелла, а ее смесь описывается на основе модели ньютоновской жидкости. Обе смеси жидкостей представлены в виде гомогенной модели двухкомпонентной жидкости. При этом приводятся дифференциальные уравнения движения однородных жидкких смесей. На основе этой уравнений аналитически решается задача о колебательном течении реологически сложных жидкостей в плоском канале. При решении приведены формулы для определения продольной скорости. С помощью полученных формул определяют графики распределения продольной скорости по поперечному сечению канала в зависимости от изменения параметра частоты колебаний, и с их помощью делают соответствующие выводы.

Annotation: the article examines the oscillatory flow of rheologically complex fluids in a flat channel, in which the rheologically complex fluid was obtained based on the Maxwell model, and its mixture is described based on the

Newtonian fluid model. Both mixtures of liquids are represented as a homogeneous model of a two-component liquid. In this case, differential equations of motion of homogeneous liquid mixtures are given. Based on this equation, the problem of oscillatory flows of rheologically complex liquids in a flat channel is solved analytically. When solving, formulas are given for determining the longitudinal velocity. Using the obtained formulas, graphs of the longitudinal velocity distribution over the cross section of the channel are determined depending on the change in the oscillation frequency parameter, and with their help, appropriate conclusions are drawn.

Kalit so‘zlar: elastik, yopishqoq, Nyuton modeli, Maksvell modeli, tebranish chastotalari, yassi kanal.

Ключевые слова: упругой, вязкой, модель Ньютона, модель Максвелла, частоты колебаний, плоский канал.

Key words: elastic, viscous, Newton's model, Maxwell's model, vibration frequencies, flat channel.

Texnik va texnologik jaraenlarda kanal va quvurlardan tebranma oqim hosil qilib oqib o‘tuvchi suyuqliklar harakati, suyuqliklarning reologik xossalariga bog‘liq bo‘lib, u ba‘zi hollarda noananaviy gidrodinamik xodisalarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu boisdan ushbu maqolada yassi kanalda reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimi haqidagi konkret masala yechiladi. Bunda asosiy maqsad, reologik murakkab suyuqliklarning harakatini soddalashtirilgan matematik modellar asosida tadqiq etish va olingan natijalarni xususiy xolda Nyuton suyuqligi tebranma oqimidagi mavjud gidrodinamik qonunyatlar bilan solishtirish va natijada, undan farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlab, reologik murakkab suyuqliklarning gidrodinamik xarakteristikalariga bog‘liq bo‘lgan yangi gidrodinamik effektlarni yaratishdan iboratdir.

Ma’lumki, suyuqliklar oqimida o‘tish jarayonlari paydo bo‘lmaydigan statsionar tebranma oqimlar fanda, qishloq xo‘jaligining suyuqlik harakati bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarida va texnologik jarayonlarda alohida qiziqish uyg‘otadi. Bunday jarayonlarda suyuqlik harakati statsionar rejimda ro‘y bersa ham tebranma harakat mavjudligi sababli, qaralayotgan jarayon vaqtning davriy funksiyasidan iborat bo‘ladi. Bu holda suyuqlikning tebranishlari har bir davrida bir xil holatda ro‘y beradi deb qaraladi. Shuning uchun ham suyuqlikning tebranma oqimiga oid masalalarini yechishda, vaqtning davriy funksiyalardan foydalanish mumkin, bu xususiyat reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimini ifoda qiluvchi differensial tenglamalar sistemasini yechishni ancha osonlashtiradi va bunday hollarda differensial tenglamalar sistemasini yechish uchun boshlang‘ich shartlarni qo‘yish talab qilinmaydi.

Kanal va quvurlardagi tebranma oqimlar [1-6] tadqiqot ishlarida Nyuton suyuqligi sifatida qaralgan holatlari yetarlicha tadqiq qilinishiga qaramasdan,

reologik murakkab suyuqliklarning bu sohadagi oqimlariga juda kam tadqiqot ishlari bag‘ishlangan. Bu sohada reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimiga Maksvellning umumlashgan modellarini qo‘llash orqali olib borilgan tadqiqot ishlar esa yetarli darajada emas. Ma’lumki, Maksvellning umumlashgan modellari suvda eritilgan polimer eritmalar, loyqa suv aralashmalari, neft mahsulotlari, va boshqa shunga o‘xshash suyuqliklarning tebranma harakatini xarakterlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan ushbu maqolada Maksvellning umumlashgan modellari asosida yassi kanallardagi reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimlari masalalari tadqiq qilinadi.

1. Masalaning qo‘yilishi va yechish metodikasi. Masalani shakllantirishda yassi kanal devorlar orasidagi masofa $2h$, kanal uzunligi L deb belgilanadi. Bu yerda L yetarlicha katta bo‘lib, bunda $h/L \ll 1$, shart bajarilishi taxminlanadi. Bunday hollarda oqim stabillashgan bo‘lib ko‘ndalang tezlik qiymati nolga teng bo‘ladi. Kanal o‘qlari esa quyidagicha aniqlanadi, x o‘qi kanal o‘rtasi bo‘ylab, gorizontal yo‘nalish bo‘yicha yo‘naltiriladi va bo‘ylama o‘q deb ataladi, y o‘qi esa x o‘qiga perpendikulyar qilib vertikal yo‘nalishda olinadi va vertikal o‘q deb yuritiladi. Bosim gradientining vaqt bo‘yicha sinusoyidal ko‘rinishda o‘zgaraishi quyidagicha aniqlanadi

$$\left(-\frac{\partial p(t)}{\partial x} \right) = \left(-\frac{\partial p_0}{\partial x} \right) + \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x} \right) \cos \omega t \quad (1)$$

Bu yerda $\left(-\frac{\partial p_0}{\partial x} \right)$ - statsionar oqimdagи bosim gradienti; $\left(-\frac{\partial p_1}{\partial x} \right)$ -tebranma oqimda tebranish amplitudasining o‘zgarishini ifoda qiluvchi bosim gradienti; ω - tebranish chastotasi; t -vaqt.

Reologik murakkab suyuqlikning tebranma harakat differensial tenglamalari sistemasi, soddalashtirilgan harakat differensial tenglamalar sistemasi ko‘rinishda quyidagicha ifodalanadi [7-9]

$$\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial t} = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial x} + \frac{1}{\rho} \frac{\partial \tau}{\partial y}, \quad \frac{\partial p}{\partial y} = 0, \tau = \tau_s + \tau_p, \\ \tau_s = \eta_s \frac{\partial u}{\partial y}, \quad \lambda \frac{\partial \tau_p}{\partial t} + \tau_p = \eta_p \frac{\partial u}{\partial y}, \eta = \eta_s + \eta_p \end{cases} \quad (2)$$

Belgilashlar [7-9] ishlardagi kabi. Oqim yassi kanal bo‘ylama o‘qi bo‘yicha simmetrik bo‘lganligi uchun chegaraviy shartlar quyidagicha shakillantiriladi:

$$y=h \text{ да } u=0, \quad y=0 \text{ да } \frac{\partial u}{\partial y}=0 \quad (3)$$

Ushbu masalada suyuqlikning stabillashgan tebranma oqimi qaralayotganligi uchun boshlang‘ich shartlar talab qilinmaydi. Umumiyl holda (1) bosim gradientining o‘zgarishini kompleks ko‘rinishda berish mumkin, bunda uning real qismi masala yechimini ifodalaydi

$$\left(-\frac{\partial p(t)}{\partial x}\right) = \left(-\frac{\partial p_0}{\partial x}\right) + \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x}\right) e^{i\omega t}.$$

Bosim gradienti ikkita qismdan, yahni birinchi qismi o‘zgarmas, ikkinchi qismi esa vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi davriy funksiya yordamida aniqlanadi. Shu boisdan (2) tenglamaning yechimi quyidagi ikkita funksiyalar yig‘indisi shaklida izlanadi. Tenglamalarning birinchi hadlari statsionar oqimdagagi tezliklarni, urinma kuchlanish va bosim o‘zgarishini, ikkinchisi esa tebranma oqimdagagi tezliklarni va urinma kuchlanish va bosim gradienti o‘zgarishini ifoda qiladi

$$u = u_0(y) + u_1(y)e^{i\omega t}, \tau = \tau_0(y) + \tau_1(y)e^{i\omega t}, \frac{\partial p(t)}{\partial x} = \frac{\partial p_0}{\partial x} + \frac{\partial p_1}{\partial x}e^{i\omega t} \quad (4)$$

Bu holda yechimning birinchi hadiga mos keluvchi yechimlar, statsionar oqim holatini belgilovchi yechimlar, ikkinchi hadining haqiqiy qismiga mos keluvchi yechimlar esa tebranishlar sodir bo‘ladigan oqimni xarakterlovchi yechimlar bo‘ladi. Bu yondashuvga asosan reologik murakkab suyuqlikning vaqtga bog‘lik bo‘lmagan statsionar oqimini tadqiq qilishda, reologik mrakkab suyuqlik Nyuton suyuqligiga aylanishini takidlash lozim. Shu boisdan suyuqlikning statsionar oqimi Puazeyl oqimididan iborat bo‘ladi. Reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimlari, (4) almashtirishlardagi noma'lumlarning ikkinchi hadlariga mos keluvchi (2) differensial tenglamalar sistemasi quyidagi ko‘rinishga keladi

$$\begin{cases} i\omega u_1 = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p_1}{\partial x} + \frac{1}{\rho} \frac{\partial \tau_1}{\partial y}, \tau_1 = \tau_s + \tau_p, \tau_s = \eta_s \frac{\partial u_1}{\partial y}, \\ i\lambda\omega \tau_p + \tau_p = \eta_p \frac{\partial u_1}{\partial y}, \eta = \eta_s + \eta_p \end{cases} \quad (5)$$

Chegaraviy shartlar esa quyidagicha aniqlanadi:

$$y = h \text{ да } u_1 = 0, y = 0 \text{ да } \frac{\partial u_1}{\partial y} = 0 \quad (6)$$

Hosil qilingan (5) tenglamalar sistemasidagi ikkinchi tenglamadan beshinchi tenglamagacha bo‘lgan tenglamalardan foydalanib, urinma kuchlanishni aniqlash uchun ushbu ko‘rinishdagi tenglamani hosil qilihamiz:

$$\tau_1(y) = \eta \left(\frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} \frac{1}{1 + i\omega\lambda} \right) \frac{\partial u_1}{\partial y}. \quad (7)$$

Urunma kuchlanishning topilgan (7) qiymatini (5) tenglamalar sistemasining birinchi tenglamasiga qo‘yish natijasida ushbu tenglama hosil qilinadi:

$$\frac{\partial^2 u_1}{\partial y^2} - \frac{\rho i\omega}{\eta \eta * (i\omega)} u_1 = \frac{1}{\eta \eta * (i\omega)} \frac{\partial p_1}{\partial x}. \quad (8)$$

Bu yerda

$$\eta^*(i\omega) = \left(\frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} \frac{1}{1+i\omega\lambda} \right) = \left(X_1 + Z_1 \frac{1}{1+i\omega\lambda} \right)$$

Aniqlangan (2.8) tenglamaning bir jinsli qismining fundamental yechimlari

$$\cos(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}) \text{ va } \sin(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}})$$

funksiyalardan iborat bo'lib, bir jinsli qismining umumiy yechimi quyidagi ko'rinishda topiladi:

$$u_1(y) = C_1(x) \cos(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}) + C_2(x) \sin(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}). \quad (9)$$

Tenglamaning bir jinsli bo'Imagan qismi o'zgarmas bo'lganligi sababli, uning yechimi ushbu ko'rinishda axtariladi:

$u_1^* = A$, bu xolda $\frac{\partial^2 u_1^*}{\partial y^2} = 0$ bo'lib, (8) tenglamaning bir jinsli bo'Imagan qismi yechimi $u_1^* = \frac{1}{\rho i\omega} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x} \right)$ bo'ladi. Bularni e'tiborga olgan holda masalaning umumiy yechimi quyidagicha aniqlanadi

$$u_1(y) = C_1(x) \cos(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}) + C_2(x) \sin(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}) + \frac{1}{\rho i\omega} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x} \right) \quad (10)$$

Topilgan (10) yechimdagagi noma'lum integral koeffitsiyentlar (6) chegaraviy shartdan topiladi. (10) yechimning har ikkala tomonidan y bo'yicha hosila olib uni nolga tenglasak $C_2 = 0$ ekanligi kelib chiqadi. $y = h$ bo'lganda esa $u_1(x, h) = 0$ bo'lib, bu shartdan C_1 koeffitsiyent topiladi.

$$C_1 = -\frac{1}{\rho i\omega} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x} \right) \frac{1}{\cos(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{h}{h}})} \quad (11)$$

C_1 va C_2 -koeffitsiyentlarning qiymatlarini (10) yechimga qo'yish natijasida, ushbu yechim hosil qilinadi:

$$u_1(y) = \frac{1}{\rho i\omega} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x} \right) \left(1 - \frac{\cos(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}})}{\cos(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{h}{h}})} \right) \quad (12)$$

$$\text{Bu yerda } \alpha_0 = \sqrt{\frac{\omega}{\nu}} h, \nu = \frac{\eta}{\rho}.$$

Topilgan (12) yechim uchun (4) dan foydalanib, quyidagicha yakuniy

yechim aniqlanadi:

$$u_1(y,t) = \frac{h^2}{\eta} \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x} \right) \left[\text{real} \left[\frac{1}{i\alpha_0^2} \left(1 - \frac{\cos \left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \frac{y}{h} \right)}{\cos \left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)} \right) e^{i\omega t} \right] \right] \quad (13)$$

Tezlik uchun hosil qilingan (13) yechimni, uning statsionar holatdagi maksimum tezligiga bo‘lish natijasida, ushbu ko‘rinishdagi o‘lchamsiz holdagi yechim topiladi:

$$\frac{u_1(y,t)}{u_{1\max}^0} = 2 \left(-\frac{\partial \bar{p}_1(x)}{\partial x} \right) \text{real} \left[\frac{1}{i\alpha_0^2} \left(1 - \frac{\cos \left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \frac{y}{h} \right)}{\cos \left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)} \right) e^{i\omega t} \right] \quad (14)$$

Bu yerda $\left(-\frac{\partial p_1}{\partial x} \right) / \left(-\frac{\partial p_{10}}{\partial x} \right) = -\frac{\partial \bar{p}_1}{\partial x}$, $u_{1\max}^0 = \frac{1}{2\eta} \left(\frac{p_1^0 - p_1^L}{L} \right) h^2$. - Nyuton suyuqligi statsionar oqimning maksimal tezligi.

2. Sonli hisob natijalari va tahlili. Reologik murakkab suyuqlikning yassi kanaldagi tebranma oqimi masalasini yechish natijasida topilgan (14) formula kompleks o‘zgaruvchini o‘z ichiga olganligi sababli uning haqiqiy va mavhum qisimlarini ajratish zarur bo‘ladi

$$\frac{u(y,t)}{u_{0\max}} = \left(1 - \frac{y^2}{h^2} \right) + 2\Lambda W \quad (15)$$

Bu yerda o‘ng tomondagi birinchi had $\left(1 - \frac{y^2}{h^2} \right)$ – tezlikning statsionar tashkil etuvchisi, ikkinchi had ΛW esa tebranma oqimdagagi tezlikning o‘zgarishini aniqlovchi kattalik bo‘ladi, bu yerda $\Lambda = \left(-\frac{\partial p_1}{\partial x} \right)$. W ifodaning haqiqiy qismini ajratish orqali, u ushbu ko‘rinishga keltiriladi:

$$2W = 2 \frac{\sin \omega t}{\alpha_0^2} - \frac{2}{\alpha_0^2 (\bar{A}^2 + \bar{B}^2)} \left[(\bar{A} \cos M_1 \bar{y} ch \vec{M}_1 \bar{y} - \bar{B} \sin M_1 \bar{y} sh \vec{M}_1 \bar{y}) \times \right. \\ \left. \times \cos \omega t + (\bar{B} \cos M_1 \bar{y} ch \vec{M}_1 \bar{y} + \bar{A} \sin M_1 \bar{y} sh \vec{M}_1 \bar{y}) \sin \omega t \right]. \quad (16)$$

Keltirilgan (16) formula tashqi ko‘rinishdan [2,5] ishda keltirilgan formulaga o‘xhash bo‘lsa ham, bu yerdagi \bar{A} , \bar{B} , M_1 , \vec{M}_1 koeffitsiyentlar bir-biridan tubdan farq qiladi, bu koeffitsiyentlar reologik murakkab suyuqlik uchun quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned}
\bar{A} &= \sin M_1 sh \vec{M}_1, \quad \bar{B} = \cos M_1 ch \vec{M}_1, \quad \bar{y} = \frac{y}{h}, \\
i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} &= \left(-\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} + \frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} i \right) (\bar{G}_1 + \bar{G}_2 i) = -\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} (1-i)(\bar{G}_1 + \bar{G}_2 i) = \\
&= -\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} [(\bar{G}_1 + \bar{G}_2) - (\bar{G}_1 - \bar{G}_2)i] = -\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} (\bar{\bar{G}}_1 - \bar{\bar{G}}_2 i) = \\
&\left(-\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} \bar{\bar{G}}_1 + \frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} \bar{\bar{G}}_2 i \right) = M_1 + \vec{M}_1 i, \quad \bar{\bar{G}}_1 = \bar{G}_1 + \bar{G}_2, \quad \bar{\bar{G}}_2 = \bar{G}_1 - \bar{G}_2, \\
M_1 &= -\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} \bar{\bar{G}}_1, \quad \vec{M}_1 = \frac{\alpha_0}{\sqrt{2}} \bar{\bar{G}}_2, \quad \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)}} = \sqrt{G_1 + G_2 i} = \bar{G}_1 + \bar{G}_2 i, \\
\bar{G}_1 &= \sqrt{\sqrt{G_1^2 + G_2^2}} \cos \frac{\varphi + 2n\pi}{2}, \quad \bar{G}_2 = \sqrt{\sqrt{G_1^2 + G_2^2}} \sin \frac{\varphi + 2n\pi}{2}, \quad n = 0, 1 \\
\varphi &= \operatorname{arctg} \frac{G_2}{G_1}, \quad \frac{1}{\eta^*(i\omega)} = \frac{1 + De^2 X_1 \alpha_0^4 + iDe\alpha_0^2(1-X_1)}{1 + De^2 X_1^2 \alpha_0^4} = G_1 + G_2 i \\
G_1 &= \frac{1 + De^2 X_1 \alpha_0^4}{1 + De^2 X_1^2 \alpha_0^4}, \quad G_2 = \frac{De\alpha_0^2(1-X_1)}{1 + De^2 X_1^2 \alpha_0^4} \\
\eta * (i\omega) &= \left(\frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} \frac{1}{1 + iDe\alpha_0^2} \right) = (X_1 + Z_1 \frac{1}{1 + iDe\alpha_0^2}) = \\
&\frac{1 + iDeX_1 \alpha_0^2}{1 + iDe\alpha_0^2}, \quad \frac{\eta_s}{\eta} + \frac{\eta_p}{\eta} = 1, \quad X_1 = \frac{\eta_s}{\eta}, \quad Z_1 = \frac{\eta_p}{\eta}, \quad X_1 + Z_1 = 1, \\
De &= \frac{\lambda \eta}{\rho h^2}, \quad \alpha_0^2 = \frac{\omega}{\nu} h^2.
\end{aligned}$$


Bu koeffitsiyentlar xususiy holda Nyuton suyuqligi uchun juda sodda ko‘rinishga keladi:

$$\begin{aligned}
\bar{A} &= \sin M_1 sh \vec{M}_1, \quad \bar{B} = \cos M_1 ch \vec{M}_1, \quad \bar{y} = \frac{y}{h}, \\
\alpha_0 &= \sqrt{\frac{\omega}{\nu}} h, \quad i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 = M_1 + \vec{M}_1 i, \quad M_1 = -\frac{\alpha_0}{\sqrt{2}}, \quad \vec{M}_1 = \frac{\alpha_0}{\sqrt{2}}.
\end{aligned}$$


Reologik murakkab suyuqlikning tebranma oqimida tezlikning o‘zgarishi De -Debor soni yoki elastiklik soniga bog‘liq ravishda o‘zgaradi va uning Nyuton suyuqligi tezligidan farq qilishini ta’kidlash lozim. Bunda $T_{\text{enuu}} = \frac{\rho h^2}{\eta}$ kanalda yopishqoq suyuqlikning siljish to‘lqin tarqalishini xarakterli vaqt bilan, elastiklik soni bir-biriga bog‘langanligi, ya’ni $De = \frac{\lambda \eta}{\rho h^2} = \frac{\lambda}{T_{\text{enuu}}}$ ekanligi sababli yassi kanalda elastik yopishqoq suyuqlik

tebranma oqimlarini ikkita son: elastiklik soni De va Reynolds tebranish soni $Re_\omega = \frac{\rho \omega h^2}{\eta}$ bilan xarakterlash mumkin. Agar $De \ll 1$ bo'lsa, u holda

suyuqlikning elastiklik xususiyati tezliklar taqsimoti profiliga ta'sir etmaydi, ya'ni tebranma oqimda tezliklar taqsimoti deyarli Nyuton suyuqligidagi kabi ro'y beradi. 2.1-rasmda $\omega t = 0$ bo'lgandagi Nyuton va reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimda tebranishlar chastotasiga bog'liq bo'ylama tezlikning kanal kesimi bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatilgan. Rasmidan ko'rindiki, Nyuton suyuqliklari tebranma oqimda tebranishlar chastotasining kattalashgan qiymatlarida tezlik tebranish amplitudasi kamayib borar ekan.




2.1-rasm. Yassi kanal kesimi bo'yicha bo'ylama tezlik tashkil etuvchisining tebranma oqimdag'i ($\omega t = 0$, $\alpha_0 = 1$ bo'lganda; 1 chiziq Nyuton suyuqligi, 2-4 chiziqlar $De = 1$ bo'lgandagi reologik murakkab suyuqlikning har xil kontsentratsiyalaridagi) taqsimoti.




2.2-rasm. Yassi kanal kesimi bo'yicha bo'ylama tezlik tashkil etuvchisining tebranma oqimdag'i ($\omega t = 0$, $\alpha_0 = 2.5$ bo'lganda; 1 chiziq Nyuton suyuqligi, 2-4 chiziqlar $De = 1$

bo‘lgandagi reologik murakkab suyuqlikning har xil konsentratsiyalaridagi) taqsimoti.

Reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimida esa bunga teskari bo‘lgan holat ro‘y beradi, yahni tebranishlar chastotasining bir soniga yaqinlashgan qiymatlarida tezlik tebranish amplitudasi kattalashadi. Bu holat 2.1-rasmning 2-4 chiziqlariga mos keluvchi grafiklarida tasvirlangan. Lekin reologik murakkab suyuqlik oqimida $De \geq 2$ bo‘lganda M – simon tezlik taqsimotlari Nyuton suyuqlik oqimidagi tezlik taqsimotlariga qaraganda tebranish sonining katta bo‘limgan musbat qiymatlarida ham paydo bo‘lishi kuzatiladi (2.2-rasm).



2.3-rasm. Yassi kanal kesimi bo‘yicha bo‘ylama tezlik tashkil etuvchisining tebranma oqimdagisi ($\omega t = 0$, $\alpha_0 = 3$ bo‘lganda; 1 chiziq Nyuton suyuqligi 2-4 chiziqlar $De = 1$ bo‘lgandagi reologik murakkab suyuqlikning har xil konsentratsiyalaridagi) taqsimoti.



2.4-rasm. Yassi kanal kesimi bo‘yicha bo‘ylama tezlik tashkil etuvchisining tebranma oqimdagisi ($\omega t = 0$, $\alpha_0 = 5$ bo‘lganda; 1 chiziq Nyuton suyuqligi, 2-4 chiziqlar $De = 1$ bo‘lgandagi reologik murakkab suyuqlikning har xil konsentratsiyalaridagi) taqsimoti.

Reologik murakkab suyuqlik oqimida bo‘ylama tezlik taqsimotlari turli kesmalarda turlicha ro‘y berishi, hatto qarama-qarshi yo‘nalishlardagi oqimlar hosil bo‘lishi ham mumkin (2.3 va 2.4-rasmlar). Yopishqoq suyuqlikning tebranma oqimida tebranish effektlarining paydo bo‘lishi suyuqlik inertsiyasi va yopishqoq suyuqlik ishqalanishi bilan bog‘liq. Tebranish chastotasining katta qiymatlarida inersiyaning mavjudligi ahamiyatga ega. Bosim gradienti o‘zgarishi tahsirida tebranish chastotasining katta qiymatlarida suyuqlikning yopishqoqlik xususiyatining mavjudligi tufayli devorga yaqin bo‘lgan qatlamlarida tezlik o‘zgarishi oqim yadrosidagiga qaraganda tezroq ro‘y beradi. Natijada devor oldidagi suyuqlik tezligi bosim gradienti ishorasi o‘zgarishi tahsirida ishorasini o‘zgartirishi mumkin, bu vaqtida oqim yadrosida inersiya hisobiga harakat avvalgi “eski” yo‘nalishda davom etayotgan bo‘ladi. Bunday holatning ro‘y berishi tebranma oqimda tezliklar taqsimoti profillarida M – simon profilning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi. Maqolada yassi kanalda reologik murakkab suyuqliklarning tebranma oqimi qaralgan bo‘lib, bunda reologik murakkab suyuqlik ikkita suyuqlik aralashmasidan hosil qilingan bo‘lib, birinchi suyuqlik Maksvell suyuqligi, ikkinchisi esa Nyuton suyuqligi sifatida olingan. Har ikkala suyuqlik aralashmasi ikki komponentli suyuqlikning gomogen modeli shaklida ifodalangan. Bunda gomogen suyuqlik aralashmalarining harakat differentials tenglamalari tuzilib, yassi kanaldagi tebranma oqimi masalasi analitik usulda yechilgan. Yechimda tezlik profillarini aniqlash uchun formulalar keltirib chiqarilgan. Keltirib chiqarilgan formulalar yordamida tezlik profillarining kanal ko‘ndalang kesimi bo‘yicha taqsimlanish grafiklari, tebranish chastotasi parametrining o‘zgarishiga bog‘liq ravishda aniqlangan va tadqiqot natijalari bo‘yicha tegishli gidrodinamik xulosalar chiqarilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Лойцянский Л.Г. Механика жидкости и газа.– М.: Дрофа, 2003.-840 с.
2. Наврузов К. Гидродинамика пульсирующих течений в трубопроводах. – Ташкент, “Фан”, 1986. – 112 с.
3. Наврузов К. Биомеханика крупных кровеносных сосудов. – Ташкент, “Fan va texnologiya”, 2011. – 144 с.
4. Слезкин Н.А. Динамика вязкой несжимаемой жидкости. – М.: Гостехиздат, 1956. – 520 с.
5. Файзуллаев Д.Ф., Наврузов К. Гидродинамика пульсирующих потоков, – Ташкент, “Фан”, 1986. – 192 с.
6. Колесниченко В.И., Шарифулин А.Н. Введение в механику несжимаемой жидкости. –Перим, Изд. Пермского нац. иссл.полит. Университета, 2019.–127 с.
7. Наврузов К., Хакбердиев Ж.Б. Динамика неньютоновских жидкостей. – Ташкент: Фан”, 2000. – 246 с.
8. Casanellas L., Ortin J. Laminar oscillatory flow of Maxwell and Oldroyd-B fluids// J. Non-Newtonian Fluid. Mechanics. 166. 2011. P. 1315-1326.
9. Ding Z., Jian Y. Electrokinetic oscillatory flow and energy microchannelis: a linear analysis // J. Fluid. Mech. 2021. vol. 919. A20. P.1-31.

MATEMATIKA**DEVORI DEFORMATSIYALANUVCHI YASSI KANALDA
QOVUSHOQ SUYUQLIKNING PULSLI OQIMI****UO‘K 532.516**

**Nabijon
ABDIKARIMOV**
**Urganch davlat
universiteti
doktoranti**



**Laylo
AQMONOVA**
**Urganch davlat
universiteti
o‘qituvchisi**

Annotatsiya: ushbu maqolada yassi kanalda qovushoq suyuqliklarning tebranma oqimi qaralgan bo‘lib, bunda qovushoq suyuqlik Nyuton suyuqligi modeli sifatida qaralgan va devor deformatsiyasi plastinkaning chiziqli deformatsiyasi shaklida olingan. Suyuqlikning tebranma oqimi uchun va devor deformatsiyasi uchun keltirilgan harakat differensial tenglamalari birligida sistema qilib yechilgan. Deformatsiyalanuvchi yassi kanalda puls to‘lqinining tarqalish tezligi va uning to‘lqin uzunligi davri bo‘yicha so‘nish ko‘rsatkichlari tadqiq qilingan, tegishli xulosalar keltirilgan.

Аннотация: в статье рассматривается колебательный поток вязких жидкостей в плоском канале с деформируемыми стенками, в котором вязкая жидкость рассматривается как модель ньютоновской жидкости, а деформация стенки получена в виде линейной деформации пластины. Дифференциальные уравнения движения, приведенные для колебательного потока жидкости и для деформации стенки, решаются вместе как контактная задача. Исследованы скорость распространения пульсовой волны давления в деформируемом плоском канале и показатели затухания волны, сделаны соответствующие выводы.

Annotation: the article considers the oscillatory flow of viscous fluids in a flat channel with deformable walls, in which the viscous fluid is considered as a model of a Newtonian fluid, and the wall deformation is obtained in the form of a linear deformation of the plate. The differential equations of motion given for the oscillatory fluid flow and for the wall deformation are solved together as a contact problem. The speed of propagation of a pulse pressure wave in a deformable flat channel and wave attenuation rates were studied, and corresponding conclusions were drawn.

Kalit so‘zlar: elastik, yopishqoq, Nyuton modeli, Maksvell modeli, aksioma, gipoteza, yassi kanal.

Ключевые слова: упругой, вязкой, модель Ньютона, модель Максвелла, аксиома, гипотеза, плоский канал.

Key words: elastic, viscous, Newton's model, Maxwell's model, axiom, hypothesis, flat channel.

Keyingi yillarda Nyuton suyuqligi sifatida qaralgan qonning laminar pulsatsiyali oqimiga bag‘ishlangan biomexanik tadqiqotlar inson organizmining ishlash mexanizmini tashxishlashda va davolashda dori-darmonlarni tomirlarga maqsadli yetkazib berishda muhim omil bo‘lib kelmoqda [1,2]. Ayniqsa bu tadqiqotlar tibbiyot sohasida ishlatiladigan mikrochip va pinevmatik mikronasos qurilmalarini samarali ishlatishda ahamiyatlidir [2]. Bu qurilmalarda pulsatsiyali suyuqlik oqimi ko‘ndalang kesimi to‘g‘ri to‘rtburchakdan iborat bo‘lgan prizmatik kanaldagi suyuqlikning laminar pulsatsiyali oqimi sifatida qaraladi. Afsuski bunday oqim masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqat ishlari yetarli darajada emas. Mavjudlari ham mikrokanallardagi suyuqlik (qon)ning pulsatsiyali oqimiga bag‘ishlangan tajriba natijalaridan iborat [3].

E.P.Valiyeva, M.S.Purdinning [3, 4] ilmiy tadqiqot ishlarida quvur va yassi kanallardagi laminar pulsatsiyali oqimi va issiqlik almashinushi masalalari qaralgan. Bu yerda asosiy tebranishni hosil qiluvchi kattalik sifatida, kanalning ko‘ndalang kesimi bo‘yicha o‘rtalashtirilgan bo‘ylama tezlikning boshlang‘ich kesimdagagi vaqt bo‘yicha sinusoydal davriy ravishda o‘zgaruchi funksiyasi qabul qilingan. Qo‘yilgan masala chekli ayirmalar metodi asosida yechilgan. Yechim natijasi orqali gidravlik qarshilikning va devordagi urunma kuchlanishning tebranish amplitudasi va fazasi bo‘yicha o‘zgarishi tahlil qilingan. Tahlil natijalari [3] ishdagi analitik yechim va tajriba orqali olingan natijalar bilan solishtirilgan va natjalarning bir-biriga mos kelishi aniqlangan. Yuqorida keltirilgan masalalarning barchasi devori qattiq deformatsiyalanmaydigan kanallardagi qovushoq suyuqliklarning pulsatsiyali oqim masalalariga bag‘ishlangan.

Ammo devori deformatsiyalanadigan yassi va ko‘ndalang kesimi to‘g‘ri to‘rtburchakdan iborat prizmatik kanallardagi qovushoq suyuqlikning pulsatsiyali oqimi masalalari tibbiyotning mikrochip va pinevmatik mikronasos qurilmalari shaklida va boshqa shunga o‘xhash tibbiyot apparaturalarida keng qo‘llaniladi. Shu boisdan ushbu ilmiy tadqiqot ishida devori deformatsiyalanuvchi yassi kanallardagi qovushoq suyuqlikning pulsli oqimi masalasi yechiladi va aniqlangan yechimlar tahlil qilinadi. Tahlil natijalari asosida yangi gidrodinamik qonuniyatlar aniqlanadi.

1. Devori deformatsiyalanuvchi yassi kanallarda qovushoq suyuqlikning pulsli oqimi. Nyuton suyuqliklarning devori deformatsiyalanuvchi yassi kanallardagi pulsli oqimini shakillantirish uchun yassi kanal uzunligini L , enini $2h$ -orqali belgilaymiz va oqim yetarlicha uzun kanalda ro‘y berayotgani uchun $\frac{h}{L} \ll 1$ shart doimo bajariladi. Bu shart ko‘ndalang tezlikning bo‘ylama

tezlikka nisbati $\frac{V}{U} \ll 1$ ekanligini taxminlaydi. Kanalning bo‘ylama gorizontal

o‘qini OX bilan, vertikal o‘qini esa OY bilan belgilaymiz. Qaralayotgan oqim sekin oqim bo‘lganligi uchun, bundan Reynolds sonining birdan yetarli darajada kichikligi kelib chiqadi. Ya’ni:

$$\text{Re} = \frac{Ud}{\nu} \ll 1$$

Yuqoridagi keltirilgan shartlarni inobatga olgan holda Nave-Soks tenglamasi ba’zi bir, soddalashtirishlardan keyin ushbu ko‘rinishdagi chiziqlashtirilgan tenglamalar sistemasi ko‘rinishiga keltiriladi.

$$\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial t} = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial x} + \nu \frac{\partial^2 u}{\partial y^2}, \quad \frac{\partial p}{\partial x} = 0 \\ \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial v}{\partial y} = 0 \end{cases}, \quad (2.1)$$

bu yerda u, v - bo‘ylama va ko‘ndalang tezlik, ρ - suyuqlik zichligi; ν - kinematik qovushoqlik koeffisiyenti, t - vaqt.

Pulsatsiyali oqim devori deformasiyalanuvchi kanalda qaralayotgani uchun devorning kichik deformasiyasini [58] tenglama orqali aniqlamiz

$$f = f_0 \left(1 + a \frac{p - p_0}{E} \right) \quad (2.2)$$

bu yerda f - kanal ko‘ndalang kesim yuzasi f_0 - kanal kesim yuzasining o‘rtacha qiymati, E - kanal devorining elastiklik koeffisiyenti, p_0 - o‘rtacha o‘zgarmas tashqi bosim, p - o‘zgaruvchi bosim, a - kanal o‘lchami parametri yassi kanal uchun bu kattaliklar ushbu qiymatlarga ega bo‘ladi [58].

$$f = 2h \cdot b; \quad f_0 = 2h_0 \cdot b; \quad a = \frac{2h_0}{\delta} \quad (2.3)$$

bu yerda b - kanalning uchinchi o‘qi bo‘yicha xarakterli uzunligi, $2h_0$ - kanalning o‘rtacha eni, δ - kanal devorining qalinligi.

Berilgan (2.3)dagi qiymatlarni e’tiborga olsak (2.2) tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi.

$$2h \cdot b = 2h_0 b \left(1 + \frac{2h_0}{\delta E} (p - p_0) \right) \quad (2.4)$$

yoki

$$h = h_0 \left(1 + \frac{2h_0}{\delta E} (p - p_0) \right) \quad (2.5)$$

Bu tenglanamaning har ikkala tomonidan vaqt bo‘yicha hosila olib, ushbu tenglamaga ega bo‘lamiz

$$\frac{\partial h}{\partial t} = \frac{2h_0^2}{\delta E} \frac{\partial \bar{p}}{\partial t} \quad (2.6)$$

Bu (2.6) tenglama yassi kanal devor deformatsiyasini ifodalovchi tenlama bo‘ladi. Bu tenglamani (2.1) tenglamalar sistemasi bilan birqalikda sistema qilsak, u holda devori deformatsiyalanuvchi yassi kanaldagi qovushoq suyuqlikning pulsasiyali oqimi masalasining harakat differensial tenglamalar sistemasini shakllantirgan bo‘lamiz. Ya’ni:

$$\left. \begin{aligned} \frac{\partial u}{\partial t} &= -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial x} + \nu \frac{\partial^2 u}{\partial y^2}, \quad \frac{\partial p}{\partial y} = 0 \\ \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial \vartheta}{\partial y} &= 0, \quad \frac{\partial h}{\partial t} = \frac{2h_0^2}{\delta E} \frac{\partial p}{\partial t} \end{aligned} \right\} \quad (2.7)$$

Shakllantirilgan (2.7) tenglamalar sistemasini yechish uchun masalaning qo‘yilish shartiga asosan quyidagi chegaraviy shartlarni aniqlaymiz. Oqim vaqtning boshlang‘ich holatidan ancha katta vaqt o‘tgandan keyin statsionar tebranma oqim shakliga kelgan deb qaralayotganligi uchun, boshlang‘ich shartlar qo‘yilmaydi. Chegaraviy shartlar quyidagicha aniqlanadi.

$$\begin{aligned} y = +h \text{ bo‘lganda } u &= 0, \quad \vartheta = \frac{\partial h}{\partial t} \text{ bo‘ladi,} \\ y = -h \text{ bo‘lganda, } u &= 0, \quad \vartheta = -\frac{\partial h}{\partial t} \text{ bo‘ladi.} \end{aligned} \quad (2.8)$$

Harakatni vujudga keltiruvchi bosim gradienti vaqt bo‘yicha davriy funksiya orqali o‘zgarganligi sababli qolgan kattaliklar ham vaqtning davriy funksiyasi bo‘yicha o‘zgaradi. Shu sababdan, bo‘ylama va ko‘ndalang tezliklarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ushbu ko‘rinishda ifodalaymiz.

$$\begin{aligned} u(x, y, t) &= u_0(x, y) + \bar{u}(x, y)e^{i\omega t} \\ \vartheta(x, y, t) &= \bar{\vartheta}(x, y)e^{i\omega t} \\ p(x, t) &= p_0 + \bar{p}(x)e^{i\omega t} \end{aligned} \quad (2.9)$$

U holda (2.7) differensial tenglamalar sistemasidan $u(x, y)$ va $\vartheta(x, y)$ tezliklarni topish uchun, quyidagi tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz.

Statsionar holatga mos keluvchi yechimda bosim gradienti o‘zgarmas bo‘lganligi sababli, bo‘ylama tezlik parabolik taqsimotga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham biz tebranishlar hosil qiluvchi oqimni qaraymiz. Bu holda quyidagi sistemaga ega bo‘lamiz.

$$\left. \begin{aligned} i\omega \bar{u} &= -\frac{1}{\rho} \frac{\partial \bar{p}}{\partial x} + \nu \frac{d^2 \bar{u}}{dy^2}, \quad \frac{\partial \bar{p}}{\partial y} = 0 \\ \frac{\partial \bar{u}}{\partial x} + \frac{\partial \bar{\vartheta}}{\partial y} &= 0, \quad \bar{\vartheta}_{y=h_0} = \frac{2h_0^2}{\delta E} i\omega \bar{p} \end{aligned} \right\} \quad (2.10)$$

Hosil qilingan (2.10) sistemaning yechimi quyidagicha aniqlanadi. Dastlab sistemadagi birinchi va ikkinchi tenglamalar orqali, bo‘ylama tezlikning taqsimlanish formulasini aniqlaymiz. $\frac{\partial \bar{p}}{\partial y} = 0$ ekanligidan $\frac{\partial \bar{p}}{\partial x}$ -faqat x -

o‘zgaruvchiga bog‘liqligi kelib chiqadi. U holda ushbu tenglamaning chap tomoni y va x -ning funksiyasidan iborat bo‘lib, o‘ng tomoni faqat x -ga bog‘liq bo‘lganligi uchun, x bu yerda parametr shaklida qatnashadi

$$\frac{d^2\bar{u}}{dy^2} - \frac{i\omega}{\nu}\bar{u} = \frac{1}{\rho\nu} \frac{\partial\bar{p}}{\partial x} \quad (2.11)$$

(2.11) tenglamani yechish quyidagicha aniqlanadi.

$$\bar{u} = C_1 \cos\left(i^{3/2} \sqrt{\frac{\omega}{\nu}} y\right) + C_2 \sin\left(i^{3/2} \sqrt{\frac{\omega}{\nu}} y\right) - \frac{1}{\rho i \omega} \frac{\partial \bar{p}}{\partial x} \quad (2.12)$$

Topilgan umumiy yechim (2.12)ga, chegaraviy shartlar (2.8)ni qo‘llash orqali C_1 va C_2 koeffitsiyenlarni topamiz. Bu yerda $C_2 = 0$, bo‘lib C_1 -quyidagi ifodaga teng bo‘ladi.

$$C_1 = -\frac{1}{\rho i \omega} \left(-\frac{\partial \bar{p}}{\partial x} \right) \frac{1}{\cos(i^{3/2} \alpha_0)} \quad (2.13)$$

C_1 -ning qiymatini (2.12) yechimga qo‘yib, quyidagiga ega bo‘lamiz.

$$\bar{u}(x, y) = \frac{1}{\rho i \omega} \left(-\frac{\partial \bar{p}}{\partial x} \right) \left(1 - \frac{\cos\left(i^{3/2} \alpha_0 \frac{y}{h}\right)}{\cos(i^{3/2} \alpha_0)} \right) \quad (2.14)$$

$$\text{bu yerda } \alpha_0 = \sqrt{\frac{\omega}{\nu}} h_0$$

(2.10) sistemadagi uchinchi tenglamani y - bo‘yicha integrallab, suyuqlikning ko‘ndalang tezligini topamiz

$$\int \frac{\partial \bar{u}}{\partial x} dy + \int \frac{\partial \bar{v}}{\partial y} dy = 0$$

$$\bar{g}(x, y) = \frac{1}{\rho i w} \left(-\frac{\partial^2 p}{\partial x^2} \right) \times \left(y - \frac{h \sin\left(i^{3/2} \alpha_0 \frac{y}{h}\right)}{i^{3/2} \alpha_0 \cos(i^{3/2} \alpha_0)} \right) \quad (2.15)$$

Endi (2.10) tenglamalar sistemasidagi uchinchi tenglamani $-h$ dan h -gacha y o‘zgaruvchi bo‘yicha integrallab, ushbuni hosil qilamiz.

$$\int_{-h_0}^{h_0} \frac{\partial \bar{u}}{\partial x} dy + \int_{-h_0}^{h_0} \frac{\partial \bar{g}}{\partial y} dy = 0 \quad (2.16)$$

bu yerda

$$\int_{-h_0}^{h_0} \frac{\partial \bar{u}}{\partial x} dy = 2h_0 \frac{d < \bar{u} >}{dx} \quad (2.17)$$

o‘rtacha bo‘ylama tezlikni aniqlaydi.

$$\int_{-h_0}^{h_0} \frac{\partial \bar{g}}{\partial y} dy = \bar{g} \Big|_{-h_0}^{h_0} = 2\bar{g}_{y=h_0} = \frac{4h_0^2}{\delta E} \bar{P}i\omega \quad (2.18)$$

$$2h_0 \frac{d < \bar{u} >}{dx} = -\frac{4h_0}{\delta E} \bar{P}i\omega \quad (2.19)$$

(2.19) tenglamadan quyidagini hosil qilamiz

$$\frac{d < \bar{u} >}{dx} = -\frac{2h_0}{\delta E} \bar{P}i\omega \quad (2.20)$$

bu yerda $\bar{P} = P - P_0$, ikkinchi tomondan bo‘ylama tezlik uchun topilgan formulani – h_0 dan h_0 gacha integrallab va $2h_0$ ga bo‘lib

$$< \bar{u} > = \frac{1}{\rho i\omega} \left(-\frac{\partial \bar{p}}{\partial x} \right) \left(1 - \frac{\sin(i^{3/2}\alpha_0)}{i^{3/2}\alpha_0 \cos(i^{3/2}\alpha_0)} \right)$$

Bu tenglikdan $\left(-\frac{\partial \bar{p}}{\partial x} \right)$ bosim gradientini topamiz

$$-\frac{\partial \bar{p}}{\partial x} = \left[\frac{1}{\rho i\omega} \left(1 - \frac{\sin(i^{3/2}\alpha_0)}{i^{3/2}\alpha_0 \cos(i^{3/2}\alpha_0)} \right) \right]^{-1} < \bar{u} > = Z < \bar{u} > \quad (2.21)$$

(2.21) tenglikning har ikkala tomonidan x bo‘yicha hosila olib, $\frac{d < \bar{u} >}{dx}$ o‘rniga

(2.20) tenglamadagi qiymatini qo‘ysak ushbu tenglamaga ega bo‘lamiz

$$\frac{d^2 \bar{p}}{dx^2} - \frac{i\omega 2h_0}{\delta E} Z \bar{p} = 0 \quad (2.22)$$

bu yerda $K = \frac{\delta E}{2h_0}$.

Ushbu tenglamani yechish uchun quyidagi chegaraviy shartdan foydalanamiz

$$x=0 \text{ bo‘lganda } \bar{p} = p_{10} \text{ bo‘ladi} \quad (2.23)$$

$$x=L \text{ bo‘lganda } \bar{p} = p_{1L} \text{ bo‘ladi}$$

(2.22) tenglama bir jinsli tenglama bo‘lganligi sababli bu tenglamaning fundamental yechimi

$$\bar{P}(x) = C_1 Ch \left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}} Z x \right) + C_2 Sh \left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}} Z x \right)$$

shaklida aniqlanadi. Bu topilgan yechimdagи C_1 va C_2 koeffitsiyentlarni (2.23) chegaraviy shartlardan topamiz

$$x=0 \text{ da } p_{10} = C_1 \text{ bo‘ladi}$$

$$x=L \text{ da } p_{1L} = p_{10} Ch \left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}} Z L \right) + C_2 Sh \left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}} Z L \right)$$

bundan

$$C_2 = \frac{p_{1L} - P_{10}Ch\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L\right)}{Sh\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L\right)}$$

$$\bar{P}(x) = \frac{p_{10}\left(Sh\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L\left(\frac{L-x}{L}\right)\right)\right)}{Sh\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L\right)} + \frac{p_{L0}Sh\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z \frac{x}{L}\right)}{Sh\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L\right)} \quad (2.24)$$

$$\langle \bar{u}(x) \rangle = \frac{h_0^2}{8} \frac{\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L}{h_0} \times P_{10} \left[\frac{Ch\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L \frac{L-x}{L}\right)}{Sh\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L} - \frac{P_{1L}Ch\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L \frac{x}{L}\right)}{P_{10}Sh\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L} \right] \quad (2.25)$$

Bu topilgan (2.24) va (2.25) formulalarni (2.9) belgilashlarga qo‘ysak, bosim va o‘rtacha bo‘ylama tezliklarning taqsimlanishini aniqlovchi formulalarga ega bo‘lamiz

$$p(x,t) = \left(\frac{p_{10}\left(Sh\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L\left(\frac{L-x}{L}\right)\right)\right)}{Sh\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L\right)} + \frac{p_{L0}Sh\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z \frac{x}{L}\right)}{Sh\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L\right)} \right) e^{i\omega t} \quad (2.26)$$

$$\langle u(x,t) \rangle = \frac{h_0^2}{8} \frac{\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L}{h_0} \times P_{10} \left[\frac{Ch\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L \frac{L-x}{L}\right)}{Sh\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L} - \frac{P_{1L}Ch\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L \frac{x}{L}\right)}{P_{10}Sh\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L} \right] e^{i\omega t} \quad (2.27)$$

Aniqlangan (2.26) va (2.27) formulalar bosim va o‘rtacha bo‘ylama tezliklar taqsimlanishining bo‘ylama o‘q va vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarini tadqiq qilish imkoniyatini beradi.

2. Qovushoq suyuqlikning devori deformatsiyalanuvchi yassi kanaldagi pulsli oqim masalasi yechimining tahlili. Suyuqlik bosmi va o‘rtacha bo‘ylama tezligining gorizontal o‘q bo‘yicha

o‘zgarishi uchun aniqlangan (2.24) va (2.25) formulalar $\sqrt{\frac{i\omega}{K}}Z L$ - kattalikka

uzviy ravishda bog‘langan. Bu formulalar orqali puls to‘lqinlarining tarqalish tezligi va uning uzunlik bo‘yicha so‘nish qonuniyatlarini aniqlaymiz.

Buning uchun ushbu kattalikni

$$\sqrt{\frac{i\omega}{K}} Z L = \chi + \beta i \quad (2.28)$$

haqiqiy va mavhum qismlarga ajratamiz.

$$\left. \begin{aligned} \beta &= \sqrt{\frac{2h_0\rho}{E\delta}} \omega L \sqrt[4]{A_s^2 + B_s^2} \cos \frac{\varphi}{2} \\ \chi &= \sqrt{\frac{2h_0\rho}{E\delta}} \omega L \sqrt[4]{A_s^2 + B_s^2} \sin \frac{\varphi}{2} \end{aligned} \right\} \quad (2.29)$$

Bu aniqlangan (2.28) va (2.29) formulalar yordamida bosim puls to‘lqinlarining tarqalish tezligini va nisbiy tezlik amplitudasining to‘lqin tarqalish masofasiga qarab kamayishini aniqlaymiz.

Bosim puls to‘lqinining tarqalish tezligi ushbu formula orqali aniqlanadi.

$$C = \frac{\omega L}{\beta} \quad (2.30)$$

Bu formuladagi β o‘rniga (2.29) formuladagi qiymatini qo‘yib ushbuga ega bo‘lamiz

$$\begin{aligned} C &= \frac{\omega L}{\beta} = \frac{\omega L}{\omega L} \cdot \sqrt{\frac{E\delta}{2h_0\rho}} \frac{1}{\sqrt[4]{A_s^2 + B_s^2} \cos \frac{\varphi}{2}} = \sqrt{\frac{E\delta}{2h_0\rho}} \cdot \frac{1}{\sqrt[4]{A_s^2 + B_s^2} \cos \frac{\varphi}{2}} \\ \frac{C}{C_\infty} &= \frac{1}{\sqrt[4]{A_s^2 + B_s^2} \cos \frac{\varphi}{2}} \end{aligned} \quad (2.31)$$

Bu yerda

$$C_\infty = \sqrt{\frac{E\delta}{2\rho h_0}}$$

Bosim puls to‘lqini amplitudasining to‘lqin tarqalish uzunligiga qarab so‘nishi quyidagi formula orqali topiladi.

$$\frac{\partial \ln p}{\partial x} = \chi, \quad P = e^{-\chi x} \quad (2.32)$$


To‘lqin uzunligi to‘lqin tezligini xarakterlovchi β -ning to‘lqin uzuligiga ko‘paytmasi 2π -ga teng bo‘lgan miqdor orqali aniqlanadi.

Yahni:

$$\beta\lambda = 2\pi \quad \lambda = \frac{2\pi}{\beta} \quad (2.33)$$

To‘lqin uzunligiga nisbatan bosim puls to‘lqini amplitudasining so‘nishi quyidagicha aniqlandi.

$$\begin{aligned} P &= P_0 e^{-\chi\lambda} = P_0 e^{-2\pi \frac{\chi}{\beta}} \\ P/P_0 &= e^{-2\pi \frac{\chi}{\beta}} \end{aligned} \quad (2.34)$$



2.1-rasm. Nyuton suyuqligi pulsli oqimida bosim puls to'lqini tarqalish tezligining, tebranish chastotasi parametriga bog'liq o'zgarishi

2.1-rasmda bosim puls to'lqini tarqalish tezligining, tebranish chastotasi parametriga bog'liq o'zgarishi tasvirlangan. Rasmdan ko'rindiki devori deformatsiyalanuvchi yassi kanalda Nyuton suyuqligining pulsli oqimida, devorda puls to'lqini, tebranish chastotasi patametriga bog'liq ravishda tarqalar ekan.

Bu to'lqinning tarqalish tezligi oqim tezligiga qaraganda bir necha barobar kattaligini ko'rish qiyin emas. Puls to'lqinning tarqalish tezligini aniqlash yordamida yassi kanal devorlarining deformatsiyalanish xususiyatlarini aniqlash mumkin. Rasmdan ko'rindiki, tebranish chastotasi parametrining katta

$$\text{qiymatlarida } C_\infty = \sqrt{\frac{E\delta}{2\rho h_0}} \text{ formula yordamida katta aniqlikda hisoblash mumkin.}$$

Tebranish chastotasi parametrining $0 < \alpha_0 < 5$ oralikdagi qiymatlarida esa puls to'lqining tarqalish tezligi noldan boshlab $C_\infty = \sqrt{\frac{E\delta}{2\rho h_0}}$ formula orqali


aniqlanuvchi tezlik qiymatiga assimpotik yaqinlashadi. Keltirib chiqarilgan (2.34) formula yordamida to'lqin uzunligiga nisbatan olingen to'lqin so'nishi kattaligiga teskari bo'lgan kattalikning tebranish chastotasi parametriga bog'liq ravishda o'zgarishini grafik yordamida tasvirlaymiz.

Buning uchun (2.29) formulada keltirilgan kattaliklarni (2.34) formulaga qo'yish natijasida hisob formulasini hosil qilamiz.

Ya'ni:

$$\left(\frac{P}{P_0} \right)^{-1} = e^{-2\pi \frac{\chi}{\beta}} = e^{-2\pi t g \frac{\varphi}{2}} \quad (2.35)$$

(2.35) formula hisobi natijasida to‘lqin uzunligiga nisbatan olingan to‘lqin so‘nishi kattaligiga teskari bo‘lgan kattalikning tebranish chastotasi parametriga bog‘liq ravishda o‘zgarishi 2.2-rasmida tasvirlangan.



2.2-rasm. To‘lqin tarqalish davri uzunligiga nisbatan olingan to‘lqin so‘nishi kattaligiga teskari bo‘lgan kattalikning tebranish chastotasi parametriga bog‘liq ravishda o‘zgarishi.

Rasmdan ko‘rinadiki, to‘lqin tarqalish davri uzunligiga nisbatan olingan to‘lqin so‘nishi kattaligiga teskari bo‘lgan kattalikning tebranish chastotasi parametriga bog‘liq ravishda o‘zgarishi tebranish chastotasi parametrining [0, 1] kesmadagi qiymatlarida nolga teng bo‘lib, asosiy o‘zgarish [1, 10] kesmada ro‘y beradi, undan katta bo‘lgan qiymatlarda esa u bir soniga asimptotik ravishda yaqinlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Marx U., Wallis H., Hoffmann S., Linder G., Harland R., Sonntag F., Klotzbach U., Sakharov D., Tonevitskiy A., Lonster R. “Homan-on-a-Chip” developments: a translational cutting- edge alternative to systemic safety assessment and effecting evacuation in laboratory animals and man? //ATLA 2012. Vol. 40. P. 235-257.
2. Inman W., Domanskiy K., Serdy J., Ovens B., Trimper D., Griffith L.G., Dishing modeling and fabrication of a constant flow pneumatic micropump //J. Micromech. Microeng. 2007. Vol. 17. P. 891-899.

3. Валуева Е.П., Пурдин М.С. Гидродинамика и теплообмен пульсирующего ламинарного потока в каналах // Теплоэнергетика, 2015, №9. – С. 24-33.
4. Валуева Е.П., Пурдин М.С. Пульсирующее ламинарное течение в прямоугольном канале // Теплофизика и аэромеханика, 2015. – С. 761-773.
3. Громека И.С. К теории движения жидкости в узких цилиндрических трубках. – М., 1952. – с. 149-171.
4. Громека И.С. О скорости распространения волнообразного движения жидкости в упругих трубах. Собр. соч. – М., 1952. – с. 172-183.
5. Crandall I.B. Theory of vibrating systems and sounds .D. Van. Nostrand Co., New York. 1926.
6. Lambossy P. Oscillations foresees dun liquids incompressible et visquux dans un tube rigide et horizontal calculi de IA force de frottement . Helv. Physiol. Acta. 25(1952) 371-386)
7. Womersly J.R. Method for the calculation of velocity rate of flow and viscous drag in arteries when the pressure gradient is known. J. Physiol, 1955, 127, N 3. – P. 553-563.
8. Richardson E.G., Tyler E. The transverse Velocity gradient neat the mothe of pipes in which an alternating or continuous flow of air is established // Pros. Phys. Soc. London, 1929, v. 42.
9. Попов Д.Н., Мохов И.Г. Экспериментальное исследование профилей местных скоростей в трубе при колебаниях расхода вязкой жидкости. //Изв. Вузов «Машиностроение» 1971.№7.с.91-95.
10. Файзуллаев Д.Ф., Наврузов К. Гидродинамика пульсирующих потоков, – Ташкент, “Фан”, 1986. – 192 с.
- 13.Попов Д.Н. Нестационарные гидромеханические процессы. М .: Машиностроение, 1982.424 с.
14. Лойцянский Л.Г. Механика жидкости и газа.– М.: Дрофа, 2003.-840 с.
15. Колесниченко В.И., Шарифулин А.Н. Введение в механику несжимаемой жидкости. –Перим, Изд. Пермского нац. иссл. полит. университета, 2019. – 127 с.

PEDAGOGIKA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKSIS ELEMENTLARI USTIDA ISHLASHNING NAZARIY VA METODIK JIHATLARI

UO‘K 532.516



**Sabohat
URAZBOYEVA**
**Urganch
innovatsion
universiteti
o‘qituvchisi**

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida gap ustida ishlash, nutq faoliyatini rivojlantirish, gap tuzish masalalari hususida so‘z yuritilgan.

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы работы над предложениями, развития речевой деятельности и составления предложений у учащихся младших классов.

Annotation: this article deals with the issues of working on sentences, developing speech activity, and composing sentences among elementary school students.

Kalit so‘zlar: gap, nutq, metod, grammatika, analiz, sintez, nuqta, namuna.

Ключевые слова: предложение, рассуждение, метод, грамматика, анализ, синтез, точка, пример.

Key words: sentence, discourse, method, grammar, analysis, synthesis, point, example.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va ona tili savodxonligi darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o‘zlashtirilgani uchun tilni o‘rganishda gap ustida ishlash markaziy o‘rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe’l va ularning muhim kategoriylarining tilimizdagи rolini gap asosida bilib oladilar. O‘quvchilar ona tili leksikasini ham gap negizida egallaydilar. So‘zning leksik ma’nosi va uning qo‘llanish xususiyatlari so‘z birikmasi yoki gapda ma’lum bo‘ladi. So‘z gapda bir ma’noli bo‘ladi (gapdan tashqari bir necha ma’no ifodalash mumkin).

Metodist olima T.G.Ramzayeva boshlang‘ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo‘nalishga bo‘ladi:

1. Gap haqidagi grammatick tushunchani shakllantirish (til birligi bo‘lgan gapning muhim belgilarini o‘rgatish).
2. Gap qurilishini o‘rgatish (so‘z birikmasida so‘zlarning bog‘lanishi ustida ishlash, gapning grammatick asosini, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig‘iq gaplar ustida ishlash).

3. O‘quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko‘ra turlaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so‘zlarni aniq qo‘llash ko‘nikmasini o‘stirish.

5. Yozma nutqda gapni to‘g‘ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo‘yish) ko‘nikmasini shakllantirish. [29, 277]



Ishning bu besh yo‘nalishi bir-biriga o‘zaro ta’sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o‘rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi. Gapni o‘rganish va nutqda undan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish o‘quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. O‘quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug‘iladi. U o‘z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

“Gap” mavzusi barcha sinflarda o‘rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O‘quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi – gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gapda so‘zlarning bog‘lanishi, gapning uyushiq bo‘laklarini o‘rganishga o‘tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang‘ich bosqichi savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so‘zlardan gap tuzib bo‘lmaydi. Agar o‘quvchilar gapning bosh bo‘laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi.

Shuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazgan ma'qul.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan, so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga ko'ra, 1-sinfda o'quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi.

2-sinfda esa o'quvchilar gap haqida amaliy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishslash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3-sinf gap ustida ishslashda yangi bosqichdir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadilar. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim atamalari kiritiladi. Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi.

4-sinf o'quvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z)ni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishni bilib oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumaniyozova M., Urazboyeva S. Boshlang'ich ta'limda gap ustida ishslash vazifalari va bosqichlari// Talqin va tadqiqotlar 2022, 3-son. 39-43-betlar
2. Ollaberganova S., Urazboyeva S. Ona tili ta'limi boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirish omili sifatida // Polish science journal (international science journal). ISSUE 9(54) . - Warsaw, Poland, 2022, 45-49-betlar
3. Matchonov S., Bakiyeva H., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi.- Toshkent: "Ishonchli hamkor", 2021. 740-b.

PEDAGOGIKA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TEZKOR HISOBBLASH
USULLARINI O'RGATISHNI RIVOJLANTIRISH-IJTIMOIY
PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA**

**Gavxaroy
YULDASHEVA**
**Urganch
innovatsion
universiteti
o'qituvchisi**

UO'K 532.516

Annotatsiya: ushbu maqola orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga tezkor hisoblash usullarini o'rgatishni ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida tushuntirish va muhimligini keltirish mumkin.

Аннотация: благодаря данной статье можно объяснить и объяснить важность обучения младших школьников методом быстрого расчета как социально-педагогической необходимости.

Annotation: through this article, it is possible to distinguish and highlight the importance of teaching rapid recovery methods to students of correctional classes as a socio-pedagogical necessity.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchilar, tezkor hisoblash usullari, o'rgatish, rivojlanirish, ijtimoiy, pedagogik, zarurat, sifatida.

Ключевые слова: начальный класс, учащиеся, методы быстрого счета, обучение, развитие, социальное, педагогическое, необходимость

Key words: elementary class, students, rapid calculation methods, teaching, development, social, pedagogical, necessity.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tezkor hisoblash usullarini o'rgatish, ularning matematika bo'yicha tasavvurlarini shakllantirish, mantiqiy va hisob-kitob qobiliyatlarini rivojlanirish uchun juda muhimdir. Undan tashqari, bu rivojlanish, o'quvchilarga hayotda muammolar va masalalarni tezkor hisoblash orqali hal qilishga da'vat qiladi. Bu maqlada boshlang'ich sinf o'quvchilariga tezkor hisoblash usullarini o'rgatish maqsadida ijtimoiy-pedagogik zaruratni o'rganishga va rivojlanirishga bag'ishlangan masalalar ko'rib chiqiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tezkor hisoblash usullarini o'rgatishda rivojlanirish:


1. Interaktiv ta'lrim vositalari: interaktiv o'yinlar, darsliklar va animatsiyalar orqali, o'quvchilarni matematikaviy tushunchalar bilan tanishtirish.

2. O‘quvchilarning qiziqishlariga e’tibor berish: har bir o‘quvchi individual ravishda qiziqishlariga e’tibor berilishi, ularning o‘zlarida hisoblash usullarini rivojlanishi uchun muhimdir.

3. Izlanish va mantiqiy muloqotlar: o‘quvchilarni mantiqiy ravishda ishonchliroq qilib, savollarga javob berishga qaratish orqali, ularning tezkor hisoblash usullarini o‘rganish yordamida mantiqiy rivojlantirish muhim.

4. Real hayot misollari: hayotdagi voqealar va ishlar orqali tezkor hisoblash usullarini o‘quvchilarga tushuntirish, ularni matematikaviy xilma-xil muammolarni tez-tez hal qilishga oshkor qilish.

5. Kollaborativ ta’lim: o‘quvchilarni guruhlarda yoki jamiyatda masalalarni tezkor hisoblash usullari yordamida hal qilishga yondashish orqali o‘rganish, fikrlarni almashish va kelajakda o‘zlarining muammolarini tezkor hisoblash usullari bilan hal qilishga yordam berish katta ahamiyatga ega.



Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tezkor hisoblash usullarini o‘rgatish, ularning mantiqiy tushunchalarini rivojlantirish uchun ahamiyatga ega. Bu rivojlanish, matematika bilimlarini oshirish va o‘quvchilarni amaliy hayotda muammolarni yechishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada keltirilgan metodlar bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematikaviy tushunchalarini va hisob-kitob qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar juda muhimdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tezkor hisoblash usullarini o‘rganishda ijtimoiy-pedagogik usullar muhim ahamiyatga ega. Bu usul bilan o‘quvchilarni mantiqiy rivojlantirish, matematika bilimlarini oshirish va ularning muammolarni tezkor ravishda hal qilishga tayyorlash mumkin. Bu maqolada keltirilgan

zaruratlar asosida, tezkor hisoblash usullarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatishning rivojlantirilishi muhimdir.



Xulosa qilib aytganda, maqolada o‘quvchilarga matematikaviy tushunchalarni o‘rgatishni rivojlantirish va mantiqiy tushunchalarni rivojlantirishning an‘anaviy pedagogik usullarga qaraganda qanday ahamiyatga ega ekanligi va bunga qaratilgan turli metodlar ko‘rsatilgan. Bu metodlar interaktiv ta’lim vositalari, o‘quvchilarning qiziqishlariga e’tibor berish, izlanish va mantiqiy muloqotlar, real hayot misollari va kollaborativ ta’limni o‘z ichiga oladi. Bu metodlar o‘quvchilarning matematikaviy tushunchalarini rivojlantirish, mantiqiy va hisob-kitob qobiliyatlarini oshirish va ularni hayotdagi muammolarni tez-tez hal qilishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Maqola ma’ruzalar, empirik ko‘rishlar va tadqiqotlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikaviy tushunchalar va hisob-kitob qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim va yordamchi bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.. Toshkent sh., 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-sonli

2. Jumayev M.E, Boshlangi‘ch sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (O‘OY uchun o‘quv qo‘llanma) Toshkent. – O‘qituvchi, 2004-yil.

3. A. B. Методика преподавания математики. - Т.: Турон-Икбол, 2011. 336c.

PEDAGOGIKA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV
NUTQNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

**Nazokat
BEKBERANOVA**
**Urganch
innovatsion
universiteti
o'qituvchisi**

UO'K 532.516

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga til ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning kommunikativ qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan metodikani o'rghanish to'g'risida so'z boradi.

Аннотация: в статье говорится об изучении методики, направленной на развитие языковых навыков и улучшение их коммуникативных способностей учащихся начальных классов.

Annotation: this article talks about learning the methodology aimed at developing language skills and improving their communicative abilities for primary school students.

Kalit so'zlar: kommunikativ, nutq, metodika, o'quvchi, rivojlanish, kompetentlik, konsepsiya.

Ключевые слова: коммуникатив, речь, методика, студент, развитие, компетентность, понятие.

Key words: this article talks about learning the methodology aimed at developing language skills and improving their communicative abilities for primary school students.

Bu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga til ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning kommunikativ qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan metodikani o'rghanishni maqsad qiladi. Kommunikativ nutqni shakllantirish metodikasi o'quvchilarni so'zlashish, yozish va tinglashish ko'nikmalarini oshirish, ularning fikr ifodalash va ma'nolarni tushunish qobiliyatları rivojlantirilishiga asoslanadi.

Maqola asosan quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Kommunikativ nutqning asosiy tamoyillari va prinsiplari.

Bu bo'limda metodika asosida qo'llaniladigan asosiy tamoyillar, masalan, ijodiy mashg'ulotlar, o'zbek tili fanining ma'nolarini o'rghanish, ko'ngil muhitini yaxshilash, ma'lumotlar bazasi va interaktiv vositalardan foydalanish kabi prinsiplar haqida ma'lumot beriladi.

2. O'zbek tilini rivojlantirish.

Bu bo‘limdada amaliy mashg‘ulotlar, so‘zlar, jumla va gaplar orqali kommunikativ nutqni shakllantirishning qanday o‘tkazilishi haqida ma’lumot beriladi.

3. O‘quvchilarning ijodiy fikrlarini rivojlantirish.

Bu bo‘limda o‘quvchilarning ijodiy fikrlarini ifodalash uchun ko‘rsatilgan mashg‘ulotlar, sinovlar va dasturlar haqida ma’lumot beriladi.

4. Kommunikativ qobiliyatlar va ta‘lim dasturi.

Bu bo‘limda kommunikativ qobiliyatatlarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan ta‘lim dasturi tavsifi va amaliy mashg‘ulotlar bayon qilinadi.



Maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kommunikativ nutqni shakllantirish metodikasini tushunarli va amaliy usullar bilan tanishtirib, ularning til ko‘nikmalarini oshirish, ma’nolarni tushunish va fikr ifodalash qobiliyatları rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ nutqni shakllantirish metodikasi, ularning tillarni o‘rganib, ma’naviyotlarini ifoda qilish va o‘z fikrlarini yetkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun keng qo’llaniladi. Bu metodika o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirib, ularning nutqni osonlik bilan o‘rganishiga yordam beradi.

Bu metodika asosan quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. Ijodiy mashg‘ulotlar: o‘quvchilarni ijodiy mashg‘ulotlarga yo‘naltirish orqali kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ular mutaxassis o‘qituvchilar yordamida savollar tuzish, gaplashish, so‘z yoki matn yozish va ma’no qilib chiqish kabi amaliy mashg‘ulotlar orqali nutqni shakllantirishadi.

2. O‘zbek tili fandan ma’nolarni o‘rganish: o‘zbek tilini fandan ma’nolarni o‘rganish orqali kommunikativ nutqni shakllantirish. Bu bilan birga, so‘zlar, jumla va gaplarni to‘liqroq tushuntirish uchun o‘quv mashg‘ulotlarini keng qo‘llash juda muhimdir.

3. Ko‘ngil muhitini yaxshilash: o‘quvchi-tanlovchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning fikr-mulohazalarini eshitish, ma’lumot almashish va ayrim masalalar bo‘yicha muloqot o‘tkazish orqali ularning nutqlarini rivojlantirish.

4. Ma’lumotlar bazasi va interaktiv vositalardan foydalanish: kommunikativ nutqni shakllantirishda ma’lumotlar bazasi va interaktiv vositalardan o‘quvchilarni foydalanish juda muhimdir. Audio, video materiallar, dasturlar va o‘yinlar yordamida nutqni osonlik bilan o‘rganishadi.

O‘zbek tilining qiziqishlarini oshirish va fanning ma’nolarini o‘rganish orqali, kommunikativ nutqni shakllantirish metodikasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til ko‘nikmalarini va fikr ifodalash imkoniyatlarini rivojlantiradi. Bu esa ularning ijodiy fikrlarini ifodalash, ma’lumot almashish va ta’lim jarayonida aktivaning tushunishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bu metodika boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til ko‘nikmalarini o‘rganish, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan. Metodika asosan ijodiy mashg‘ulotlar, ona tili fani ma’nolarini o‘rganish, ma’lumotlar bazasi va interaktiv vositalardan foydalanish prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Ushbu usullar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nutqni shakllantirishni osonlik bilan o‘rganishadi va ularning fikr ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Metodika o‘quvchilarni aktiv muloqotlar, fikr almashish va ma’lumot almashish jarayonida o‘sishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. Toshkent sh., 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-sonli.

2. Adizova N., The role of the fun genre in children’s spiritual development. Middle european scientific bulletin ISSN 2694-9970 Published: 09.09.2020. – P.38-40

3. Asqarova M. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. — T., 2001.

PEDAGOGIKA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI**TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY TAFAKKURNI
SANOGEN TARBIYLASH OMILLARI**

**Charosxon
SABIROVA**
Urganch innovatsion
university
“Pedagogika va
boshlang'ich ta'lism
metodikasi” kafedrasi
mudiri, (PhD), dotsent

UO'K 520.30

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarda ma'naviy – axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalash masalalari hamda bugungi kunda ta'lism tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: в статье представлена информация по вопросам саногенного воспитания духовно-нравственного мышления студентов и факторам, влияющим на образовательный процесс сегодня.

Annotation: this article provides information on the issues of sanogenic education of students' spiritual and moral thinking and the factors affecting the educational process today.

Kalit so'zlar: talaba, tarbiya, tafakkur, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviy – axloqiy tafakkur, tarbiya jarayoni, sanogen tarbiya, munosabat, kreativ fikrlash, o'z-o'zini shakllantirish, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini o'zgartirish.

Ключевые слова: студент, образование, мышление, духовно-нравственное воспитание, духовно-нравственное мышление, учебный процесс, саногенное воспитание, отношение, творческое мышление, самоформирование, самооценка и самоизменение.

The keywords: student, education, thinking, spiritual and moral education, spiritual and moral thinking, educational process, sanogenic education, attitude, creative thinking, self-formation, self-evaluation and self-change.

Jahon mamlakatlari amaliyoti raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlarga ta'lism tarbiya berish, ta'lism imkoniyatlarini kengaytirish va oliy ta'limda talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalash, ularning o'z-o'zini tarbiyalash masalalarida tafakkur mexanizmlarini ongli boshqarishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. 2015-yil may oyida Janubiy Koreyadagi Butunjahon forumida jahonda ta'lism-tarbiyaning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi “Ta'lism – 2030” Incheon deklaratsiyasi qabul qilindi va butun hayot davomida sifatli ta'lism – tarbiya olishga imkoniyat yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. [1] Bugungi kunda talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalash

masalalari dolzarb itimoiy pedagogik muammoga aylanmoqda. Talabalarda ma’naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalash, didaktik ta’milot sifati va samaradorligi darajasini oshirish, talabalarda ma’naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalashda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan, interfaol metodlardan foydalanish, kreativ fikrlaydigan, kompetentli talabalarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish bo‘yicha tizimli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahonning taraqqiy etgan davlatlarida ta’lim-tarbiyani yuqori pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qiladigan ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarda ma’naviy-ahloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalashni takomillashtirishda induksiya, deduksiya reproduktiv, produktiv, evristik, qisman izlanishli kabi metodlardan keng ko‘lamda foydalanish, xalqaro baholash dasturini tatbiq etish, ta’lim-tarbiya mazmunini modifikatsiya qilish, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirishga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilyapti. Shuningdek, talabalarda ma’naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalashda ularda kreativ fikrlash qobiliyatlarni rivojlantirish, ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti uyg‘unligini ta’minlash kabi muammolarga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan birga nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va ularni o‘tkazishning innovatsion shakllarini ta’lim-tarbiyaviy jarayonga joriy etish, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligi hamda ta’lim-tarbiya xizmatlari ishkoniylarini ko‘لامi (sferasi)ni kengaytirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos talabalarni tayyorlashning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. Bu esa, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarida talabalarda ma’naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalashning innovatsion shakl va metodlarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarorlaridagi belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida talabalar ma’naviy-axloqiy, ta’limiy-tarbiyaviy, ilmiy dunyoqarashi o‘zgarishi kuzatilmoqda.

Mamlakatimizda pozitiv, kognitiv, mantiqiy, tarixiy, ma’naviy tafakkurlarni rivojlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, bilishga intilish, o‘z-o‘zini namoyon etish, irodalilik sifatlarini va motivlarini rivojlantirish masalalarini takomillashtirishning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz” nomli asarida “Zero, bugun insoniyat g‘oyaviy urushlar, ma’naviy ziddiyatlar, zo‘ravon g‘oyalarning dunyonи qayta taqsimlashga qaratilgan o‘yinlari avj olgan shiddatli zamonda yashayapti. Hozir buzg‘unchilik, axloqsizlik va ma’naviy inqirozlar har qachongidan ham xatarli tus olmoqda.

Yoshlarimiz bunday sharoitlarda hamisha hushyor va ogoh bo‘lishlari, fitna va g‘arazli maqsadlar, manfaatdor kuchlar turganini bir lahma ham unutmasdan, yoshligidanoq sog‘lom tafakkurni shakllantirish lozim”. Talabalarda ma’naviy-axloqiy tafakkurni sanogen tarbiyalashni rivojlantirish va ta’lim-tarbiya mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratildi.

Ishonchli, adolatli, insonparvarlikka ega bo‘lgan jamiyatni rivojlantirish uchun, ma’naviy-axloqiy tarbiya hayotimizning asosiy qismi bo‘lib, insonlarning insonparvar, adolatli, va baxtli odamlar bo‘lishini ta’minlaydi. Bu muhim jarayonni tushunish va uning ustida ishlash har bir insonning ma’naviyatini oshiradi va umumiy tarbiyasini tajriba qiladi. Ushbu maqolamizda ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’naviy-axloqiy tafakkur qanday shakllantiriladi va bu sohada faol ishtirok etishning ahamiyati haqida fikr bildirib o‘tmoqchimiz.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya nima?

Ma’naviy-axloqiy tarbiya insonlarning insonparvarlik, adolat, haq, erkinlik, ishonch va boshqa insoniy qadriyatlarini tushuntirish, o‘rgatish va rivojlantirish jarayoni bo‘yicha barcha faoliyatlarini o‘z ichiga olgan tizimdir. Bu tarbiya shaxsiy hayotda, oilaviy muloqotlarda va jamoat ishlarida insonning xarakterini shakllantirishga qaratilgan.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi insonlarning o‘zaro munosabatlarida uning qadriyatlarini o‘rganish, bu qadriyatlar orqali o‘z-o‘zini shakllantirish va jamiyatga foyda olib kelishdir. Masalan, adolatli va insonparvarlik ruhida ta’lim berish, tarbiyalash jarayonini mazmunli va namuna ko‘rsatish orqali shakllantirish, baxtli va barqaror oilaviy munosabatlar yaratishni yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning eng asosiy vazifasi insonni o‘z-o‘zini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu jarayon davomida inson o‘z xatti-harakatlarini tushunadi, o‘z qadriyatlarini o‘rganganligini his qiladi va o‘zini yaxshi tushunish va boshqa insonlarga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartirib o‘z o‘zini mustahkamlaydi.

Yoshlarda ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’naviy-axloqiy tafakkur rivojlantirish orqali jamiyatda adolat va insonparvarlikni oshirish, insonlarning bir-biriga hurmat va e’tiborini oshirish, insonlarning boshqa insonlar munosabatlarini o‘zgartirish mumkin.

Tafakkur bu insonning shunday aqliy faoliyatki, bu faoliyat vogelikni eng aniq, to‘liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga, insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi. [3] Tafakkur orqali inson o‘z muammolarni tahlil qilish, yangi ideyalarni o‘ylab topish, jadal tarzda o‘z qiziqishlariga imkon yaratish va muammolarni hal qilishga harakat qiladi.

Talabalarda ma’naviy va axloqiy tafakkur shakllantirishning bir necha usullariga e’tibor qaratish joiz. Masalan:

Hurmat va adolat bilan ish tutish. Tafakkurda bolalarga adolat va hurmatni o'rgatish, ular o'zaro munosabatlarda adolat va hurmat qilishni bilishlari kerak. Bu ularning jamiyatda adolatli, barqaror fuqarolar bo'lishlari uchun muhimdir.

Mehnat va mardlikka o'rgatish. Tafakkur o'zini o'zi bilan tanishtirish, shaxsiy o'zlashtirish va mehnatga bog'liq muhim omillarni o'rgatishga yordam bera oladi. Bu insonni kuchli va faol fuqaroga aylantirish uchun zarurdir.

Ishonchli va sabrli bo'lishga o'gatish. Tafakkurda, hayotdagi muammolar va mushkulotlar bilan yashashga o'rgatish, ishonch va sabrli bo'lishni rivojlantirish muhimdir. Bu o'zi va boshqalar bilan adolatli, sabrli va yaxshi muomala qilishga yordam beradi.

Boshqa insonlarga yordam berish lozimligiga o'rgatish. Ma'naviy tafakkur, boshqalar bilan qat'iy munosabatlarni rivojlantirish va boshqalarga yordam bermoqda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu insonni jamiyatning mustaqil va faol a'zosi qilishda muhim bo'lib, uning hayoti bo'yicha qadriyat va maqsadlari orqali uning faoliyatini o'rganishda yordam bera oladi.

Bu qarashlar va g'oyalar yordamida, insonlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va tafakkurini rivojlantirish, o'zlarini va jamiyatni rivojlantirishda muvaffaqiyatli hissa qo'shayotganliklarini anglatish mumkin.

Talabalarda ma'naviy-axloqiy tafakkurni sonagen tarbiyalash orqali o'zlarining fikr-mulohazalarini oshirish va ulardan foydalanishni o'rganishga yo'naltiriladi. Bu ularning mantiqiy o'ylash, tahlil qilish, va fikrni ifodalash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Sanogen tarbiya doir oladigan axloqiy qadriyatlar va mas'uliyatlar bilan ta'minlanadi. Ularga o'zlarining jamiyatda qanday muomalada bo'lishlari kerakligi o'rgatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent. O'zbekiston. 2017-yil.
2. Incheon Declaration and SDG4 – Education 2030 Framework for Action.
3. P.I.Ivanov, M.E.Zufarov "Umumiy psixologiya" Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2008-yil
4. Ch.A.Sabirova "Bo'lajak o'qituvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish" dissertatsiya avtoreferati. Chirchiq. 2020-y.
5. www.lex.uz
6. www.edu.uz

FALSAFA**TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHDA AJDODLAR
AMALIYOTLARINING BUGUNGI DAVRDAGI AHAMIYATI.**

**Sharofat
OLLABERGANOVA**
**Urganch
innovatsion
universiteti
o'qituvchisi**

UO'K 540.520

Annotatsiya: Ushbu maqolada ajdodlar qarashlariga xavf – xatar va tahdidlar muammosi ularni bartaraf etishning bugungi davrdagi ahamiyati yoritilgan.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность устранения угроз и угроз родовым видениям на сегодняшний день.

Annotation: In this article, the importance of eliminating threats and threats to ancestral visions is highlighted today.

Kalit so'zlar: Tahdidlar, xavf – xatarlar, tinchlik, ajdodlar, meros, jadidlar, xalq, millaT, Amir Temur, tarix, siyosat, jamiyat.

Ключевые слова: Угрозы, опасности, мир, предки, наследие, прошлое, народ, нация, Амир Темур, история, политика, общество.

Key words: Threats, dangers, peace, ancestors, heritage, past, people, nation, Amir Temur, history, politics, society.

Har bir tarixiy davrning o‘ziga xos madaniyati bo‘lgan. Shu asnoda har qanday madaniy taraqqiyotni tom ma’noda ijtimoiy hayot davomida to‘plangan sotsial tajribalarning umumlashtirilgan natijasi deb e’tirof etish o‘rinli. Tarixiy jarayon davomida ajdodlar va avlodlarning o‘zaro munosabati ilgarigi hayotiy tajribalarni davom ettirib, ularni mazmunan boyitib va takomillashtirib, kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirilgan.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida tarixiy rivojlanishning aynan shu xususiyatini e’tiborga olib fikr bildirib, shunday degan edi: “Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilar – uyg‘oq qalbli ziyorilar, shoir va adiblar san’at namoyondalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma’rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik.

Yaqinda “Milliy tiklanish” gazetasida O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning “Jadidlar” degan she’rini o‘qib qoldim. Hurmatli shoirimiz “Jadidlar yetishmayapti, jadidlar” deb, bugungi kunda ko‘pchilik xalqimizni, jumladan, meni ham qiyinayotgan savollarga javob izlagan”.

Ma'lumki, poydevori mustahkam bo'lgan imorat uzoq va mustahkam turadi. Bu imoratni buzib, barbod qilish uchun uning poydevoriga bolta urishga intiladigan har qanday kuchga nisbatan ogoh bo'lish va o'z vaqtida samarali javob berish esa shu imoratning egalariga bog'liqdir. Shu ma'noda, xalqaro maydonda turli xil manfaatlar to'qnashuvi kuchayib borayotgan hozirgi axborotlashgan dunyo, geosiyosiy raqobat, globallashuv, mafkuraviy xuruj, axborot urushlari yuz berayotgan murakkab va keskin bir sharoitda tahdidlar va ularni bartaraf etish borasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-ma'rifiy merosdan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zligini anglashga bel bog'lagan har bir xalq va millat avvalo buyuk ajdodlari, siyosiy, harbiy arboblari va ulug' allomalarining mamlakat, qolaversa, jahon tarixida tutgan o'rni, xizmatlarini e'zozlab ularning bu sohadagi tajribalariga amal qilib yashaydi.

O'tmish ajdodlarimiz faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, ularning hech qachon tor mahalliychilik doirasida kun kechirmaganliklarining guvohi bo'lamiz. Ular dunyoviy muammolar, umuminsoniy taraqqiyot, inson hayotining mazmun-mohiyati, mantig'i, olam-u odam tashvishi bilan yashashganlarini ko'ramiz. Natijada ma'naviyat va axloqda yetuk, ilm-fanda tengsiz kashfiyotlar, adabiyot va san'atda mislsiz yuksalishlar, davlatchilik va uni boshqaruvida insonparvarlik va adolat tamoyillariga amal qilib, jamiyatning doimiy tarzda tinch, barqaror va xavfsiz rivojlanishiga zamin yaratganlar.



Xalqimizning tinchlik, totuvlik, inoqlik, adolatparvarlik kabi ezgu fazilatlari asrlar osha rivojlanib, sayqallanib kelmoqda. Xozirgi kunda tahdidli ijtimoiy-siyosiy vaziyatni vujudga keltiradigan turli xavf-xatarlar hamda ularni bartaraf etishni ta'minlash masalalari Abu Nasr Farobi, Yusuf Xos Xojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk alloma-yu sarkardalarimiz ta'limotlari va tajribalaridan uyg'un holda yuqoridaq masalalarni hal qilishga xizmat qiladi. Chunki bundan ming yillar ilgari buyuk ajdodlarimiz tomonidan xavf-xatar va

tahdidlarni anglab yetish, ularga nisbatan doimo ogoh, hushyor bo‘lish, g‘ofillikka yo‘l qo‘ymaslik tahdidni yuzaga keltiradigan manbalarni ildiz otmasdan bartaraf qilish haqidagi fikrlari hozirgi davrda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Zero bobomiz Amir Temur ham “qat’iylik, sabr-toqat, chidamlilik, xushyorlik, ehtiyyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilgay ” deb deb ta’kidlagan edilar.

Mamlakat tinchligi va barqarorligini ta’minalash, uni tashqi dushmanlardan himoya qilish, o‘z xalqi va vatanini jahonga tanitish istagi Amir Temur faoliyatida asosiy o‘rinni egallagan.

Amir Temur va Temuriylar davrida o‘tgan tarixshunos olimlardan biri Ibn Arabshox Temurga shunday ta’rif beradi: “U sinchkov, har bir ishoratdan ogoh kishi bo‘lib, yuz berishi mumkin bo‘lgan hodisalari ko‘rib, bilib turar edi. Uning nazaridan aldovchining aldrovi yashirinib qolmas va firibgarning firibi o‘tmas, o‘z farosati bilan haqgo‘y va yolg‘onchini ajratar edi. Ziyarakligi bilan haq nasihatgo‘yni ajrata olar, o‘z fikri va idroki bilan sal bo‘lmasa “uch yulduz”ni to‘g‘ri yo‘lga solib yuborar, o‘z farosati va mulohazalari bilan bexato aylanib turgan o‘qini o‘z orqasidan ergashtira olar edi”.

Ko‘rinib turibdiki, tarix sahifalari, buyuk bobomizning millat va el-ulus manfaati bobida chekkan mislsiz zaxmat va ko‘rsatgan shijoatlariga guvohlik beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mustahkam iroda, bag‘rikenglik, iyomon-e’tiqod milliy g‘urur tuyg‘usi, siyosatda o‘zaro maslahat va keng mulohazalilik xalqimizning ko‘p ming yillik tarixi, milliy urf-odatlari va an‘analariga, milliy qadriyatlariga sadoqat hamda otashin vatanparvarlik Amir Temur hayoti, ma’naviy-ma’rifiy ta’limotining mazmunini tashkil etadi, desak xato qilmaymiz. Uning bu ta’limoti hozirgi kunda ham rahbar xodimlar uchun dasturulamal vazifasini o‘tab kelmoqda. Darhaqiqat, xalq va yurtini barcha xavf-xatar va tahdidlardan himoya qilish qobiliyati barcha sohadagi yutuqlar, avvalambor, mamlakatning ma’rifiy rivojlanishi va tarixiy mas’uliyatni his etish darajasi bilan bog‘liqdir. Aks holda jamiyat hayotida ro‘y berayotgan va kutilmagan, ilgari uchramagan batamom yangi va o‘ziga xos sir-asrorga boy bo‘lgan voqeа hodisalarga to‘g‘ri javobni berishda xatolikka yo‘l qo‘yilishi mumkin. Bu esa inson hayoti va faoliyati uchun xavf-xatar va tahdidlarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Biz bilamizki, axloq bilan uyg‘unlashgan siyosat o‘z muddaosida jamiyatni ixtiloflardan, favqulodda hodisalardan, beqarorlikdan, turg‘unlikdan saqlaydi. Shundan kelib chiqqan holda, davlat yoxud siyosiy arbob o‘z siyosiy faoliyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Zero, axloq bo‘limgan joyda siyosatning maqsad va mohiyati buziladi. Bu borada buyuk mutafakkirlar asrlar davomida axloq, siyosat, hokimiyat va zo‘ravonlik muammolariga nisbatan umuminsoniy, diniy, ilmiy-nazariy qarashlarini shakllantirib kelganlar. Eng muhimmi ularning fikr-mulohazalari shunchaki aqliy idrok natijasi bo‘lib qolmasdan, qalb harorati, g‘ayb ilmining sururi bilan sug‘orilgan edi. Aynan shuning uchun ham nihoyatda qadrli hamda foydalidir.

Abu Ali Ibn Sino barqaror, tinch va adolatli jamiyatda yashash sharti sifatida birinchi o‘ninga insonlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni qo‘yadi. Uningcha, axloqiy munosabatlarning yuksalishi jamiyatning ma’naviy-axloqiy sog‘lomligi va sobitligini ta’minlaydi. Shuningdek, insonlarni ma’naviy-ma’rifiy komilikka erishuvchi jamiyatning yanada takomillashuvini, unda adolat tamoyillarining barqarorligini ta’minlaydi.

Abu Nasr Forobiy iborasi bilan aytganda, “Aholisi xushxulqqa ega bo‘lmagan mamlakatda hokimiyatga ehtiyoj seziladi”. Demak jamiyatning barqarorligi, xavfsizligining ta’minlanganligi, taraqqiyot yo‘lidan og‘ishmay borishi, uning nechog‘lik demokratiyalashuvi, inson erki va huquqlarining to‘la-to‘kis ta’minlanishi, eng avvalo mamlakat aholisining fe’l-atvoriga, ma’naviy-axloqiy va ruhiy kamolotiga bog‘liq ekan. Agar aholi o‘z huquq normalari doirasida amaldagi qonunlarga bo‘ysunib, yashashni turmush tarziga aylantira olsagina, o‘z xatti-harakatini ma’lum qonun-qoidalar yo‘nalishiga tushira bilsagina, aql-idrok, odob va ahloq ogohlik va sergaklik tushunchalarini hayotining har bir daqiqasida namoyon qila bilsagina jamiyat tinch va barqaror, uning ma’naviy qiyofasi barkamol, shaxsning yashash tarzi yetuk, erkinliklari esa cheksiz bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi., 2023-yil 22-dekabr
2. A.Zohidiy. Abu Ali Ibn Sino. Tabiblar sultonii., T.:“Anorbooks”, 2023. 160-b.
3. A.Zohidiy. Abu Nasr Forobiy. Sharq Aristoteli. T.:“Anorbooks”, 2023, 160-b.
4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. – T.: “Mehnat”, 1992.
5. I.Mo‘minov. Amir Temurning O‘rtta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T.: “Fan”, 1968.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

1-2 (12)
2024-yil, yanvar-fevral.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Mas'ul kotib:	U.Bekimmetov
Musahhih:	J.Sobirov
Texnik muharrir:	M.Kuranbayev
Navbatchi:	M.Kuranbayev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqt: 14:00. Topshirildi: 14:00.

Qog'oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 6,3 b.t. Buyurtma №0002.

Nashr ko'rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

"Milleniumus print" MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, "Shermatlar" MFY, Tadbirkorlar ko'chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, "Mustaqillik" MFY,
Gurlan ko'chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22